

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
«Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes» kafedrasini  
MAKROIQTISODIYOT**

*fanidan*

**O‘QUV – USLUBIY  
MAJMUA**

<b>Bilim sohasi:</b>	<b>300000-Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot 400000 - Biznes, boshqaruv va huquq</b>
<b>Ta’lim sohasi:</b>	<b>310000 – Ijtimoiy va xulq va mansub fanlar 410000 - Biznes va boshqaruv</b>
<b>Ta’lim yo`nalishi:</b>	<b>60310100- Iqtisodiyot (tarmoqlar va cohalar bo`yicha) 60310400-Iqtisodiy xavfsizlik 60411700-Logistika (yo'nalishlar bo'yicha) 60411300-Biznesni boshqarish 60412200 – Moliya sohasida boshqaruv</b>

Ushbu o'quv uslubiy majmua "Makroiqtisodiyot" fanidan ishlab chiqiylgan o'quv dasturi asosida tayyorlangan hamda Namangan davlat universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2024 yil "\_\_\_\_"avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

**Tuzuvchi:**

**R.M.Axmedov**

NamDU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrası dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

**Taqrizchilar:**

**K.Sirojiddinov**

NamDU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes"  
kafedrası i.f.n., dots

**D.Boymirzayev**

NamDU "Menejment" kafedrası muduri, (PhD),. dots

Fanning o'quv uslubiy majmuasi "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrası kafedraning 2024 yil \_\_\_\_ avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tkazilgan va fakultet kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:**

**B.Urinov**

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi Iqtisodiyot fakultetining kengashining 2024 yil \_\_\_\_ avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tkazilgan va universitet kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Fakultet dekani:**

**N.Narzullayev**

## O'QUV-USLUBIY MAJMUANING TARKIBIY TUZILISHI

### MUNDARIJA

- 1. O'quv materiallar..... 3 bet**
  - ma'ruza mavzulari bo'yicha..... 4 – 65 betlar
  - amaliy mavzulari bo'yicha..... 66 - 93 betlar
- 2. Mustaqil ta'lim topshiriqlari..... 94 – 102 betlar**
- 3. Glossariy.....103 – 110 betlar**
- 4. Ilovalar:**
  - ishchi fan dasturi..... 111 – 135 betlar
  - tarqatma materiallar..... 136 - 140 betlar
  - nazorat savollari ..... 141 – 160 betlar
  - testlar..... 161 – 190 betlar
  - baholash mezonlari..... 191 – 193 betlar
  - adabiyotlar ro'yxati ..... 194 – 197 betlar

# 1.O‘quv materiallar

## MA‘RUZALAR MATNLARI

### 1-Mavzu. Makroiqtisodiyotga kirish

#### Reja

1. “Makroiqtisodiyot” fanining shakllanishi tarixi, predmeti va ob’ekti.
2. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullari.
3. “Resurslar- tovarlar va xizmatlar” hamda “daromadlar –xarajatlar”ning doiraviy oqimi modeli.

#### 1.1.“Makroiqtisodiyot” fanining shakllanishi tarixi, predmeti va ob’ekti.

Makroiqtisodiy tahlilning tamal toshlari, J.B.Sey, L.Valras, V.Pareto va boshqa olimlar tomonidan XIX asrdanoq qo‘yilgan edi.

J.M. Keynes esa o‘zining “Ish bilan bandlilik, foiz va pulning umumiy nazariyasi”(1936 yil) asari bilan bu jarayonni mantiqiy yakuniga yetkazdi. SHu sababli ham J.M. Keynes makroiqtisodiyot fanining asoschisi sifatida tan olinadi.

**Makroiqtisodiyot umumiy iqtisodiy nazariyaning bo‘limi hisoblanib, unda milliy xo‘jalik darajasida iqtisodiyotning fundamental muammolari tadqiq qilinadi.**

Makroiqtisodiy nazariyaning ikki ko‘rinishi o‘zaro farqlanadi:

- a) pozitiv makroiqtisodiyot;
- b) normativ makroiqtisodiyot.

**Makroiqtisodiyot yalpi ishlab chiqarishining barqaror o‘shishini, resurslarning to‘liq bandliligini, inflyatsiyaning past sur‘atlarini va to‘lov balansining muvozanatini ta‘minlash nuqtai nazaridan mamlakat iqtisodiyotini bir butun holda tadqiq qiladi va uni makroiqtisodiy tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini o‘rganadi.**

makroiqtisodiyot predmetida o‘zaro bog‘liq uch jihatni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular:

- 1) milliy iqtisodiyot;
- 2) davlat tomonidan iqtisodiy siyosati yuritish va iqtisodiyotni tartibga solish;
- 3) jahon xo‘jaligi doirasida milliy iqtisodiyotni boshqa mamlakatlar iqtisodiyoti bilan o‘zaro munosabatlari masalasi.

#### 1.2. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullari.

Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullariga ilmiy abstraktsiya, analiz va sintez, deduktsiya, induktsiya, statistik kuzatuv, iqtisodiy matematik modellashtirish usullari va boshqalar kiradi.

Makroiqtisodiyot fanida **agregat kattaliklardan** foydalanishga asoslangan tadqiqot usullaridan foydalaniladi.

**Agregatlash, ya‘ni bir qancha iqtisodiy ko‘rsatkichlar va kategoriyalarni yagona makroiqtisodiy ko‘rsatkich yoki kategoriyaga umumlashtirish** orqali milliy iqtisodiyotdagi makroiqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilish imkoniyati yuzaga keladi.. Agregat ko‘rsatkichlar yordamida minglab alohida bozorlarni mamlakatning yagona bozori sifatida ko‘rib chiqish mumkin bo‘ladi. Makroiqtisodiy tahlil jarayonida alohida tovarlar va xizmatlarning bahosi, ularga bo‘lgan talab va ularni taklif etish hajmlari ko‘rsatkichlari emas, balki agregat ko‘rsatkichlar hisoblangan baholarning o‘rtacha darajasi, yalpi talab va yalpi taklif ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi. Makroiqtisodiy tahlilda asosiy tadqiqot usuli makroiqtisodiy jarayonlarni agregat ko‘rsatkichlardan foydalangan holda iqtisodiy matematik modellashtirishdir.

**Makroiqtisodiy modellar iqtisodiy ko‘rsatkichlar va jarayonlar o‘rtasidagi miqdoriy, sabab- oqibat bog‘lanishlarini matematik formula, grafik va chizmalar ko‘rinishida ifodalaydi.**

Bunga yalpi talab-yalpi taklif (AD-AS) modelini, Keynes xochini, Fillips egri chizig'ini, IS-LM modelini, iqtisodiy o'sishning Domar, Xarrod va Solou modellarini i keltirish mumkin.


Makroiqtisodiy modellarda tashqaridan belgilanadigan, ya'ni modelda tayyor kattalik sifatida qabul qilinadigan **ekzogen** o'zgaruvchilar hamda modelni yechish natijasida topiladigan **ichki-endogen** o'zgaruvchilar farqlanadi. Bir modelda ekzogen hisoblangan o'zgaruvchi (ko'rsatkich) ikkinchi model uchun endogen hisoblanishi mumkin.

### 1.3. “Resurslar- tovarlar va xizmatlar” hamda “daromadlar –xarajatlar”ning doiraviy oqimi modeli

Har qanday iqtisodiy tizimda tovarlar va xizmatlarni takror ishlab chiqarish umumiy jarayonini resurslar, tovar va xizmatlar, daromadlar hamda xarajatlarning **doiraviy oqimi modeli** ko'rinishida tasavvur qilish mumkin.

Resurslar hamda tovarlar va xizmatlar oqimi jami taklifni, daromadlar va xarajatlar oqimi jami talabni ko'rsatadi. Davlat ishtiroki mavjud bo'lmagan yopiq iqtisodiyotda yalpi talab va yalpi taklifning o'zaro teng bo'lishi firmalarning yalpi sotuvi, yoki yalpi ishlab chiqarishi hajmi uy xo'jaliklarining yalpi daromadlari, yoki yalpi daromadlariga teng bo'lishi shaklida namoyon bo'ladi.

Bu ko'rsatkichlar o'rtasidagi tenglikning buzilishi ishlab chiqarishning pasayishi, inflyatsiya va ishsizlik darajalarining ko'tarilib ketishiga sabab bo'ladi. Davlat aralauvi mavjud bo'lgan iqtisodiyotda bu model ancha murakkab ko'rinish oladi( 1.1.chizma).



1.1.-chizma. “Resurslar-tovarlar va xizmatlar” hamda “daromadlar – xarajatlar”ning davlat aralashuvi mavjud iqtisodiyotdagi doiraviy aylanishi modeli.

Bunda:

1. Er, mehnat, kapital.	9.Iste'mol xarajatlari.
2. Resurslar.	10.Sotishdan tushgan daromad.
3. Tovar va xizmatlar.	11.Resurs xarajatlari.
4. Tovar va xizmatlar.	12.Soliqlar.
5. Resurslar.	13.Soliqlar.
6. Tovar va xizmatlar	14.Xarajatlar.
7. Transfertlar.	15.Xarajatlar.
8. Pul daromadlar (ish haqi, renta, foiz, foyda)	16.Subsidiyalar.

Bunday iqtisodiyotda resurslar - tovarlar va xizmatlar, daromadlar- xarajatlarning uzluksiz harakati ham bozor mexanizmlari orqali, ham davlat aralashuvi bilan ta'minlanadi. Bunda hukumat ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning harakatini bevosita boshqarmaydi,

balki resurslar va tovarlar bozorlarida qatnashish orqali ularning iqtisodiy faoliyatiga qulay sharoitlar yaratadi. Davlat korxonalar va uy xo'jaliklarini soliqqa tortish bilan birga korxonalarga subsidiyalar berish, aholiga transfert to'lash orqali ularning ishlab chiqarish imkoniyatlari va xaridga qodir talablariga ta'sir etadi. Ayni paytda davlat resurslar bozoridan hamda tovarlar va xizmatlar bozorida sotib oluvchi sifatida ishtirok etadi. Davlat o'z ishtiroki bilan firmalarning ishlab chiqarish hajmlari va uy xo'jaliklarining tovarlar va xizmatlar xarid qilish miqdolari to'g'risidagi qarorlari o'zaro mos kelmagan hollarda ro'y beradigan iqtisodiy tebranishlarni tartibga solib turadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Makroiqtisodiyot fani predmetining o'ziga xos xususiyati nimada va u mikroiqtisodiyot predmetidan nimasi bilan farq qiladi?
  2. Pozitiv va normativ makroiqtisodiyot tushunchalariga izoh bering.
  3. Iqtisodiyot sub'ektlari orasida davlatning roli qanday?
  4. Agregat ko'rsatkichlar deganda nimani tushunasiz? Makroiqtisodiy tahlilda agregat ko'rsatkichlardan foydalanish zaruriyati nima uchun yuzaga keladi?
  5. Makroiqtisodiy modellarning mohiyatiga izoh bering.
  6. Zahiralarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar va oqimlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar o'rtasida qanday bog'liqliklar mavjud?
  7. "Resurslar- tovarlar va xizmatlar" hamda "daromadlar –xarajatlar"ning doiraviy oqimi modelidagi qarama-qarshi omillarga izoh bering.
- Doiraviy oqimlar modelini doiraviy aylanish tusini olishining shartlari qanday?

## **2-Mavzu. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash**

### **Reja**

1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar.
2. Yalpi ichki mahsulot tushunchasi va uni hisoblashning asosiy shartlari.
3. YaIM ni ishlab chiqarish uslubida aniqlash.
4. YaIMni xarajatlar bo'yicha hisoblash.
5. YaIM ni daromadlar bo'yicha hisoblash.
6. Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko'rsatkichlar va ular o'rtasidagi nisbat.
7. Nominal va real YaIM.
8. Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar.

### **2.1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar**

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini tahlil qilishda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- ✓ Yalpi ichki mahsulot (YaIM), Sof ichki mahsulot (SIM), Yalpi milliy daromad (YaMD), Sof milliy daromad (SMD), shaxsiy daromad (SHD), SHaxsiy tasarrufidagi daromad (SHTD), Iste'mol(S), Jamg'arish (S) ko'rsatkichlarining hajmi va o'sish sur'atlari;
- ✓ iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi;
- ✓ mamlakat eksporti va importi hajmi, tarkibi, YaIMdagi ulushi va o'sish suratlari;
- ✓ resurslardan foydalanishning samaradorligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar (Mehnat unumdorligi, Fond qaytimi);
- ✓ davlat byudjeti taqchilligi, deflyator, iste'mol baholari indeksi, inflyatsiyaning o'sish sur'atlari;
- ✓ ishsizlik darajasi va ishsizlar soni, aholining ish bilan bandlik darajasi;
- ✓ aholining moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'moli hajmi, ularning jamg'armalari, ish haqining quyi miqdori va boshqalar.

Davlat byudjeti taqchilligi va inflyatsiya surati kabi ko'rsatkichlar umumiy makroiqtisodiy vaziyatga baho berishda qo'llanilsa, YaIM, SIM, YaMD, SMD, SHD, SHTD, S, S ko'rsatkichlari milliy ishlab chiqarishning parametrlarini va dinamikasini tahlil etishda foydalaniladi.

## 2.2. Yalpi ichki mahsulot tushunchasi va uni hisoblashning asosiy shartlari

1993 yilda qabul qilingan BMT MHTning yangi talqiniga ko'ra Yalpi ichki mahsulot (YaIM) asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi.

**YaIM** - mamlakat rezidentlari tomonidan ma'lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlar bozor baholarininng umumiy yig'indisidan iborat.

Boshqa bir ta'rifga ko'ra YaIM- mamlakat hududida ma'lum muddat davomida yangidan yaratilgan qiymatlar yig'indisidir.

YaIM ning «ichki» deb atalishiga sabab uning mamlakat rezidentlari tomonidan yaratilishidir. Rezident deganda faqatgina mamlakatning yuridik va jismoniy shaxslari tushunilmaydi. Chunki mamlakat yuridik shaxsi boshqa mamlakat hududida bir yildan ortiq faoliyat yuritsa o'sha mamlakat rezidenti deb qaraladi.

YaIM uch xil usul bilan hisoblanadi:

- 1) ishlab chiqarish usuli;
- 2) xarajatlar usuli;
- 3) daromadlar usuli.

Har uchala usul bilan hisoblangan YaIM ko'rsatkichi hajmi statistik xatolar istisno etilganda o'zaro teng bo'lishi lozim. SHU birga birga har uchala usul bilan YaIM ko'rsatkichni hisoblashda o'ziga xos talablarga amal qilinishi talab etiladi.

## 2.3. YaIMni ishlab chiqarish usulida aniqlash

Ishlab chiqarish usulida hisoblangan YaIM yakuniy tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishning turli bosqichlarida qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida aniqlanadi. YaIMni bu usulda aniqlash statistik jihatdan qulay bo'lishi bilan birga uni hisoblashning muhim shartiga amal qilish, ya'ni bir qiymatni ikki bor hisobga olish, yoki oraliq mahsulot qiymatini YaIMga kiritib yuborishning oldini oladi.

**Qo'shilgan qiymat** tovar va xizmatlarning sotish bahosi bilan ularni ishlab chiqarish uchun foydalanilgan xom ashyo va materiallarni sotib olishga qilingan xarajatlar o'rtasidagi farq ko'rinishida aniqlanadi.

2.1-jadval.

### O'zbekiston Respublikasida YaIM dinamikasi va ishlab chiqarish tarkibi

Davrlar	Mos davrlarda joriy baholarda, mlrd.so'm	O'tgan yilning mos davriga nisbatan % (taqqoslama baholarda)	YaIMning ishlab chiqarish tarkibi,%				
			Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Qurilish	Xizmat ko'rsatish sohasi	Sof soliqlar
2000	3255,6	103,8	14,2	30,1	6,0	37,2	12,5
2006	20759,3	107,5	21,8	25,1	5,1	37,9	10,1
2007	28186,2	109,5	24,0	21,7	5,5	39,3	9,5

2008	36839,4	109	22,3	19,4	5,6	43,4	9,3
------	---------	-----	------	------	-----	------	-----

2.1-jadval ma'lumotlariga tayangan holda O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan YaIMning tarmoq tuzilishini ko'rib chiqamiz.

2007 yilda YaIMning 24,0 foizi sanoat tarmoqlarida, 21,7 foizi qishloq xo'jaligida, 5,5 foizi qurilish sohasida va 39,3 foizi xizmat ko'rsatish sohasida yaratildi. Iqtisodiyot rivojlanishi, real sektorda ishlab chiqarish samaradrligi oshib borishi bilan sanoat va ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasining YaIMdagi ulushi ortib borilishi jahon iqtisodiy tarixida kuzatilgan hodisadir. O'zbekiston Respublikasida 2001-2007 yillarda sanoat tarmoqlarining YaIM dagi ulushi ortib borayotganligi progressiv tarkibiy siljishdan dalolat beradi. "Jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta'sirlari sanoat ishlab chiqarishida nisbatan ko'proq namoyon bo'lishi natijada uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o'tgan yildagi 24 foiz o'rniga 2008 yilda 22,3 foizni tashkil etgan. Qishloq xo'jaligi salmog'ining 19,4 foizga qadar pasayishi esa mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibining takomillashib, unda sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish sohasining ulushi yildan-yilga oshib borayotganligini anglatadi". Qo'shilgan qiymatlar yig'indisi ko'rinishida hisoblangan YaIM tarkibiga sof bilvosita soliqlar, ya'ni davlat byudjetiga tushgan qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i va bojxona boji to'lovlari bilvosita soliqlar bilan davlat byudjetidan ishlab chiqaruvchilarga berilgan subsidiyalar o'rtasidagi farq ham qo'shiladi.

Sof soliqlarning YaIMdagi ulushi 2007 yilda O'zbekiston Respublikasida 9,5 foizni, 2008 yilda esa 9,3 foizni tashkil etdi. Sof soliqlarning YaIMdagi ulushi kamayib borishini ijobiy tendentsiya deb baholash mumkin.

#### 2.4. YaIMni xarajatlar bo'yicha hisoblash

Bu usul yakuniy foydalanish usuli deb ham yuritilib, unda YaIMni hisoblash uchun yakuniy mahsulotlarni sotib olishga qilingan barcha xarajatlar o'zaro qo'shib chiqiladi. Bu xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

**Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari (S):**

**Yalpi ichki xususiy investitsiya xarajatlari (I):**

**Tovar va xizmatlarning davlat xaridi (G).**

**Sof eksport (Xp):** mamlakatning import va eksport operatsiyalari bo'yicha xarajatlar o'rtasidagi farq.

YaIMni xarajatlar orqali hisoblash formulasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$YaIM = S + I + G + Xp$$

O'zbekiston Respublikasida yaratilgan YaIMning foydalanish (xarajatlarga ko'ra) tarkibi tahlili (2.2.-jadval) shuni ko'rsatadiki uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari YaIM tarkibidagi eng salmoqli komponent ekan. Bu ko'rsatkichning YaIMdagi ulushiga ko'ra O'zbekiston Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya va Frantsiya davlatlariga yaqin turadi. Yalpi jamg'arish, yoki yalpi investitsiyalar ulushi kattaligi bo'yicha ikkinchi komponent bo'lib 2007 yilda YaIMning 21,3 %ini (shu jumladan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 22,6 %ni, zahiralarning o'zgarishi -1,3 % ni tashkil etgan. Taqqoslov uchun ma'lumotlar keltiradigan bo'lsak [2002 yil yakunlariga ko'ra yalpi investitsiyalarning YaIMdagi ulushi Rossiya Federatsiyasida 21%ni, Yaponiyada 17 foizni, Frantsiyada 24%ni, Xitoy Xalq Respublikasida esa 40 foizni tashkil etgan.

2.2.-jadval.

#### O'zbekiston Respublikasida YaIMning foydalanish tarkibi (%)

Davr	Yakuniy iste'mol harajatlari jami, %		Yalpi jamg'arish		Sof eksport
	Xususiy	Davlat	Asosiy kapitalga yalpi ichki investitsiya	Zahiralarning o'zgarishi va boshqalar	



2000	61,9	18,7	24,0	-4,4	-0,2
2001	61,5	18,5	27,9	-6,8	-1,1
2002	60,2	18,0	22,1	-0,9	0,6
2003	55,6	17,4	21,5	-0,7	6,2
2004	51,9	16,2	23,5	1,0	7,4
2005	48,4	15,9	22,0	6,0	7,7
2006	48,2	15,3	21,6	8,0	6,9
2007	47,9	16,6	23,5	4,7	8,3
2008	47,1	17,5	25,5	5,5	4,4
2009	48,0	17,8	29,2	-0,4	5,4

Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi sharoitida tashqi talabning pasayishi sof eksportning mamlakatimiz YaIMdagi ulushi 2008 yilda 12,8 %ga tushib qolishiga olib keldi.

### 2.5. YaIMni daromadlar(taqsimot usuli) bo'yicha hisoblash.

YaIMni daromadlar bo'yicha aniqlashda yakuniy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida rezident-ishlab chiqarish birliklari tomonidan, qo'shilgan qiymatlar hisobidan, to'langan dastlabki daromadlar qo'shib chiqiladi.

YaMMni daromatlari yig'indisi ko'rinishida hisoblashda asosan quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

-sof bilvostia soliqlar ( $T_n$ );

- yollanma ishchilarning ish haqlari ( $W$ ) va ijtimoiy sug'urta ajratmalari;

- Korporatsiyalarning yalpi foydasi + nokorporativ korxonalar daromadi ( $R$ ).

$R =$  Korporatsiyalarning sof foydasi ( $R_1$ ) + nokorporativ korxonalar sof daromatlari( $R_2$ ) + amortizatsiya ( $A$ );

YaIMni daromadlar ko'rinishida yalpi qo'shilgan qiymatni ko'rsatilgan uch guruhga bo'lib topish mumkin:

$$YaIM = T_n + W + R$$

Xarajatlar va daromadlar ko'rinishida hisoblab topilgan YaIM hajmi o'zaro mos keladi. CHunki milliy iqtisodiyot doirasida bir sub'ekt tomonidan qilingan har qanday xarajat ikkinchi sub'ekt uchun daromad bo'lib tushadi.

### 2.6. Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko'rsatkichlar va ular o'rtasidagi nisbat.

YaMD - mamlakat rezidentlari tomonidan, mamlakatda va mamlakat tashqarisida, ishlab chiqarishda ishtirok etish va mulkdan olgan boshlang'ich daromatlari yig'indisidir.

$YaMD = YaIM +$  mamlakat rezidentlaroi tomonidan xorijdan olingan daromatlari - norezidentlarning mamlakatdan xorijga jo'natgan daromatlari.

Sof ichki mahsulot (SIM) va Sof milliy daromad (SMD) ko'rsatkichlari YaIM va YaMD ko'rsatkichlaridan amortizatsiya (iste'mol qilingan asosiy kapital) summasi miqdoriga farq qiladi.

$$SIM = YaIM - A$$

$$SMD = YaMD - A$$

Makroiqtisodiy tahlilda shuningdek MHTga kirmagan SHaxsiy daromad (SHD) ko'rsaikichi ham qo'laniladi.

$SHD = SMD - [$  ISA (Ijtimoiy sug'urta ajratmalari) + T (bilvosita soliqlar) + (R1.1) korporatsiya foydasiga soliqlar) + R1.3 (Korporatsiya-larning taqsimlanmagan foydasi + biznesning foiz daromadlari ) + transfert to'lovlari (TR) + foizlar ko'rinishida olingan shaxsiy daromad

Foizlar ko'rinishida aholi olgan daromadga davlat qarzlari bo'yicha olingan foiz daromadlari ham kiritiladi.

SHTD uy xo'jaliklari tomonidan iste'mol (C) va jamg'arish (S) uchun ishlatiladi.

$$SHTD = C + S$$

$$YaMTD = YaMD + \text{Xorijdan olingan sof transfertlar}$$

Xorijdan olingan sof transfertlar = Mamlakat tashqarisidan olingan transfertlar – Mamlakatdan tashqariga berilgan transfertlar)

$$YaMTD = \text{Yakuniy iste'mol} + \text{Milliy jamg'armalar}$$

Yakuniy iste'mol uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlaridan tashqari hukumatning iste'molga xarajatlarini ham o'z ichiga oladi.

## 2.7. Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar.

**Turli makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, yoki ko'rsatkichlar guruhlarini o'rtasidagi mavjud bo'ladigan, yoki mavjud bo'lishi iqtisodiy qonuniyat hisoblagan o'zaro tenglikka makroiqtisodiy ayniyat deyiladi.**

Xarajatlar va daromadlar ko'rinishida hisoblangan YaIM ko'rsatkichlarining o'zaro tengligi asosiy makroiqtisodiy ayniyat hisoblanadi.

$$Y = C + I + G + X_n$$

Ikkinchi bir makroiqtisodiy ayniyat investitsiyalar va jamg'armalar o'rtasidagi tenglik hisoblanadi.

Aytaylik, mamlakat iqtisodiyoti ochiq, ya'ni eksport-import aloqalari yo'lga qo'yilgan, soliq solish va transfert to'lovlari ko'rinishida davlat aralashuvi mavjud bo'lsin. Bunday holatda jamg'arish tushunchasi murakkablashib, quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$S = S_p + S_d + S_x$$

Bu yerda:  $S_p$  - xususiy jamg'armalar;

$S_d$  - davlat jamg'armalari;

$S_x$  - boshqa mamlakatlar jamg'armalari.

Bunda xususiy jamg'armalar daromadlar ( $U$ ), transfert to'lovlari ( $TR$ ), davlat zayomlari bo'yicha foizlar yig'indisidan ( $N$ ) soliqlar ( $T$ ) va iste'mol ( $S$ ) xarajatlari yig'indisini ayirish natijasiga teng bo'ladi.

$$S_p = (U + TR + N - T) - C$$

Davlat jamg'armalari quyidagi miqdorga teng bo'ladi:

$$S_d = (T - TR - N) - G$$

Agar davlat jamg'armalari nolga teng bo'lsa, davlat byudjeti muvozanatlashgan, jamg'arishning manfiy miqdori byudjet taqchilligini ( $BT$ ) bildiradi:

$$BT = -S_d$$

Bu yerda:  $BT$  – byudjet taqchilligi miqdori.

Boshqa mamlakatlarning jamg'armalari tashqi dunyoning bizning importimiz hisobiga olgan daromadlaridan ularning bizning eksportimizga sarflangan harajatlarini ayirib topiladi.

$$S_x = M - X \text{ yoki } S_x = -X_n$$

Agar mamlakat eksportiga nisbatan ko'proq import qilsa, unda daromadlarning bir qismi xorijda qoladi va keyinchalik undan xorijiy sheriklar tomonidan mamlakatimizda ko'chmas mulk va moliyaviy aktiv sotib olishda foydalaniladi.

Har qanday holatda ham barcha turdagi jamg'armalarning umumiy yig'indisi investitsiyalarga teng bo'ladi:

$$S_p + S_d + S_x = (U + TR + N - T) - C + (T - TR - N) - G + (-X_n)$$

yoki

$$S_p + S_d + S_x = U - C - G - X_n$$

$$S = C + I + G - X_n - C - G - X_n$$

$$S = I$$

Demak, iqtisodiyotdagi investitsiya xarajatlari nafaqat ichki jamg'armalar hisobiga, balki tashqi dunyo jamg'armalari hisobiga ham amalga oshirilishi mumkin. Mamlakatda investorlarga kafolatlangan yuqori foyda olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar xorijiy investorlar oqimining o'sishiga olib keluvchi muhim shartlardan biridir.

## 2.8. Nominal va real YaIM.

Iqtisodiyotda doimiy inflyatsiya jarayonining mavjudligi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslama baholarda hisoblashni zarur etib qo'yadi. Chunki, inflyatsiya iqtisodiyotning real holatini buzib ko'rsatadi. Iqtisodiyotni tahlil qilish, muammolarni aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qiyinlashtiradi. Bu vazifani bajarish uchun joriy baholarda hisoblangan nominal ko'rsatkichlardan emas, balki taqqoslama (bazis) baholarda hisoblangan real ko'rsatkichlardan foydalanish zarur. Baholar indeksini yoki inflyatsiya darajasini hisoblash uchun: deflyator (11efl indeksi); iste'mol narxlari indeksi (Laspeyres indeksi); sanoat ishlab chiqarish baholari indeksleri hisoblanishi lozim.

Deflyator ko'rsatkichi quyidagi formula 11eflya hisoblaganadi:

$$\text{Deflyator} = \frac{\sum Q^i_1 P^i_1}{\sum Q^i_1 P^i_0} \cdot 100$$

$$\text{Real YaIM} = \frac{\text{Nominal YaIM}}{\text{Deflyator}} \cdot 100$$

Iste'mol narxlari indeksi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{INI} = \frac{\sum Q^i_0 P^i_1}{\sum Q^i_0 P^i_0} \cdot 100$$

Bu yerda:

$Q^i_0$  – bazis yilda bozor savatiga kiritilgan  $i$  – tovar va xizmatlar hajmi;

$P^i_1$  –  $i$  – tovarning joriy yildagi bahosi;

$P^i_0$  –  $i$  – tovarning bazis yildagi hajmi.

Sanoat ishlab chiqaruvchilar baho indeksi iste'mol narxlari indeksi singari hisoblanadi. Lekin bozor savatiga sanoat mahsulotlarigina kiritilib ular ulgurji baholarda hisoblanadi.

### Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilish uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlardan qaysilari makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi?
2. Qo'shilgan qiymat, yakuniy mahsulot, oraliq mahsulot ko'rsatkichlarini tavsiflab 11eflyat.
3. Nima uchun YaIM ko'rsatkichini qayta hisoblashdan ehtiyot bo'lish zarur va bunga qanday erishiladi?
4. YaIMni xarajatlar bo'yicha hisoblashda qo'llaniladigan komponentlar tarkibini sanab o'ting.
5. O'zbekiston Respublikasida YaIMning ishlab chiqarish strukturasi tahliliy sharh 11eflyat.
5. YaIMni taqsimot usulida aniqlashda MHTning 11efl talqinida keltirilgan hamda iqtisodiy adabiyotlarda qo'llab kelinayotgan uslublardagi farqlarni tushuntirib 11eflyat.
6. YaMD ko'rsatkichi qanday hisoblanadi va YaIM ko'rsatkichidan nimasi 11eflya farq qiladi?
7. SHD, SHTD, YaMTD ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik va farqlar nimada?
8. Baholar indekslarini va real YaIM ni hisoblash zaruratini asoslab 11eflyat?
9. YaIM 11eflyator iva iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichlarining farqlarini izohlang.

### 3-Mavzu: Bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi. Ishsizlik.

Reja

3.1. Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari.

3.2. Ishsizlik tushunchasi va ishsizlik darajasining o'lchanishi.

3.3. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari.A. Ouken qonuni.

3.4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari, namoyon bo'lish shakllari va ishsizlik darajasiga ta'siri.

#### 3.1. Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari

**Ishlab chiqarish, bandlilik va inflyatsiya darajasining davriy tebranishga iqtisodiy davr (tsikl)lar deyiladi.** Ayrim iqtisodiy davrlar boshqalaridan o'tish davrining davomiyligi va faolligi bilan farq qiladi. SHunga qaramasdan ularning barchasi bir xil bosqichlardan tashkil topadi.

Iqtisodiy davrlar to'rtta bosqichni o'z ichiga oladi: «**cho'qqi**», **pasayish (retsessiya)**, **pasayishning quyi** nuqtasidagi turg'unlik, **ko'tarilish** bosqichi.

Iqtisodiy davrlar bir xil bosqichlarga ega bo'lsada, ammo ular davomiyligi va faolligiga ko'ra o'zaro farq qilib turadi. SHuning uchun ham iqtisodchilar, bu jarayonlarni iqtisodiy davrlar deb emas, balki iqtisodiy tebranishlar deb atash to'g'ri bo'ladi deb hisoblashadi. Iqtisodiy tebranishlarning asosiy sababi sifatida iqtisodchilar uch omilni ko'rsatadi:

- 1)texnika va texnologiyalarda ro'y beradigan o'zgarishlar;
- 2)siyosiy va tasodifiy vaziyatlar;
- 3) monetar omillar.

Barcha iqtisodchilar, ishlab chiqarish va bandlilik darajalarini yalpi talab va boshqacha aytganda yalpi xarajatlar miqdoriga bog'liq, degan fikrni qo'llab-quvvatlaydilar.. Iqtisodiy tebranishlar sabablarini, ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, iqtisodiy tebranishlar amplitudasini qisqartirish barcha hukumatlar makroiqtisodiy siyosatining muhim maqsadlaridan biridir.

#### 3.2. Ishsizlik tushunchasi va ishsizlik darajasining o'lchanishi.

**Ishchi kuchi yoki iqtisodiy faol aholi deganda mehnatga layoqatli yoshdagi ishlayotgan va ishsiz yurgan aholining umumiy soni tushuniladi.**

Ishchi kuchiga bo'lgan talab miqdorining ishchi kuchi taklifi miqdoridan kam bo'lishi ishsizlikni keltirib chiqaradi.

**Ishsizlar** – bu, ishchi kuchining bir qismi bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan, lekin ishlashni xohlovchi va faol ish qidirayotgan aholidir.

**Ishsizlik darajasi** deb ishsizlarni ishchi kuchi soniga nisbatiga (% hisobida) aytiladi va uni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$\text{Ishsizlik darajasi} = (\text{ishsizlar soni} / \text{ishchi kuchi soni}) \times 100$$

Ishsizlikning quyidagi turlari mavjud:

- friktsion ishsizlik;**
- tarkibiy ishsizlik;**
- davriy ishsizlik.**

**To'la ish bilan bandlik** ishchi kuchining 100 foiz ish bilan ta'minlanganligini bildirmaydi. Aksincha, friktsion va strukturali ishsizlik ilojsiz hol bo'lganligini hisobga olsak, biz mutlaq to'la ish bilan bandlilikka erishib bo'lmasligini tushunamiz.

. To'la ish bilan bandlik davridagi ishsizlik, **ishsizlikning tabiiy darajasi** deyiladi. Bunga ish qidiruvchilar soni bo'sh ish joylari soniga muvofiq kelsagina erishish mumkin. Ishsizlikning tabiiy darajasi friktsion va tarkibiy ishsizlik yig'indisiga teng bo'ladi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi doimiy emas, chunki u iqtisodiy vaziyat, qonun va milliy an'analar bilan bog'liq holda o'zgarib turadi.

### 3.3. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlarini. A. Ouken qonuni.

Makroiqtisodiy beqarorlik tufayli, iqtisodiy pasayish davrida mamlakat o'z iqtisodiy potentsialini to'liq ishga solmasdan, yaratilgan haqiqiy YaIM hajmi ( $Y_h$ ) potentsial YaIM ( $Y_p$ ) hajmidan ortda qoladi.  $Y_a$ 'ni YaIMning uzilishi ( $Y_{UZ}$ ) ro'y beradi.

$$Y_{UZ} = \frac{Y_h - Y_p}{Y_p} \cdot 100$$

**Potentsial YaIM deganda mamlakatdagi ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalanilgan sharoitda mumkin bo'lgan ishlab chiqarish hajmi tushuniladi.**

Potentsial YaIM\*ni hisoblashda mamlakatda ishsizlik mutlaqo yo'q deb emas, balki mavjud, biroq u tabiiy darajada, deb hisoblanadi.

Ishsizlik darajasining oshishi natijasida iqtisodiyot potentsial YaIM hajmidan kam mahsulot yaratadi. Ouken qonuniga ko'ra agar ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan bir foizga oshib ketsa, ya'ni davriy ishsizlik 1 foizni tashkil etsa milliy iqtisodiyot YaIMni 2,5 foizga kam yaratadi.

Ouken qonuni ishsizlikning turli darajalaridagi mahsulot yo'qotishlari hajmini aniqlash imkonini beradi. Hozirgi kunda  $\beta$  koeffitsienti deb atalgan bu koeffitsient miqdori 2 foizdan 3 foiz oralig'ida deb hisoblanadi.

Ouken qonunini formulada quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$Y_{UZ} = -2,5[u - u^*]$$

Bu yerda:  $u^*$  – ishsizlikning tabiiy darajasi;

$u$  – ishsizlikning haqiqiy darajasi.

YaMM uzilishini ifodalaydigan formula bilan Ouken qonunini formulasini umumlashtirib quyidagi formulani olamiz:

$$\frac{Y_h - Y_p}{Y_p} \cdot 100 = -\beta [u - u^*]$$

### 3.4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari, namoyon bo'lish shakllari va ishsizlik darajasiga ta'siri.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Amerika Qo'shma SHtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi.

AQSH iqtisodiyoti yaratilgan shart-sharoitlar tufayli arzon kredit resurslariga to'yindi va bu Federal zahira tizimi (FZT) amalga oshirayotgan pul-kredit siyosatini o'zgartirishiga olib keldi. Natijada 2004-2006 yillarda Federal zahira tizimi foiz stavkalarini 6,25% gacha ko'tardi. Kreditlarning qimmatlashuvi aholini ipotekaga nisbatan talabining pasayishiga va kreditlarni qaytarish bo'yicha qarzdorlar to'lovining qisqarishiga olib keldi. Pirovard natijada 2007 yil boshida AQSHda aholining ipoteka kreditlarini qaytarishi bilan bog'liq muammo kuchaydi. Qarzdorlarning ko'chmas mulk garovi bilan olingan kreditlarni qaytarishdan ko'ra to'lovlarni to'lashdan bosh tortish holati kengaydi. Banklarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan mijozlarning ko'chmas mulklarini qayta sotuvga qo'yishi natijasida ipoteka bozoridagi taklif ko'payib, bozordagi narxlarning keskin pasayishiga olib keldi.

Pirovard natijada 2007 yil boshida AQSHda aholining ipoteka kreditlarini qaytarishi bilan bog'liq muammo kuchaydi. Qarzdorlarning ko'chmas mulk garovi bilan olingan kreditlarni qaytarishdan ko'ra to'lovlarni to'lashdan bosh tortish holati kengaydi. Banklarning to'lov qobiliyatiga ega bo'lmagan mijozlarning ko'chmas mulklarini qayta sotuvga qo'yishi natijasida ipoteka bozoridagi taklif ko'payib, bozordagi narxlarning keskin pasayishiga olib keldi.

Aksariyat moliyachi-iqtisodchilar vujudga kelgan moliyaviy inqirozning haqiqiy sabablaridan biri sifatida rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni haddan ziyod ortiqcha erkinlashtirish siyosatining «mevasi» ekanligini, ya'ni «o'z-o'zini boshqaruvchi bozor» g'oyasini ilgari surish orqali davlatning milliy iqtisodiyotga va xususan moliyaviy bozorlarga aralashuvini cheklanganligi bilan ham izohlamodalar.

Yuzaga kelgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz jahonning asosiy moliyaviy markazlari hisoblangan yirik fond bozorlarini o'z ichiga oluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, moliyaviy inqiroz inflyatsiya, qator banklar va moliyaviy muassasalarning tanazzulga yuz tutishi ta'sirida ishsizlik, ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi va boshqalar negizida iqtisodiy inqiroz shaklida kuchayib bormoqda. Bundan ko'rinadiki, hozirgi jahon moliyaviy inqirozining o'ziga xos xususiyati – bu uning iqtisodiyotning moliyaviy sektoridan boshlanib, real sektoriga o'tganligidir.

Global inqiroz bo'yicha ko'p sonli nashrlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, dunyoning rivojlangan davlatlari uchun inqirozning harakat nuqtasi moliyaviy bozorlarning beqarorligi bo'ldi va inqirozning rivojlanishi sxemasi quyidagi ko'rinishda bo'ldi:

**Moliyaviy bozorlarning beqarorligi → Kreditlarning qisqartirilishi va iste'molning pasayishi → Ishlab chiqarish va eksportning qisqarishi, ishsizlikning o'sishi.**

Hukumatlar darajasida inqirozdan chiqish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda bandlik masalalarini, talabni rag'batlantirish orqali ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirishga qaratilgan keskin choralarni ko'rish masalasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda.

#### **Nazarot va muhokama uchun savollar**

1. Iqtisodiy tebranishlarning sabablarini qanday izohlaysiz?
2. Ishsizlikning qanday turlari mavjud? Ishsizlik darajasi qanday aniqlanadi?
3. Ishsizlikning tabiiy darajasi, ish bilan to'liq bandlilik tushunchalariga tavsif bering.
4. Potentsial YaIM ko'rsatkichini izohlab bering.
5. Makrodarajada ishsizlikning iqtisodiy oqibatlarini qanday o'lchash mumkin ?
6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqishiga qaysi holatlar sabab bo'ldi?
7. Moliyaviy inqirozning ishsizlik darajasiga ta'siri qay tariqa ro'y beradi?

#### **4-Mavzu. Inflyatsiya va aksilinflyatsiya siyosati**

##### Reja

**4.1. Inflyatsiyaning mohiyati va hisoblanish usullari.**

**4.2. Inflyatsiyaning turlari. Talab va taklif inflyatsiyasi.**

**4.3. Inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liklik. Fillips egri chizig'i.**

**4.4. Aksilinflyatsiya siyosati va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida uni amalga oshirish xususiyatlari.**

##### **4.1. Inflyatsiyaning mohiyati va hisoblanish usullari.**

**Inflyatsiya ( lotincha inflatio - shishish, bo'rtish, taranglashish) –** ma'lum davr mobaynida mamlakatda baholar o'rtacha (umumiy) darajasining barqaror o'sishi, pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishi.

Umuman olganda inflyatsiya pul muomalasi qonunlarining buzilishi shakli sifatida makroiqtisodiy muvozanatning buzilishini, talab va taklif nomutanosibligini anglatadi.

Keynschiar maktabi namoyondalari bunday nomutanosiblikning sababi to'liq bandlik sharoitida talabning haddan ziyod bo'lishida deb bilishadi. Boshqacha aytganda yalpi talabni ko'paytirish inflyatsiyaga olib kelmaydi deb hisoblashishadi.

Neoklassik yondoshuv tarafdorlari inflyatsiyaning manbai ishlab chiqarishning haddan ziyod o'sishida, ishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishida deb bilishadi. Demak keynschilar inflyatsiyaga talab tomonidan, neoklassiklar esa taklif tomonidan yondoshishadi.

Inflyatsiya nafaqat pul muomalasining izdan chiqishi, balki butun takror ishlab chiqarish mexanizmining kasali, makroiqtisodiy buzilishlar natijasidir. Baholarning o'sishi, pul birligi

xarid qobiliyatining pasayishidan tashqari inflyatsiya namoyon bo'lishining quyidagi uch belgisi ham bor. Bular:

- 1) valyuta kururlarining o'zgarishi;
- 2) kredit berish shartlarining qimmatlashuv va muddatlarining qisqarishi tomon o'zgarishi;
- 3) kundalik ehtiyoj mollardan iborat iste'mol savati bahosining o'sishi.

Inflyatsiya baho indeksleri - deflyator va iste'mol narxlar indeksi yordamida aniqlanadi. Baholar o'rtacha (umumiy) darajasining nisbiy o'zgarishi **inflyatsiya darajasi (baholarning o'sish sur'ati)** deb ataladi. Makroiqtisodiy modellarda inflyatsiya darajasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

**P-P<sub>1</sub>**

$\pi = \frac{P - P_1}{P_1}$

**P<sub>1</sub>** bunda:  $\pi$ – yillik inflyatsiya sur'ati;

**P** - joriy yilning narxlar indeksi; **P<sub>1</sub>** - o'tgan yilning narxlar indeksi.

#### 4.2. Inflyatsiyaning turlari. Talab va taklif inflyatsiyasi.

**Talab inflyatsiyasi** iqtisodiyotda talab keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish mumkin bo'lmay qolgan sharoitlarda kelib chiqadi. Ya'ni, to'liq bandlilikka yaqin sharoitda iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlari o'sib borayotgan yalpi talabni qondirolmaydi. Ortiqcha talab esa real tovarlar bahosining ko'payishiga iqtisodiy bosim beradi va talab inflyatsiyasi kelib chiqadi.

**Taklif inflyatsiyasi** bu, mamlakat iqtisodiyotida tovar va xizmatlar taklifining kamayishi natijasida tovar va xizmatlar baholarining oshishidan paydo bo'ladi. Bunday hollarda ortiqcha talab bo'lmasa ham tovarlarning baholari oshib boradi. Hatto ish bilan bandlik va YaIM ishlab chiqarish kamaygan yillari tovarlarning bahosi oshadi. Jami taklif qisqarishining asosiy sababi mahsulot birligiga sarflangan xarajatlarning o'sishi hisoblanadi. Bunda nominal ish haqi, xom ashyo va yoqilg'i narxlarining oshishi natijasida ishlab chiqarish tannarxi ham oshadi.

Taklif inflyatsiyasining kelib chiqishiga, shuningdek, taklif mexanizmining buzilishi ham ta'sir qiladi. Taklif mexanizmi esa tasodifiy holda asosiy ishlab chiqarish omillari bahosining keskin ko'payishidan kelib chiqadi.

Inflyatsiyani real daromadlar darajasiga ta'siri u kutilayotgan yoki kutilmayotganiga ham bog'liq. **Kutilayotgan inflyatsiya** sharoitida daromad oluvchi inflyatsiyaning u olayotgan daromadga ta'sirini kamaytirish, ya'ni real daromadi darajavsini saqlab qolish chorasini ko'radi.

Bu uchun Fisher tenglamasidan foydalanish mumkin:

$i = r + \pi_{kut}$ , bu yerda  $i$ -nominal foiz stavkasi;  $r$ - real foiz stavkasi;  $\pi_{kut}$ - kutilayotgan inflyatsiya darajasi.

Inflyatsiya sur'ati 10 foizdan oshganda Fisher tenglamasi quyidagi ko'rinishni oladi:

$$r = \frac{i - \pi_{kut}}{1 + \pi_{kut}}$$


**Kutilmagan inflyatsiya** daromadlarni debitorlar va kreditorlar o'rtasida kreditorlar foydasiga qayta taqsimlaydi. SHuningdek kutilmagan inflyatsiya daromadlarni qayd qilingan daromad oluvchilar va qayd qilinmagan daromad oluvchilar o'rtasida keyingilari foydasiga qayta taqsimlaydi. Talab va taklif inflyatsiyasini qat'iy chegaralash qiyin. Ba'zida bu ikki turdagi inflyatsiya bir-biri bilan qo'shib ketadi.

#### 4.3. Inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liklik. Fillips egri chizig'i.

Iqtisodiyot o'z rivojlanishida potentsial darajaga yaqinlashgan shariotda yoki bandlilik darajasini oshirish yoxud inflyatsiya darajasini pasaytirish kabi muqobil variantlardan birini tanlashga majbur bo'linadi. CHunki qisqa muddatli davrda ishsizlik va inflyatsiya darajalari

o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud. Ishsizlik va inflyatsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ingliz iqtisodchisi A.V.Fillips tomonidan aniqlangan va **Fillips egri chizig'i** (4.1 - chizma) deb ataladi.

Fillips egri chizig'i ishsizlik va inflyatsiya darajalari o'rtasidagi teskari bog'likni xarakterlaydi.



**4.1.-chizma. Fillips egri chizig'i**

Mamlakat iqtisodiyotining xususiyatiga ko'ra, shuningdek, inflyatsiyaning qaysi turi mavjudligiga qarab Fillips egri chizig'idagi inflyatsiya va ishsizlik darajalarining kombinatsiyasi farq qilishi mumkin. Bunday tanlov kutilayotgan inflyatsiyaning sur'atiga bog'liq. Kutilayotgan inflyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa ishsizlikning har qanday darajasida (sur'ati past bo'lgan inflyatsiya darajasiga nisbatan) haqiqiy inflyatsiya darajasi yuqori bo'ladi. Ishsizlik darajasi va inflyatsiya sur'atining maqbul miqdorlari quyidagi formula ko'rinishida tasvirlanishi mumkin:

$$\pi = \pi_{kut} + f \left( \frac{Y_h - Y_p}{Y_p} \right) + \varepsilon$$

Bu yerda  $\pi$  - inflyatsiyaning haqiqiy darajasi;  $\pi_{kut}$  - inflyatsiyaning kutilayotgan darajasi;

$$f \left( \frac{Y_h - Y_p}{Y_p} \right) + \varepsilon - \text{talab inflyatsiyasi;}$$

$f$  - Fillips egri chizig'ining og'ish burchagini belgilovchi empirik koeffitsent;

$\varepsilon$  - tashqi baho shoki ( taklif inflyatsiyasi).

Ouken qonuniga ko'ra YaIMning uzilishi, ya'ni  $(Y_h - Y_p) / Y_p$  miqdor davriy ishsizlikning o'zgarishiga bog'liqligi sababli qisqa muddatli Fillips egri chizig'ini tenglamasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\pi = \pi_{kut} - \beta [u - u^*] + \varepsilon$$



Keltirilgan tenglamadan ko'rinib turibdiki, haqiqiy inflyatsiya darajasi miqdori kutilayotgan inflyatsiya darajasiga hamda tashqi baho shoklari darajasi bilan to'g'ri bog'liqlikka, davriy ishsizlik darajasi bilan esa teskari bog'likka ega ekan.

Hukumat Fillips egri chizig'iga asoslanib, qisqa davr uchun, iqtisodiy siyosat maqsadlaridan kelib chiqib ishsizlik va inflyatsiya darajalarining istalgan kombinatsiyasini tanlashi mumkin.

#### **4.4. Aksilinflyatsiya siyosati va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida uni amalga oshirish xususiyatlari.**

Aksilinflyatsiya siyosati-baholar umumiy darajasini barqarorlashtirish, inflyatsion keskinlikni yumshatishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosat.

Aksilinflyatsiya siyosati inflyatsiyani yuzaga keltirgan sabablarni tugatishga qaratilgan faol va inflyatsiya sharoitlariga moslashishga qaratilgan passiv ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Aksilinflyatsiya siyosati o'z ichiga quyidagilarni oladi:

-yalpi talabni tartibga solish;

-yalpi taklifni tartibga solish.

Keynschi iqtisodchilar birinchi yo'nalish tarafdorlari bo'lib, ular davlat buyurtmasi va arzon kredit hisobiga samarali talabni shakllantirish asosida yalpi taklif darajasini ko'tarish mumkin deb hisoblashadi. Hukumatnin bu tadbirlar iqtisodiy pasayishni qisqartiradi va ishsizlikni kamaytiradi.

“Aksilinflyatsiya siyosatining monetaristik yo'nalishi tarafdorlari keyinchalik, keynschilarning inflyatsiyaga qarshi kurash bo'yicha takliflari doimo samara beravermagach va kamchiliklari yuzaga chiqib qolgach yuzaga keldi. Jumladan, bir qator mamlakatlarda davlat qarzi haddan oshib ketdi. Bunday sharoitda monetaristlar radikal aksilinflyatsiya usullarini taklif etishdi. Ular yalpi talabni konfiskatsiya tipidagi pul islohoti o'tkazish hisobiga cheklash va byudjet taqchilligini ijtimoiy dasturlarni qisqartirish kamaytirishni taklif etishdi”<sup>\*</sup>.

Monetaristlar inflyatsiya aynan pul bilan bog'liq hodisa bo'lganligi sababli shok terapiyasi pul massasining o'sish sur'atlarini keskin qisqartiradi va inflyatsiya sur'atlarini tushiradi deb hisoblashadi. Ammo bunda ishlab chiqarish keskin pasayishi va bandlilik qisqarishi mumkin.

Monetaristlar tomonidan taklif qilinayotgan aksilinflyatsiya siyosatining yana bir ko'rinishi - inflyatsiya sur'atlarini asta sekinlik bilan pasaytirib borish ( graduallash ) usulidir. Bu usulda inflyatsiya sur'atlari pul massasini ko'p marotalaba, lekin oz ozdan kamaytirish orqali pul massasining o'sish sur'atini pasaytirishni ko'zda tutadi. Graduallash usuli inflyatsiyani asta sekinlik bilan pasaytirib borib iqtisodiyotda chuqur pasayishni oldini olish imkonini beradi.

Graduallash usulini qo'llash pul massasi va baholar darajasining yillik o'sish sur'ati 20-30 foizdan oshmaganda muvaffaqiyatli bo'ladi, deb hisoblanadi.

“Soliqlar tarkibini o'zgartirish, yalpi soliq tushumlaridagi to'g'ridan-to'g'ri soliqlarning ulushini kamaytirish, bilvosita soliqlar ulushini ko'paytirish, soliq stavkalarini pasaytirish, ularning rag'batlantirish funktsiyalarini kuchaytirish, davlat byudjeti xarajatlarini pasaytirish kabilar ham inflyatsiyaga qarshi kurash tadbirlari hisoblanadi”<sup>\*</sup>.

Aksilinflyatsiya siyosatining u yoki bu turini tanlash inflyatsiya jarayonlarining xususiyatiga bog'liq.

Inflyatsiyaning yuqori sur'atlarini oldini olish uchun hukumat quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- samarali soliq tizimini va davlat xarajatlari ning baaqarorligini;
- pul massasi va milliy daromadning bir maromdagi o'sish sur'atlarini;
- “inflyatsiyani import qilish” ga yo'l qo'ymaslik.

Jahon moliyaviy -iqtisodiy inqirozi sharoitida inflyatsiyaga qarshi chora tadbirlarni keskin amalga oshirish zarurati yanada kuchaydi

---

\* Агапова Т.А.Серегина С.Ф. Макроэкономика:Учебник.-7-е изд.перераб. и доп.-М.:Издательство “Дело и сервис”, 2005. с. 214.

\* Киселёва Е.А. Макроэкономика. /Экспресс курс:учебное пособие- М.:КНОРУС,2007, с.62.

O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturida ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish, jumladan ishlab chiqarishni modernizatsiya va texnik qayta qurollantirishni izchil davom ettirish, energetika tizimini modernizatsiya qilish, asosiy sanoat tarmoqlarida mahsulot tannarxini 20 foizga qisqartirish, kommunal xizmatlar baholari o'sishini cheklash mexanizmini shakllantirish, bank tizimini yanada takomillashtirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va h.k.lar inflyatsiya sur'atlarini cheklash imkonini beradi

### Nazarot va muhokama uchun savollar

1. Inflyatsiyaning mohiyati faqatgina muomaladagi pul massasining ortiqchaligi bilan izohlanishi to'g'rimi?
2. Inflyatsiyani tushuntirib berishga keyinchilarning va neoklassiklarning yondoshuvlari qanday farq qiladi?
3. . Talab inflyatsiyasi qanday sodir bo'ladi?
4. .Phillips egri chizig'i qaysi ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi? Bu bog'liqlik qanday tavsiflanadi?
5. Aksilinflyatsiya siyosatining mohiyatini tushuntirib bering.
6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida inflyatsiga qarshi kurash siyosatining xususiyatlari nimada?

### 5-Mavzu. Yalpi talab-yalpi taklif modeli

Reja

- 5.1. Yalpi talab-yalpi taklif modeliga umumiy tavsif. Yalpii talab tushunchasi va grafigi.
- 5.2. Yalpi talabning baho va bahodan boshqa omillari.
- 5.3. Yalpi taklif grafigi va omillari.
- 5.4. AD-AS modelida makroiqtisodiy muvozanat. Makroiqtisodiy muvozanat buzilishining jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yuzaga kelishiga ta'siri.

#### 5.1. Yalpi talab-yalpi taklif modeliga umumiy tavsif. Yalpii talab tushunchasi va grafigi.

Makroko'lamda milliy ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan birga baholar umumiy darajasining o'zgarishi o'rtasida bog'liqlikni tadqiq qilish, nima uchun milliy ishlab chiqarish hajmi ayrim davrlarda barqaror o'sishi, ba'zi davrlarda esa pasayib ketishni izohlab berish uchun yalpi talab - yalpi taklif (AD-AS aggregate demand- aggregate supply) modelidan foydalanamiz.


Makroiqtisodiyotda AD-AS modeli ishlab chiqarish hajmlari va baholar darajalarining tebranishlarini hamda ular o'zgarishining oqibatlarini o'rganish uchun bazaviy model bo'lib hisoblanadi.

Yalpi talab – uy xo'jaliklari, korxonalar, hukumat va chet ellik xaridorlarning baholarning ma'lum darajasida iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmiga bo'lgan talabidir.

Formula ko'rinishida yalpi talabni quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$AD = S + I + G + X_n.$$

Baholar darajasi va talab qilingan yalpi ichki mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ifoda etuvchi chiziq yalpi talab egri chizig'i deb ataladi. (5.1.-chizma).



### 5.1.-chizma. Yalpi talab egri chizig'i

Milliy bozorda AD-egri chizig'ining traektoriyasini, ya'ni uning quyiga egilganligini, avvalo pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi yordamida izohlash mumkin:

$$M V = Y P$$

Bu yerda: M – muomaladagi pul miqdori; V – pulning aylanish tezligi;

R – iqtisodiyotdagi baholar darajasi (baholar indeksi); Y – talab qilinayotgan real ishlab chiqarish hajmi.

Bu tenglamadan:

$$P = M V / Y \text{ va } Y = M V / P$$

tenglamalarni keltirib chiqaramiz. Bu tenglamalardan ko'rinadiki, baholar darajasi qancha oshsa, real YalM hajmiga talab shuncha past bo'ladi, ya'ni pul massasi (M) va uning aylanish tezligi (V) o'zgarish bo'lsa baholar darajasi va yalpi talab o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'ladi.

### 5.2. Yalpi talabning baho va bahodan boshqa omillari

Baholar darajasi va yalpi talab o'rtasidagi teskari bog'liqlik quyidagi baho omillari bilan izohlanadi:

1. Foiz stavkasi samarasi;
2. Boylik samarasi yoki real kassa qoldiqlari samarasi;
3. Import xaridlar samarasi.

**Foiz stavkasi samarasi** shuni bildiradiki, yalpi talabning egri chiziq bo'yicha surilishi narxlar darajasi o'zgarishining foiz stavkasiga bo'lgan ta'siriga bog'liq.. Buni quyidagi mantiqiy chizma ko'rinishida tasvirlash mumkin:

$$P \uparrow \rightarrow M_D \uparrow (M_S \text{ const}) \rightarrow R \uparrow \rightarrow I \downarrow \rightarrow AD \downarrow$$

**Boylik samarasi yoki real kassa qoldiqlari samarasi** shuni bildiradiki, narxlar darjasining oshishi, jamg'arilgan moliyaviy aktivlari (omonatlar, obligatsiyalar) real xarid qobiliyatini pasaytirib yuboradi. Bunday sharoitda aholi moliyaviy aktivlarning real qiymatini tiklash uchun joriy daromadidan iste'mol xarajatlar miqdorini qisqartiradi. Iste'mol xarajati yalpi talabning bir qismi bo'lganligi tufayli uning kamayishi ADning pasayishiga olib keladi.

**Moliyaviy**

$$P \uparrow \rightarrow \text{aktivlarning} \downarrow \rightarrow \{ S \downarrow ( S \uparrow ) \} \rightarrow AD \downarrow$$

**real qiymati**

**Import xaridlar samarasi** shuni bildiradiki, biror mamlakatda tovar va xizmatlarning ichki narxlari tashqi narxlarga nisbatan oshib borsa, shu mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarga talab kamayadi va o'z navbatida shu mamlakatda import mahsulotlarga bo'lgan talab oshadi.

$$P \uparrow \rightarrow \{ X \downarrow ( M \uparrow ) \} \rightarrow X_n \downarrow \rightarrow AD \downarrow$$

Yalpi talabning bahoga bog'liq bo'lmagan omillariga quyidagilarni kiritamiz:

1. Iste'mol xarajatlaridagi o'zgarishlar;
2. Investitsiya xarajatlaridagi o'zgarishlar;
3. Davlat xarajatlarining o'zgarishi. Masalan, harbiy xarajatlar va yangi kasalxonalar va boshqa muassasalar qurishga qaror qilinganda.

#### 4. Sof eksport hajmidagi o'zgarishlar.

Yalpi talabning bahoga bog'liq bo'lmagan omillari ta'sirida AD egri chizig'i o'ngga yoki chapga siljiydi (5.1.-chizma). Natijada ma'lum baho darajasiga mos keluvchi talab qilinayotgan yalpi ichki mahsulot hajmi o'zgaradi.

Pul taklifining, pulning aylanish tezligining oshishi, boshqa davlatlar milliy daromadining oshishi, milliy valyuta kursining ma'lum miqdorda pasayishi (bular eksportning ortishi, importning pasayishiga olib kelishi tufayli) oqibatida sof eksportning pasayishi va yalpi xarajatlar turli komponentlarining oshishi AD egri chizig'ining o'ngga siljishiga olib keladi


### 5.3. Yalpi taklif grafigi va omillari.

Yalpi taklif deganda muayyan baholar darajasida ishlab chiqarilishi va taklif qilinishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlarning real hajmi tushuniladi. Yalpi taklif tushunchasi ko'pincha yalpi ichki mahsulot sinonimi sifatida qo'llaniladi.

Yalpi taklif (AS) egri chizig'i alohida tovar taklifi egri chizig'idan farq qilib uch qismdan, gorizontal yoki keyns kesmasi, ko'tarilib boruvchi yoki oraliq kesma hamda vertikal yoki klassik kesmadan iborat (5.2.-chizma).

Yalpi taklifning keyns kesmasi iqtisodiyot pasayish bosqichida bo'lgan va katta miqdordagi resurslardan foydalanilmagan sharoitni ko'rsatadi. Bu kesmada milliy ishlab chiqarish hajmi oshishi baholar darajasi o'zgarmay qolgan sharoitda ro'y beradi.

Yalpi taklif egri chizig'ining **Keyns kesmasida** iqtisodiyotni nisbatan qisqa muddatda amal qilishini xarakterlaydi.



5.2.-chizma. Yalpi taklif egri chizig'i.

**Vertikal yoki klassik kesmada** iqtisodiyot to'liq bandlik sharoitiga yoki ishsizlikning tabiiy darajasi sharoitiga erishgan vaziyatni ko'ramiz. Iqtisodiyot egri chiziqning bu kesmasida o'zining ishlab chiqarish potentsiali darajasida bo'ladi.


**Oraliq kesma** – Iqtisodiyot ko'tarilish bosqichida bo'lgan vaziyatni aks ettiradi va bu kesmada ishlab chiqarish real hajmining o'sishi narxlar darajasining o'sishiga mos ravishda o'sib boradi.

### 5.4.AD-AS modelida makroiqtisodiy muvozanat. Makroiqtisodiy muvozanat buzilishining jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yuzaga kelishiga ta'siri.

AD va AS egri chiziqlarining kesishish nuqtasi ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi va baholarning muvozanatli darajasini belgilaydi. Baholarning muvozanatli darajasi deganda baholarning shunday darajasi tushuniladiki, unda jami talab va taklif bir-biriga mos kelishi yoki teng bo'lishi kerak. Modlelda makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmini dastlab oraliq kesmada ko'rib chiqamiz (5.3.-chizma). Dastlab muvozanat  $Pe$  nuqtasida o'rnatilgan. Baholarning muvozanatli darajasi va yalpi ishlab chiqarish hajmining muvozanatli hajmlari mos ravishda  $Pe$  va  $Ye$  lar bilan belgilangan. Nima uchun  $Pe$  narxlarning muvozanatli darajasini va  $Ye$  esa yalpi ishlab chiqarishning muvozanatli hajmini bildirishini ko'rsatishimiz uchun baholarning muvozanatli darajasi  $Pe$  emas, balki  $P_1$  deb hisoblaymiz.

Baholar darajasi  $P_1$  bo'lgan vaziyatda ishlab chiqaruvchilar yalpi ishlab chiqarish hajmini  $Y_1$  miqdoridan oshirmaydi.

Iste'molchilar baholar darajasi  $P_1$  bo'lganda mahsulotlarni  $Y_2$  darajada sotib olishga tayyor turadi.  $AD > AS$  bo'lganligi tufayli iste'molchilar



### 5.3.-chizma. Yalpi taklif egri chizig'ining oraliq kesmasidagi muvozanat

o'rtasidagi raqobat baholar darajasini  $Pe$  gacha suradi. Baholar darajasining  $P_1$  dan  $Pe$  gacha ko'tarilishi ishlab chiqarish hajmini  $Y_1$  dan  $Ye$  gacha oshirishga va iste'molchilar talabini  $Y_2$  dan  $Ye$  gacha kamayishga olib keladi. Natijada AD va AS egri chiziqlari  $Pe$  nuqtada kesishadi. Demak, aynan  $Pe$  baho baholarning muvozanatli darajasi va  $Ye$  muvozanat nuqtasidir.

Yalpi taklif va yalpi talab o'rtasidagi muvozanatning buzilishi makroiqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Jumladan "jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelishida asosiy sabab – moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi hisoblanishini ta'kidlash lozim. Pul muomalasi qonunlaridan ma'lumki, iqtisodiyot sog'lom va barqaror amal qilishi uchun muomalaga chiqarilayotgan pul massasi bilan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmi o'rtasida muayyan nisbatga amal qilinishi lozim. Biroq, milliy iqtisodiyotlarning baynalminallashuvi va globallashtirish jarayonlari pul muomalasining amal qilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, dastlab ayrim mamlakatlar, masalan AQSHda, keyinchalik ko'plab mamlakatlarda mazkur qonunga rioya qilishning zaiflashuviga, keyin esa uni umuman e'tiborga olmaslikka qadar olib keldi".

Natijada muomaladagi pul massasi (yalpi talab) tovarlar va xizmatlar hajmi o'rtasida muvozanat buzildi, va moliyaviy inqiroz iqtisodiy inqirozga aylandi.

## Nazarot va muhokama uchun savollar

1. Yalpi talabga va uning komponentlarini ta'rif bering.
2. Yalpi talab egri chizig'i quyiga egilgan traektoriyaga ega bo'lishi sababi nimada?
3. Yalpi talabning boshqa omillariga va ularning AD egri chizig'iga ta'siriga izoh bering.
4. Yalpi taklif egri chizig'i shakli qaysi sabablarga ko'ra murakkab ko'rinishga ega?
5. AD-AS modelidagi makroiqtisodiy muvozanat holatini va uning shartlarini tushuntiring.
6. Yalpi talab o'zgarishi modeldagi muvozanat holatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
7. Yalpi taklif o'zgarishi modeldagi muvozanat holatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

## 6-Mavzu: Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari

### Reja

- 6.1. Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari va funksiyalari.
- 6.2. Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha hamda chegaralangan moyillik.
- 6.3. Investitsiyalarning mohiyati, grafigi va funksiyasi.
- 6.4. Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi foiz ctavkasidan boshqa omillar. Akselerator modeli.


### 6.1. Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari va funksiyalari.

Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari (bundan buyon iste'mol deb yuritiladi), yalpi talab, yoki YaIMning yakuniy iste'molga ko'ra tarkibida eng katta ulushga ega bo'lgan komponentdir. SHu tufayli ham iste'mol xarajatlariga ta'sir etuvchi omillarni, uning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Uy xo'jaliklari tasarrufidagi daromadning iste'mol qilinmasdan qolgan qismi ularning jamg'armalarini tashkil etadi.

J.M. Keynes uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari va jamg'arishlari hajmini belgilovchi asosiy omil ularning ishlab chiqarishda ishtirok etishdan olingan daromadlari, yanada aniqrog'i tasarrufidagi daromad deb hisoblaydi

Ma'lumki, uy xo'jaligi tasarrufidagi daromad iste'mol va jamg'arish uchun ishlatiladi. Ya'ni, qancha ko'p iste'mol qilinsa, shuncha kam jamg'ariladi va aksincha. Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik har xil daromadga ega bo'lgan shaxslarda bir xil emas: kam daromadga ega bo'lganlar, odatda, uning ko'proq qismini iste'mol qilib, kamroq qismini jamg'aradi, lekin daromadlari oshib borishi bilan bu nisbat jamg'arish foydasiga o'sadi.



## 6.1.-chizma. Iste'mol grafigi

Uy xo'jaliklari tasarrufidagi daromadlar 390 sh.b.ka teng bo'lganda, uning miqdori iste'mol miqdori bilan tenglashadi. Bu miqdor bo'sag'aviy daromad deb yuritiladi ( 61. chizma).

Bo'sag'aviy nuqtadan quyida haqiqiy iste'mol daromaddan oshiq. Bu vaziyat insonlarning qarz hisobiga hayot kechirishini bildiradi. ye– nuqtada yuqorida haqiqiy iste'mol daromaddan kam hamda ular o'rtasidagi farq jamg'arishni tashkil etadi. Haqiqiy iste'mol to'g'ri chizig'i iste'mol hajmini belgilovchi vertikal o'qni  $a$  nuqtada kesib o'tadi. Bu hol uy xo'jaliklari umuman daromad olmaganlarida ham ma'lum miqdorda iste'mol qilishlarini anglatadi.  $a$  – nuqta esa avtonom iste'mol hajmini bildiradi.

Iste'mol funksiyasini yozamiz:

$C = a + b Y_d$ , bu yerda:  $a$  – avtonom xarajalar;  $Y_d$  – tasarrufidagi daromad ( $Y_d = Y - T$ ), bu yerda:  $T$  – soliqlar;

$b$  – iste'mol hajmining tasarrufidagi daromadga bog'liqligini ifodalovchi koeffitsient, boshqacha aytganda iste'molga chegaralangan moyillik.

$\Delta S$

$$b = \frac{\Delta S}{\Delta Y_d} \cdot 100$$

$\Delta Y_d$

Demak, iste'mol hajmi avtonom iste'molga, tasarrufidagi daromad hajmiga va iste'mol hajmining tasarrufidagi daromad o'zgarishiga ta'sirchanligiga bog'liq.

Jamg'arish grafigini ham iste'mol grafigiga o'xshab algebraik ifodalash mumkin, ya'ni jamg'arish funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$S = -a + (1 - b) Y_d$$

Iste'mol va jamg'arish hajmiga tasarrufidagi daromad dinamikasidan tashqari quyidagi omillar, to'g'rirog'i bu omillardagi o'zgarishlar ham ta'sir ko'rsatadi:

1. Uy xo'jaliklari daromadlari.
2. Uy xo'jaliklarida to'plangan mulk hajmi.
3. Baholar darajasi.
4. Iqtisodiy kutish.
5. Iste'molchilar qarzlari hajmi.
6. Soliqqa tortish hajmi.

## 6.2.Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha hamda chegaralangan moyillik.

Iste'molga o'rtacha moyillik deganda tasarrufidagi daromaddagi iste'mol xarajatlarining ulushi tushuniladi, ya'ni:

$$APC = \frac{S}{Y_d} \cdot 100$$

bunda: APC – (average propensity to consume) iste'molga o'rtacha moyillik.

Tasarrufidagi daromaddagi jamg'arish ulushini jamg'arishga o'rtacha moyillik deb ataladi, ya'ni:

$$APS = \frac{S}{Y_d} \cdot 100$$

Bunda: APS (average propensity to saving) – jamg'armaga o'rtacha moyillik.

Iste'moldagi o'zgarishlarning shu o'zgarishni keltirib chiqargan tasarrufidagi daromad o'zgarishdagi ulushi iste'molga chegaralangan moyillik deyiladi.

$$MPC = \frac{\Delta S}{\Delta Y_d} \cdot 100$$

Bu yerda: MPC (marginal propensity to consume) – iste'molga chegaralangan moyillik.

Jamg'arishdagi o'zgarishning ixtiyordagi daromad o'zgarishdagi ulushi jamg'arishga chegaralangan moyillik deyiladi.

$\Delta S$

$$MRS = \frac{\Delta S}{\Delta Yd} = 100$$

. Daromadning o'sgan qismi yoki iste'molga, yoki jamg'armaga sarflanadi. SHu sababga ko'ra iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik ko'rsatkichlari yig'indisi 100%ga yoki koeffitsient ko'rinishida 1ga teng bo'ladi.

$$MRS + MRS = 100\% \text{ yoki } 1.$$

MRS va MRS ancha barqaror ko'rsatkichlar bo'lib, juda sekin o'zgarishga uchraydilar.

### 6.3. Investitsiyalarning mohiyati, grafigi va funktsiyasi.

Investitsiyalar yoki kapital qo'yilmalar – bu, hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapitaldir.

Makroiqtisodiy tahlilda eng ko'p duch kelinadigan guruhlashda investitsiyalar investitsiyalash ob'ektiga ko'ra uch turga bo'linadi.

1. Ishlab chiqarish investitsiyalari;
2. Tovar-moddiy zahiralarga investitsiya;
3. Uy-joy qurilishiga investitsiya.

Makroiqtisodiy tahlilda investitsiyalar dinamikasini belgilovchi omil sifatida real foiz stavkasi qaraladi.

Avtonom investitsiyalarning grafigi investitsiyalar hajmi foiz stavkasi dinamikasiga teskari proporsional tarzda o'zgarishini ko'rsatadi.

Avtonom investitsiya funktsiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$I = ye - dR$$

Bu yerda: I – avtonom investitsiya xarajatlari;

e – foiz stavkasi 0 ga teng to'lgandagi investitsiya xarajatlarining maksimal hajmi. U tashqi iqtisodiy omillar, resurs imkoniyatlari, yer, foydali qazilma boyliklari va boshqalar bilan belgilanadi;

R – real foiz stavkasi;

d – investitsiyalarning real foiz stavkasi dinamikasi o'zgarishga ta'sirchanligini miqdoriy belgilovchi empirik koeffitsient.

Grafikdan ye nuqtasi shuni bildiradiki, banklar nolga teng foiz stavkasi

bilan kredit berganlarida hamda ularning kredit resurslari cheksiz

ko'p bo'lganda ham mamlakatdagi boshqa resurslari miqdorining cheklanganligi tufayli investitsiya xarajatlari ma'lum miqdor bilan chegaralanadi.

### 6.4. Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi foiz stavkasidan boshqa omillar. Akselerator modeli.

Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi eng muhim omillardan biri bo'lib kutilayotgan sof foyda normasi hisoblanadi. Agar real foiz stavkasi bilan investitsiya xarajatlari miqdori o'rtasida teskari bog'liqlik bo'lsa, kutilayotgan sof foyda normasi (KSFN) dinamikasi bilan investitsiya xarajatlari o'rtasida to'g'ri bog'liqlik bor.

Investitsiya xarajatlari dinamikasiga ta'sir etuvchi boshqa omillar quyidagilar kiradi:

1. Soliqqa tortish darajasi;
2. Ishlab chiqarish texnologiyalaridagi o'zgarishlar;
3. Mavjud bo'lgan asosiy kapital miqdori;
4. Investorlarning kutishi;
5. Yalpi daromadlarning o'zgarishi.



Investitsiyalar hajmining YaMM yoki daromadlar darajasiga bog'liqligini akselerator modeli aks ettiradi:

$I = f(Y)$ , ya'ni investitsiyalar (I) YaMM (Y)ning funksiyasi ekan.

Akselerator modelining to'liqroq ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

Akselerator modelini hisobga olib, investitsiya funksiyasini quyidagicha yozish mumkin:

$$I = ye - dR + \gamma Y$$

YaIM hajmi oshishi korxonalar foydasining ko'payishiga olib keladi. Korxonalar foydasi investitsiyalarning manbai ekanligini hisobga olsak, bu holatda investitsiya xarajatlari oshadi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilgan oqilona makroiqtisodiy siyosat natijasida yuzaga kelgan qulay investitsiya muhiti yaxshilandi. jumladan siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning ta'minlanganligi, soliq yukining pasaytirilishi borishi, bozor infratuzilmasining rivojlantirilishi, bank tizimining mustahkamlanishi va bank foiz stavkalarining pasaytirilishi, investorlarga keng imtiyoz va kafolatlar tizimining yaratilganligiga mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmining o'sishiga olib keldi

2008 yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ro'y berganligiga qaramasdan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2007 yilga nisbatan 128,3 foizga o'sdi. 2009 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 24,8 foizga o'sdi.

### Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Daromad, iste'mol va jamg'armalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka izoh bering?
2. Avtonom iste'mol kategoriyasining mohiyatini tushuntirib bering.
3. Iste'mol va jamg'arish grafiklarini izohlang.
4. Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha va chegaraviy moyillik ko'rsatkichlarini izohlab bering?
5. Qaysi mablag'larni investitsiya tarkibiga kiritamiz?
6. Akselerator modelini tushuntirib bering.
7. Kutilayotgan sof foyda normasi o'zgarishi qaysi sabablarga ko'ra ro'y beradi va u investitsiya hajmiga qanday ta'sir ko'rsatadi.

### 7-Mavzu: Keynsning tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat modeli

Reja

#### 7.1. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi asoslari.

#### 7.2. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar.

#### 7.3. «Keyns xochi». Ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga erishish mexanizmi.

#### 7.4. Avtonom xarajatlar mul'tiplikatori.

#### 7.5. Retsession va inflyatsion uzilish

#### 7.1. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi asoslari.

Klassik maktab namoyondalari bozorlar va baholarning umumiy muvozanati nazariyasini yaratdilar. Klassik iqtisodchilar fikriga ko'ra  $AD \neq AS$  holati ro'y bermaydi, umumiy xarajatlar miqdori yetishmay qolgan, ya'ni  $AD < AS$  holati ro'y bergan sharoitda ham baho, ish haqi va foiz stavkasi kabi dastaklar ishga tushadi va natijada xarajatlar miqdorining kamayishi ishlab chiqarishning real hajmi, bandlik va real daromadlar miqdorining kamayishiga olib kelmaydi.

**Klassik dixotomiya** kontseptsiyasida – ikki parallel bozor, real va pul bozori alohida-alohida amal qiladi, ular o'rtasidagi muvozanat avtomatik barqarorlashtirgichlar orqali ta'minlab turadi deb hisoblanadi.

Pul bozori investitsiya va jamg'armalar tengligini hamda to'liq bandlik sharoitini ta'minlaydi. Iqtisodiyotda yaratilgan daromadlaning bir qismi jamg'arilishi yalpi talabning yalpi taklifni qoplashi uchun yetishmasligiga olib kelmaydi, chunki har bir jamg'arilgan so'm tadbirkorlar tomonidan investitsiyalanadi, deb ta'kidlashadi.

Agarda, tadbirkorlar uy xo'jaliklarining jamg'armalari miqdorida investitsiya qilishsa, ishlab chiqarish hamda bandlik darajalari doimiy bo'lib qoladi.

Keyns makroiqtisodiy muvozanatga to'liq bo'lmagan bandlik sharoitida ham erishish mumkinligini, to'la ish bilan bandlik qonuniy holat emasligini, balki tartibga solinmagan iqtisodiyotda tasodifiy ro'y berishigina mumkinligini isbotlab berdi.

Keynschilar fikricha esa, foiz stavkasi emas, balki aholining ixtiyoridagi daromadi iste'mol va jamg'arish dinamikasini belgilab beradi. Keltirilgan nazariy asoslarga tayangan holda Keyns o'zining makroiqtisodiy muvozanat modelini ishlab chiqdi.

## 7.2. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar.

“**Haqiqiy investitsiyalar** rejalashtirilgan va rejalashtirilmagan investitsiyalar miqdorini o'z ichiga oladi. Rejalashtirilmagan investitsiyalarga tovar – moddiy zahiralarga (TMZ) investitsiyalardagi kutilmagan o'zgarishlar kiradi. Ushbu rejalashtirilmagan investitsiyalar tenglashtiruvchi mexanizm sifatida jamg'arma va investitsiyalar miqdorining o'zaro bir-biriga mos kelishiga olib keladi va makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlaydi”<sup>1</sup>.

Firmalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishdagi kutilmagan o'zgarishlar tovar moddiy zahirasi rejalashtirilmagan investitsiyalar qilishga olib kelsa, haqiqiy xarajatlar rejalashtirilgan xarajatlardan farq qiladi.

Rejalashtirilgan xarajatlar funksiyasi  $E=S+I+G+Xp$  ko'rinishiga ega. Dekmak uning grafigi iste'mol funksiyasi  $(S=a+v(U-T))$  grafigiga nisbatan  $I+G+Xp$  miqdorda yuqoriga surilgan bo'ladi. Keltirilgan  $Xp$  -sof eksport bo'lib, uning funksiyasi esa quyidagi ko'rinishga ega:

$$Xp = g - m'Y$$

Bu yerda  $g$  – avtonom sof eksport;

$m'$  - importga chegaralangan moyillik;  $Y$  – daromad.

Importga chegaralangan moyillik import xarajatlaridagi o'zgarish miqdorini bunga sabab bo'lgan daromadlardagi o'zgarish miqdoriga bo'lib topiladi.

$$m' = \Delta M / \Delta Y;$$

Bu yerda:  $\Delta M$  - importga xarajatlarning o'zgarishi;

$\Delta Y$  - daromadlarning o'zgarishi.

Yalpi daromadlarning oshishi bilan import ham oshadi. Chunki, bunda iste'molchilar va investorlar ham milliy ham import mahsulotlarga bo'lgan xarajatlari miqdorini oshiradilar.

Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modelini ko'rib chiqish jarayonini soddalashtirish uchun sof eksport miqdori yalpi daromadlar ( $Y$ ) o'zgarishiga bog'liq emas deb olinadi. SHuning uchun sof eksport to'lig'icha avtonom xarajatlar miqdoriga qo'shiladi, ya'ni avtonom xarajatlar  $(a + I + G + Xp)$  yig'indiga teng deb olinadi.

## 7.3. «Keyns xochi». Ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga erishish mexanizmi

Rejalashtirilgan xarajatlar chizig'i haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar bir-biriga teng bo'lgan ( $Y=E$ ) chiziqni qaysidir a nuqtada kesib o'tadi. Quyida keltirilgan 7.2.-chizmada tovarlar va xizmatlar bozorida qisqa muddatli muvozanatga erishish mexanizmi tasvirlangan bo'lib, u “Keyns xochi” nomini olgan.  $Y=E$  chiziqda haqiqiy investitsiyalar va jamg'armalar tengligi saqlanadi. a nuqtada esa daromadlar rejalashtirilgan xarajatlarga teng bo'ladi. SHuningdek, bu yerda rejalashtirilgan hamda haqiqiy investitsiyalarning o'zaro tengligiga erishiladi. Ya'ni, makroiqtisodiy muvozanat ta'minlanadi.

Agarda, ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi ( $Y_1$ ) uning muvozanat darajasi ( $Y_0$ ) dan ko'p bo'lsa, iste'molchilar mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar taklif qilganga nisbatan kam sotib oladi ( $AD < AS$ ). Cotilmagan mahsulotlar TMZ ko'rinishiga ega bo'ladi. Zahiralarning o'sishi firmalarda

<sup>1</sup> Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика: Учебник. -7-е изд. перераб. и доп. - М.: Издательство “Дело и сервис”, 2005., 114-с

ishlab chiqarish hamda bandlik darajalarini pasaytirishiga olib keladi. Bu esa YaIM hajmini Y1 dan Y0 gacha kamayishiga olib keladi va daromad va rejalashtirilgan xarajatlar tenglashadi. O'z navbatida yalpi talab va taklifning tenglashishiga ( $AD = AS$ ) erishiladi.

#### 7.4. Avtonom xarajatlar mul'tiplikator.

Avtonom xarajatlar mul'tiplikator muvozanatli YaMM o'zgarishning avtonom xarajatlarning har qanday komponenti o'zgarishiga nisbatini ko'rsatadi:  $m = \Delta Y / \Delta A$ :

Bu yerda: m - avtonom xarajatlar mul'tiplikator;

$\Delta Y$  – muvozanatli YaIMning o'zgarishi;

$\Delta A$  – avtonom xarajatlarning Y o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan o'zgarishi.

Mul'tiplikator - yalpi daromadlar avtonom xarajatlarning dastlabki o'sishi (kamayishi) dan necha marta ortiq o'sganligini (kamayganligi) ko'rsatadi.

Avtonom iste'mol  $\Delta S_A$  miqdorga o'ssa, bu yalpi xarajatlar va daromadlar (U) ning o'sha miqdorda o'sishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida iste'molning ikkinchi marta (daromadlar oshishi hisobiga)  $MRS \times \Delta S_A$  miqdorda o'sishiga olib keladi. Keyinchalik yalpi xarajatlar va daromadlar  $MRS \times \Delta S_A$  miqdorda yana o'sadi. SHunday qilib, «daromad-xarajat» ko'rinishidagi doiraviy aylanish bo'yicha jarayon davom etaveradi.

$\Delta S_A \uparrow \Rightarrow AD \uparrow \Rightarrow Y \uparrow \Rightarrow C \uparrow \Rightarrow AD \uparrow \Rightarrow Y \uparrow \Rightarrow C \uparrow \Rightarrow AD \uparrow \Rightarrow Y \uparrow$  va hokazo.

va bundan :  $\Delta Y 1$

$m = \frac{\Delta Y}{\Delta A} = \frac{1}{1 - MPC}$

#### $\Delta A 1 - MPC$

Demak iste'molga chegaralangan moyillik qancha katta bo'lsa multiplikator samarasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Avtonom xarajlar multiplikatori miqdorining katta yoki kichikligi byudjet soliq siyosati samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Davlat o'z xarajatlarini oshirayotganda, yoki investitsiya xarajatlarini oshirish choralarini ko'rayotganda, bu xarajatlar jami talabni qancha miqdorga oshirib yuborishi mumkinligini hisobga olishi zarur.

#### 7.5. Retseesion va inflyatsion uzilish.

Agarda ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi ( $U_0$ ) potentsial ( $U^*$ ) hajmidan kam bo'lsa, jami talab samarasiz hisoblanadi. Ya'ni,  $AD=AS$  tenglikka erishilgan bo'lsada, yalpi xarajatlar miqdori resurslarining to'liq bandligi darajasini ta'minlamaydi. Yalpi talabning yetishmasligi iqtisodiyotga depressiv ta'sir ko'rsatadi.

YaMM (YaIM)ni to'liq bandlikning noinflyatsion darajasiga qadar o'stirish uchun jami talab (jami xarajatlar) ko'paytirilishi zarur bo'lgan miqdor retseesion uzilish deyiladi (15-chizma).

Ishlab chiqarishda to'liq bandlikka erishish va retseesion uzilishni yo'qotish uchun jami talabni rag'batlantirish va muvozanatni «A» nuqtadan «V» nuqtagacha surish lozim. Bu yerda muvozanatli yalpi daromadning o'sishi  $\Delta U$  quyidagiga teng bo'ladi:

$\Delta U = \text{Retseesion uzilish miqdori} \times \text{Avtonom xarajatlar mul'tiplikator miqdori}$

YaIMni to'liq bandlikning noinflyatsion darajasigacha pasaytirish uchun jami talab (jami xarajatlar) kamayishi zarur bo'lgan miqdor inflyatsion uzilish deyiladi.

$\Delta U = -\text{Inflyatsion uzilish miqdori} \times \text{Avtonom xarajatlar mul'tiplikator miqdori}$ .

Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli yalpi talab- yalpi taklif modelini qisqa muddatli makroiqtisodiy siyosat maqsadlarida aniqlashtirgan bo'lib, uning xususiy holi hisoblanadi. Yalpi talab va yalpi taklif modelidan farqli o'laroq bu modelda baholar darajasi va ish haqi o'zgarish miqdorlar hisoblanadi. Ayni shu sababga ko'ra tovar moddiy zahiralarning o'sishi qisqa muddatda makroiqtisodiy muvozanatga erishishni belgilovchi omil bo'ladi.

### Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Makroiqtisodiy muvozanat to'g'risida klassik nazariyaning mohiyatini tushuntirib bering.
  2. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi mohiyati nimada va klassiklar nazariyasidan printsiptial farqlari nimada?
  3. Avtonom xarajatlar deganda nimani tushunasiz?
  4. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlarga ta'rif bering.
  5. Keyns xochi nomli modelda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlovchi mexanizmga izoh bering.
  6. Multiplikativ samara nima sababdan ro'y beradi.
  7. Retsession uzilish qanday vaziyatlarda ro'y beradi va u qay tariqa bartaraf qilinadi?
  8. Inflyatsion uzilish qanday vaziyatlarda ro'y beradi va u qay tariqa bartaraf qilinadi?
- Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli va AD-AS modelini taqqoslang.

### 8-мавзу. Пулга талаб функцияси. Пул таклифи. Пул бозоридаги мувозанат

1. Пул тушунчаси ва унинг функциялари. Пул агрегатлари.
2. Пулга талабнинг кейнсча ва классик назариялари.
3. Пул таклифи функцияси ва пул мультипликатори.
4. Пул бозоридаги мувозанат.

#### 8.1. Пул тушунчаси ва унинг функциялари. Пул агрегатлари.

Пул – бу умумий эквивалент сифатида қўлланиладиган универсал товарнинг алоҳида тури бўлиб, бошқа барча товарларнинг қиймати у орқали ифодаланади.

Пул айирбошлаш, тўлов, қийматни ўлчаш, бойликни тўплаш воситаси функцияларини бажарадиган ноёб товардир.

Универсал ҳисоб-китоб эквивалентига бўлган эҳтиёж эрамиздан олдинги VIII асрдаёқ қафолатланган вазли ва таркибли стандартлаштирилган пулларнинг пайдо бўлишига олиб келди.

**Қоғоз пуллар** - тўлақонли пулларни тақдим этувчи пул белгиларидир. Тарихий жиҳатдан қоғоз пуллар металл пуллар муомаласи асосида келиб чиққан. Илк қоғоз пуллар эрамизнинг XII асрида Хитойда, Европа ва Америкада эса – фақат XVII-XVIII асрларда пайдо бўлди.

**Кредит пуллар.** Хўжалик юритиш амалиётида товар муносабатлари умумий тус олган шароитда тижорат ва банк кредити қўлланилишининг кенгайиши шунга олиб келдики, ўз функциялари, муомала соҳаси, қафолатлари ва шу кабиларга кўра оддий пуллардан фарқ қиладиган ва мутлақо бошқача қоидалар билан бошқариладиган кредит пуллар умумий товар бўлиб қолади.

Кредит пуллари эволюцияси: вексель, банкнота, электрон пуллар, кредит карточкалари.

**Вексель** - қарздорнинг ёзма мажбурияти (оддий вексель) ёки кредиторнинг қарздорга векселда ёзилган суммани муайян муддатдан кейин тўлаш тўғрисидаги буйруғи (ўтказма вексель – тратта).

**Банкнота** – бу банкнинг қарз мажбуриятидир. Ҳозирги вақтда банкнота Марказий банк томонидан векселларни қайта ҳисоблаш, турли кредит ташкилотлари ва давлатни кредитлаш йўли билан чиқарилади.

**Электрон пуллар** – бу банкларнинг компьютери хотирасидаги ҳисобварақлардаги пуллар бўлиб, уларнинг тасарруф қилиниши махсус электрон қурилма ёрдамида амалга оширилади.

- Пул функциялари:

- Қиймат ўлчови функцияси;
- Муомала воситаси функцияси;
- Тўлов воситаси функцияси;
- Жамғариш воситаси функцияси;
- Жаҳон пуллари функцияси;

1) **Қиймат ўлчови функцияси** - пуллар умумий эквивалент сифатида ҳамма товарларнинг қийматини ўлчайди.

2) **Муомала воситаси функцияси** - пуллардан товарлар ва хизматларни харид қилиш ва сотишда фойдаланиш мумкин. Пуллар муомала (ёки айирбошлаш) воситаси сифатида жамиятни бартерли айирбошлашнинг ноқулайликларидан халос қилади.

3) **тўлов воситаси функцияси** - пуллар товарларнинг кредитга сотилишида тўлов воситаси сифатида фойдаланилади, бунинг зарурлиги товарларни ишлаб чиқариш ва сотишнинг шарт-шароитлари бир хилда эмаслиги, уларни ишлаб чиқариш ва муомаласи муддатининг турли хиллиги, ишлаб чиқаришнинг мавсумийлиги, ишчилар ва хизматчиларга иш ҳақининг тўланишида фойдаланилади.

4) **жамғариш воситаси функцияси** - пуллар энг ликвидли, яъни сарфлаш учун энг осон товар бўлганлиги сабабли улар бойликни сақлашнинг энг қулай шакли ҳисобланади.

5) **жаҳон пуллари функцияси** - ташқи савдо алоқалари ва халқаро иқтисодий алоқаларнинг ривожланиши жаҳон пулларининг пайдо бўлишини тақозо этди. Улар умумий тўлов воситаси, умумий харид қилиш воситаси ва ижтимоий бойликнинг умумий моддийлаштирилиши сифатида фаолият юритишади.

## 8.2 Пулга талабнинг кейнсча ва классик назариялари.

- Пулга талаб назариялари:

- классик назария
- кейнсча назария

Пулга талабнинг классик назариясига пулнинг миқдорий назарияси киради. Пулнинг миқдорий назарияси пулга бўлган талабни алмашинув тенгламаси ёрдамида аниқлайди:

$$M \cdot V = P \cdot Y$$

Бу ерда:  $M$  – муомаладаги пул миқдори;  $V$  – пулнинг айланиш тезлиги;  $P$  – баҳолар даражаси;  $Y$  – реал ЯИМ.

Пулнинг айланиш тезлиги, иқтисодиётда битимлар таркиби нисбатан барқарор бўлганлиги учун доимий катталиқ деб қабул қилинади. Аммо банк тизимида ҳисоб-китобларни тезлаштирувчи техник воситалар жорий қилиниши натижасида у ўзгариши мумкин.  $V$  доимий бўлган шароитда алмаштириш тенгламаси қуйидагича бўлади:

$$M \cdot V^* = P \cdot Y \text{ (Фишер тенгламаси), бундан:}$$

$$M = P \cdot Y / V^*$$

$P \cdot Y$  – номинал ЯИМ миқдорини билдиришини ва доимий миқдорлигини ҳисобга олсак, муомала учун зарур бўлган пул миқдори номинал ЯИМ ўзгаришига боғлиқ. Муомаладаги пул массасининг ўзгариши, классик назарияга кўра,  $Y$  секин ўзгариши

туфайли асосан баҳолар даражасига таъсир кўрсатади. Бу ҳолат “пулнинг нейтраллиги” номини олган.

Монетаристлар қондасига кўра ҳукумат пул массасининг ўсиш суръатини, реал ЯММнинг ўртача ўсиш суръати даражасида таъминлаб турса иқтисодиётда баҳолар даражаси барқарор бўлади.

Фишер тенгламасидан ташқари Кембриж тенгламасидан ҳам кенг фойдаланилади:

$$M = k \cdot PY$$

Бу ерда:  $k = 1 / V$  – пулнинг айланиш тезлигига тескари миқдор.

$k$  - номинал пул миқдорининг даромадлардаги улушини кўрсатади.

Кембриж тенгламаси турли даражада даромадли бўлган турлича молиявий активлар мавжудлигини ва даромадни уларнинг қайси бири кўринишида сақлашни танлаш имконияти мавжудлигини кўзда туттади.

Пулга реал талаб қуйидаги кўринишда ҳисобланади:

$$(M/P) D = k \times Y$$

Бу ерда:  $M/P$  – “реал пул қолдиғи”, “пул маблағларининг реал заҳираси” деб номланади.

Пулга талабнинг Кейнс назарияси “Ликвидлиликнинг афзаллиги” назарияси деб номланиб, пулни нақд кўринишда сақлашга кишиларни ундовчи қуйидаги сабабларни ажратиб кўрсатади:

- трансакцион сабаб - жорий битимлар учун нақд пулга талаб;
- эҳтиёткорлик сабаби - кўзда тутилмаган ҳолатлар учун маълум миқдорда нақд пулларни сақлаш;
- спекулятив сабаб - фойда олиш мақсадида қимматли қоғозлар сотиб олиш учун пулга талаб.

Пул ликвидлилик хусусиятига эга бўлганлиги учун аҳоли уни сақлашни афзал кўради. Ликвидлиликнинг афзаллиги назариясига кўра пулга бўлган талаб фоиз ставкасига боғлиқ.

Активларни нақд пул шаклида сақлашнинг муқобил харажати фоиз ставкаси орқали аниқланади. Аҳоли ўзининг ортиқча пул маблағларига қимматли қоғозларни харид қилиб қўшимча даромад олиши мумкин. Агар аҳоли бу ишни амалга оширмаса олиши мумкин бўлган даромаддан воз кечган бўлади. Қимматли қоғозлар бўйича фоиз ставкасининг ўсиши воз кечилган даромаднинг қийматини ўсишига олиб келади. Яъни активларни нақд пул шаклида сақлашнинг муқобил харажати ўсиб боради. Шу сабабли фоиз ставкасининг ўсиши пулга талабнинг қисқаришига олиб келади.

Демак реал пул заҳираларига талаб функциясини қуйидаги кўринишда ёзамиз:

$$M/P = f(R)$$

Қуйида келтирилган графикда фоиз ставкаси ва реал пул заҳиралари миқдорида талаб тескари боғлиқликка эга эканлиги кўринади. Чунки, юқори фоиз ставкаси пулга талаб миқдорининг камайишини кўрсатади



$$M_d = f(R)$$

M/P



Классик ва кейнсчиларга хос ёндашувларни умумлаштириб, пулга талабнинг қуйидаги омилларини ажратиб кўрсатиш мумкин:

- даромадлар даражаси;
- пулнинг айланиш тезлиги;
- фоиз ставкаси.

Агар классик назария пулга талабни асосан реал даромад ҳажми билан боғласа, кейнсчилар пулга талаб асосан фоиз ставкасига боғлиқ деб ҳисоблашади.

Пулнинг айланиш тезлигини ҳисобга олмаганда, реал пул қолдиғига талаб формуласи қуйидагича бўлади:

$$(M/P) D = f(R, Y);$$

Бу ерда:  $R$  – фоиз ставкаси;  $Y$  – реал даромад.

Чизиқли боғлиқликни эътиборга олсак, қуйидагича формула ҳосил бўлади:

$$(M/P) D = kY - hR$$

Бу ерда:  $k$  ва  $h$  – пулга талабнинг даромадлар ва фоиз ставкасига таъсирчанлигини ифодаловчи коэффицентлар;  $R$  – фоиз ставкаси (реал фоиз ставкаси).

Реал фоиз ставкаси номинал фоиз ставкасидан инфляция суръатини айириб топилади.

Даромад даражасининг ўзгариши фоиз ставкаси ўзгармас бўлган шароитда пулга талабнинг кўпайишига олиб келади. Бу графикда пулга талаб эгри чизигининг силжиши кўринишида намоён бўлади.

Пул таклифи ( $M_s$ ) ўз ичига банк тизимидан ташқаридаги нақд пуллар ( $C$ ) ва зарур бўлганда ( $D$ ) иктисодий агентлар битимлар учун ишлатиши мумкин бўлган депозитларни олади:

$$M_s = C + D.$$

Аксарият мамлакатларда давлат пул чиқаришда монопол ҳуқуққа эга. Уни амалга ошириш ҳуқуқи нисбатан мустақил Марказий банк ихтиёрида бўлади. Аммо пул таклифини кўпайтириш имкониятига тижорат банклари эга. Улар кредитлар бериб, тўлов воситалари эмиссиясини ёки кредит мультипликациясини амалга оширадилар.

### 8.3 Пул таклифи функцияси ва пул мультипликатори

Масалан, А банкнинг депозити 2000 сўмга ўсган бўлса, заҳира нормаси 20 % га тенг бўлганда, у 400 сўмни Марказий банкда заҳиралаб, қолган 1600 сўмни қарзга беради. Шундай қилиб, А банк пул таклифини 1600 сўмга кўпайтиради ва у энди  $2000 + 1600 = 3600$  сўмни ташкил

этади. Яъни, омонатчиларнинг депозитлардаги 2000 сўмдан ташқари яна 1600 сўм қарз олувчилар қўлида қолади. Агар, 1600 сўм яна банка тушса, (масалан, Б банкка) унда 20 % га тенг бўлган захира нормасида у 320 сўмни захирада қолдириб, 1280 сўмни кредитга беради ҳамда шу миқдорда пул таклифини оширади. Кредит беришнинг бу жараёни сўнгги пул бирлигидан фойдаланишга қадар давом этади. Якуний ҳисоб китоб банк депозитлари жами 10000 сўмга кўпайганлигини кўрсатади.

Бу жараённи қуйидагича кўринишида ёзишимиз мумкин:

$$M = (1 / rr) \times D$$

Бунда: М- пул таклифи ҳажми;

rr – мажбурий захиралаш нормаси;

Д - дастлабки депозит.

Пул таклифининг умумлашган модели қуйдагиларни ўз ичига олади:

- пул базаси (резерв пуллар, юқори қувватли пуллар)
- банк тизимидан ташқаридаги нақд пуллар ва тижорат банклари Марказий банкда сақлайдиган депозитлар суммаси;
- депонентлаш коэффициенти:  $Cr = C / D$

Пул базасини “МВ” деб, нақд пулни “С” ва банк захираларини “R” деб белгиласак,

$$MB = C + R.$$

Пул таклифининг кенгайтирилган моделини қуйидагича ёзиш мумкин:

$$Cr + 1$$

$$Ms = \frac{Cr + 1}{Cr + rr} \cdot MB \quad \text{ёки} \quad Ms = m \cdot MB$$

$$Cr + rr$$

$(Cr + 1) / (Cr + rr)$  нисбати пул мультипликатори деб юритилиб бир сўмлик пул базаси ҳисобига неча сўмлик пул таклифи юзага келишини кўрсатади.

**Пул мультипликаторини** – пул таклифининг пул базасига нисбати кўринишида ёзиш мумкин:

$$m = \frac{Ms}{MB} = \frac{C+D}{C+R} = \frac{C/D + D/D}{C/D + R/D} = \frac{Cr + 1}{Cr + rr}$$

Cr миқдори – аҳолининг ўз маблағларини нақд пуллар ва депозитлар ўртасида қандай пропорцияда сақлашни танлашга боғлиқ.

rr = R / Д миқдори эса – аҳолининг нафақат Марказий Банк белгилаб берган мажбурий резерв нормасига, балки тижорат банклари сақлаб туришни мўлжалланаётган ортиқча резерв миқдорига ҳам боғлиқ.

Демак, пул таклифи пул базаси ва пул мультипликатори миқдорига боғлиқ экан. Пул мультипликатори пул базасининг бир миқдорга ошиши натижасида пул таклифи қандай ўзгаришини кўрсатади.

Марказий банк пул таклифини авваламбор, пул базасига таъсир этиш йўли билан тартибга солади. Қуйидаги ҳолларда пул массаси кўпаяди:

-пул базаси ўсса;

-мажбурий захиралаш нормаси пасайтирилса;

-тижорат банкларининг ортиқча резервлари камайса;

-нақд пулларнинг депозитлар умумий суммасига нисбати пасайса.

#### 4. Пул бозорида мувозанат.

Пул бозори модели пулга талаб ва таклифни бирлаштиради. Дастлаб, соддалик учун пул таклифи Марказий Банк томонидан назорат қилинади ва  $(M/P)s$  даражасида қайд қилинган деб оламиз.



Агарда М-пул таклифини, Р-наҳрлар даражасини билдирса,  $M^*/P^*$  пул воситаларининг реал захираси миқдорини кўрсатади.

$$(M/P) s = M^*/P^*$$

Бу ерда: М - пул таклифи даражасини билдиради;

Р – баҳолар даражаси (ушбу моделда экзоген ўзгарувчи) ни кўрсатади

Пул талаби берилган даромад даражасида фоиз ставкасига тескари пропорционал эгри чизик кўринишига эга. Мувозанат нуқтасида пул талаби ва таклифи ўзаро тенг бўлади. Ўзгариб турувчи фоиз ставкаси пул бозорини мувозанатда ушлаб туради. Фоиз ставкасининг ўзгариши натижасида иқтисодий агентлар ўз активлари таркибини ўзгартиргани учун пул бозорида мувозанатга эришиш учун вазиятга таъсир этиб уни ўзгартириш мумкин. Агар R жуда юқори бўлса, пул таклифи унга бўлган талабдан юқори бўлади. Иқтисодий агентлар ўзларида тўпланиб қолган ортиқча нақд пулларни акция ва облигацияларга айлантириб, улардан қутилишга интилишади.

Юқори фоиз ставкаси облигациялар курсининг пастроқ даражасига мос келади. Шу сабабли, арзон облигацияларни сотиб олиш фойдали бўлади.

Банклар,  $M_s > M_d$  бўлгани учун фоиз ставкасини пасайтира бошлайди. Иқтисодий агентлар ўз активлари таркибини ўзгартириши ва банклар томонидан фоиз ставкасининг ўзгартирилиши оқибатида пул бозорида мувозанат тикланади. Фоиз ставкаси пасайиб кетган ҳолатда тескари жараён рўй беради.

Пул бозорида мувозанатни ўрнатиш ва сақлаб туриш механизми қимматли қоғозлар бозори ривожланган бозор иқтисодиёти шароитида муваффақиятли амал қилади. Пул бозоридаги мувозанат макроиқтисодий мувозанатнинг муҳим таркибий қисмидир.

## **9- Mavzu: Byudjet- soliq siyosati**

### **Reja**

#### **8.1. Byudjet –soliq siyosatining mohiyati va usullari.**

#### **8.2. Davlat xarajatlari, soliq va balanslashgan byudjet mul'tiplikatorlari.**

#### **8.3. Diskret va nodiskret fiskalъ siyosat. Byudjet taqchilligi va ortiqchaligi.**

#### **8.4. O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq siyosati va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida uning xususiyatlari.**

#### **8.1. Byudjet –soliq siyosatining mohiyati va usullari.**

Byudjet-soliq siyosati deganda iqtisodiyotda to'liq bandlilikni, to'lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarini o'zgartirishni o'z ichiga olgan chora tadbirlar tushuniladi.

Iqtisodiyot turg'unlik yoki pasayish davrida bo'lgan vaziyatlarda davlat tomonidan rag'batlantuvchi fiskal siyosat-fiskal ekspansiya olib boriladi. Ya'ni, davlat qisqa muddatda iqsodiyotning pasayishi muammosini davlat xarajatlarini oshirish yoki soliqlarni kamaytirish, yohud ikkalasini bir vaqtning o'zida olib borish evaziga hal etadi.

Iqtisodiyotda to'liq bandlik va ortiqcha talab natijasida inflyatsiya kelib chiqishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda cheklovchi fiskal siyosat- fiskal restriksiya olib boriladi. Cheklovchi fiskal siyosat davlat xarajatlarini (G) kamaytirish yoki soliqlarni (T) oshirish yoki bo'lmasa ikkala tadbirni bir vaqtda olib borish orqali iqtisodiyotning davriy o'sishini chegaralashdan iborat.

Qisqa muddatli davrlarda ushbu tadbirlar talab inflyatsiyasini kamaytiradi. Uzoq muddatli davrlarda esa yuqori soliqlar iqtisodiyotda stagnatsiyaga olib kelishi mumkin.

#### **8.2. Davlat xarajatlari, soliq va balanslashgan byudjet mul'tiplikatorlari.**

Qisqa muddatli davrda byudjet-soliq siyosati davlat xarajatlari, soliq va balanslashgan byudjet mul'tiplikatorlari samarasi ta'siri ostida bo'ladi.

$$\Delta G \uparrow \rightarrow \Delta E \uparrow (\Delta E = \Delta C) \rightarrow \uparrow \Delta Y (\Delta Y = \Delta C \times mg)$$

**Yopiq iqtisodiyot uchun soliqqa tortish hisobga olinmagan holdagi muvozanatli yalpi ishlab chiqarish hajmi:**

$$Y = \frac{a+I+G}{1-b}$$

Bu yerda:  $1/(1-b)$  – yopiq iqtisodiyotda soliqqa tortish hisobga olinmagan vaziyatda xarajatlar mul'tiplikatori;

$(a+I+G)$  – avtonom xarajatlar;

$b=MPC$  – istemolga chegaralangan moyillik bo'lib mul'tiplikator miqdorini belgilovchi asosiy omildir.

**Yopiq iqtisodiyot uchun soliqqa tortish hisobga olingan holdagi muvozanatli yalpi ishlab chiqarish hajmi:**

$$Y = \frac{1}{1-b(1-t)} (a+I+G)$$

Bu yerda:  $1 / (1-b(1-t))$  – yopiq iqtisodiyotda xarajatlar mul'tiplikatori;

$t$  – chegaraviy soliq stavkasi.

$$t = \Delta Y / \Delta T$$

**Ochiq iqtisodiyot uchun soliqqa tortish hisobga olingan holdagi muvozanatli yalpi ishlab chiqarish hajmi:**

$$Y = \frac{1}{1-b(1-t)+m'} (a+I+G+g)$$

Bu yerda:  $1 / 1(1-b(1-t)+m')$  ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlar mul'tiplikatori.

Soliq mul'tiplikatsiya samarasi davlat xarajatlari singari soliqlarning bir marta o'zgarishi oqibatida iste'molning bir necha bor o'zgarishiga boqliq.

$$\begin{aligned} T \downarrow (\Delta T) &\Rightarrow Y_d \uparrow (\Delta Y_d = -\Delta T) \Rightarrow C \uparrow (\Delta C = b(-\Delta T)) \Rightarrow E \uparrow (\Delta E = b(-\Delta T)) \Rightarrow Y \uparrow (\Delta Y = b(-\Delta T)) \\ &\Rightarrow C \uparrow (\Delta C = b(b(-\Delta T)) \Rightarrow E \uparrow (\Delta E = b^2(-\Delta T)) \Rightarrow Y \uparrow (\Delta Y = b^2(-\Delta T)) \Rightarrow \\ &\Rightarrow C \uparrow (\Delta C = b(b^2(-\Delta T))) \text{ va h.k.} \end{aligned}$$

Demak, soliq mul'tiplikatorini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\frac{\Delta Y}{\Delta T} = \frac{b}{1-b}$$

Sof eksport funksiyasini hisobga olib ochiq iqtisodiyot uchun soliq mul'tiplikatorini hisoblasak, u

$$m_t = \frac{-b}{1-b(1-t)+m'}$$

ko'rinishini oladi.

$$1-b(1-t)+m'$$

Demak soliqlarni bir miqdorga kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi natijasida YaIM hajmining bundan necha marta ko'p miqdorga o'zgarishi iste'molga chegaralangan moyillik, chegaraviy soliq stavkasiga va importga chegaralangan moyillik darajalariga bog'liq

Ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari mul'tiplikatori va soliq mul'tiplikatorini hisobga olganda muvozanatli ishlab chiqarish hajmi modeli quyidagicha bo'ladi:

$$Y = \frac{1}{1-b(1-t)+m'} (a+I+G+g) - \frac{Ta}{1-b(1-t)+m'}$$

Aytaylik hukumat o'z xarajatlarini qandaydir miqdorga oshirdi va bu xarajatlarni moliyalashtirish uchun soliq miqdorini ham shuncha oshirdi.

Bunda davlat xarajatlari va avtonom soliqlar miqdorlarining bir vaqtning o'zida bir xil miqdorda o'zgarishi natijasida daromadlarning jami o'zgarishi  $\Delta Y$  miqdori quyidagiga teng bo'ladi:

$$\Delta Y = \frac{1-b}{1-b(1-t)+m'} \Delta G - \frac{1-b}{1-b(1-t)+m'} \Delta T_a$$

Agar davlat xarajatlari va avtonom soliqlar bir xil miqdorga ko'paysa muvozanatli ishlab chiqarish hajmi shu miqdorga teng yoki undan kamroq summaga ko'payadi. Buni balanslashgan byujet mul'tiplikator deb yuritiladi. Balanslashgan byujet mul'tiplikator birga teng yoki undan kichikroq bo'ladi.

### **8.3. Diskret va nodiskret fiskal siyosat. Byudjet taqchilligi va ortiqchaligi.**

Hukumatning bandlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi, inflyatsiya sur'atlari va to'lov balansi holatini o'zgartirishga yo'naltirilgan maxsus qarorlarni qabul qilishi natijasida davlat xarajatlari, soliqlar va davlat byudjeti qoldig'ini maqsadli o'zgartirilishi diskret fiskal siyosat deyiladi.

Nodiskret fiskal siyosat – davlat xarajatlari, soliqlar va davlat byudjeti qoldig'ini avtomatik o'zgartirishni ko'zda tutadi. Nodiskret fiskal siyosat o'rnatilgan barqarorlashtirgichlarga asoslanadi. Rivojlangan davlatlarda o'rnatilgan barqarorlashtirgichlari rolini progressiv soliq tizimi, davlat transfertlari tizimi va foydada ishtirok etish tizimi o'ynaydi. Nodiskret fiskal siyosat davriy tebranishlarni yumshatish uchun hukumatning bevosita aralashuvini talab etmaydi.

Iqtisodiyotning o'rnatilgan barqarorligi darajasi davriy byudjet taqchilligi va ortiqchaligi miqdorlariga bog'liq. Davriy taqchillik (ortiqchalik) iqtisodiy faollik pasayishi (oshishi) sharoitida soliq tushumlarining avtomatik kamayishi (oshishi) va davlat xarajatlarining avtomatik oshishi (kamayishi) natijasida yuzaga keladigan davlat byudjeti taqchilligi (ortiqchaligi)dir.

Davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirish usullari:

1. Pul-kredit emissiyasi;
2. Davlat zayomlarini chiqarish;
3. Davlat byudjetiga soliq tushumlarini ko'paytirish.

Davlat byudjeti kamomadi pul chiqarish orqali qoplanganda muomalada pul massasini ko'paytirish inflyatsiyaga olib keladi.

Olib borilgan izchil makroiqtisodiy siyosat natijasida davlat byudjeti taqchilligi pasaytirildi va 2003, 2004 yillarda YaIM ga nisbatan 0,4 foizni tashkil etdi (1992 yilda 12 %). Bu umumetirof etilgan 3 % li me'yordan ancha past ko'rsatkichdir.

Byudjet taqchilligi asosan noinflyatsion usullar bilan, ya'ni davlat obligatsiyalari chiqarish hamda xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar hisobiga moliyalashtirilmoqda. Respublikamizda o'tkazilayotgan soliq-byudjet siyosati makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlab turish, ustivor tarmoqlarni investitsiyalash, ta'lim sohasini jadal rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadlariga qaratilib kelinmoqda.

### **8.4. O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq siyosati va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida uning xususiyatlari.**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan fiskal siyosatni yanada takomillashtirish, soliqlar va byudjet xarajatlaridan iqtisodiyotni barqaror o'stirishni rag'batlantirishning amaliy vositalari sifatida foydalanish borasida chora-tadbirlar belgilanayotganda bugun jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan va mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham o'z ta'sirini o'shtkazayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini hisobga olish zarur bo'ladi.

Eksport qiluvchi korxonalarini qo'llab quvvatlash borasida 2009 yilda quyidagi fiskal choralar ko'rilmogda:

-korxonalarining byudjet, byudjetdan tashqari fondlar, kommunal xo'jaligi oldidagi qarzlari bo'yicha penyalarni hisobdan o'chirish;

-ortiqcha to'langan qo'shimcha qiymat solig'i summasini korxonalariga qaytarish muddatini 10 kunga, ya'ni 30 kundan 20 kungacha qisqartirish;

- "tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarini byudjetga barcha turdagi soliq va to'lovlardan – qo'shimcha qiymat solig'i bundan mustasno – ozod qilish muddatini 2012 yilgacha uzaytirish";

-o'z vaqtida valyuta tushumlari kelib tushmaganligi uchun jarima choralari hisoblanadigan muddatni 30 kundan 60 kungacha uzaytirish.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning soliq yukini yanada kamaytirish, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining 2008 yilda 10 foizdan 8 foizga, 2009 yildan boshlab esa 7 foizga tushirilishi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarining kamaytirilishi va ayni paytda uni hisoblash tartiblarining takomillashtirilishi tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni izchil rivojlantirish uchun kuchli rag'batlantiruvchi omillar yaratdi

Bunda mikrofirmalar va kichik korxonalar, nodavlat xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni oladigan dividendlarining investitsiyalarga, avval olingan kreditlar uchun hisob-kitob qilishga yo'naltiriladigan qismi 5 yil muddatga soliqdan ozod etildi.

Mamlakatimiz ishlab chiqarish korxonalari uchun keng ko'lamli rag'batlantirish tizimi nazarda tutilgan. "Jumladan, ular uchun 2012 yilning 1 yanvarigacha quyidagi soliq va bojxona imtiyozlari berilmogda:

go'sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan mikrofirma va kichik korxonalar uchun bo'shagan mablag'larni ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilishga maqsadli ravishda yo'naltirish sharti bilan yagona soliq to'lovi stavkasini 50 foizga qisqartirish;

tayyor nooziq-ovqat tovarlarning muayyan turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarini foyda va mulk soliqlaridan, mikrofirma va kichik korxonalarini yagona soliq to'lovidan ozod qilish"

Inqirozga qarshi dastur doirasida davlat byudjeti va maqsadli nobyudjet davlat jamg'armalari mablag'lari hisobidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni qo'llab quvvatlash choralari ko'rilmogda.

Ichki talabni rag'batlantirish maqsadlarida byudjet tashkilotlari ishchilarining oylik ish xaqilarini, pensiya, stependiyalarni nafaqalarni oshirish tadbirlari amalga oshirilmogda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatni barqaror rivojlantirishga qaratilgan bu chora tadbirlar kompleksni amalga oshirilishi O'zbekiston iqtisodiyotida iqtisodiy o'sishni va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, xalqimiz turmush farovonligini oshirish imkonini beradi.

### **Nazorot va muhokama uchun savollar**

1. Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosatning qisqa va uzoq muddatdagi natijalarini tushuntirib bering.
2. Davlat xarajatlarining mul'tiplikatori kattaligi qaysi ko'rsatkichlarga bog'liq?
3. Ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari mul'tiplikatori kattaligi fiskal siyosat samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Soliq mul'tiplikatori miqdori qaysi omillarga bog'liq?
5. Balanslashgan byudjet mul'tiplikatorining mohiyati nimada?
6. Diskret fiskal siyosatining kamchiliklarini tushuntirib bering.
7. Byudjet taqchilligi va ortiqchaligi qanday paydo bo'ladi, ular qay yo'sinda tugatiladi?
8. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq siyosatining asosiy xususiyatlarini izohlab bering.

### **11-Mavzu: Bank tizimi. Pul-kredit siyosati Reja**

1. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari.
2. Pul-kredit siyosatining maqsadlari, vositalari va ko'rinishlari. Depozitlarni majburiy zahiralash normasi.
3. Ochiq bozordagi operatsiyalar va hisob stavkasi.
4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekistonning bank tizimini mustahkamlash va pul-kredit siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.

### **1. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari**

Bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir.

Pul-kredit siyosatining sub'ekti banklardir. Bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir.

O'zbekistondagi bank tizimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, aktsiyadorlik-tijorat banklari va xususiy banklardan iboratdir. 2010 yil 1-yanvar holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi bank tizimi 30 tijorat bankini o'z ichiga oldi. Tijorat banklarining 3 tasi davlat banklari, 13 tasi aktsiyadorlik tijorat banklari, 9 tasi xususiy banklar, 5 tasi xorijiy kapital ishtirokidagi banklar hisoblanadi (12.1.-diagramma).

Banklar pul olamini harakatga keltiruvchi motor - yurak, pul bilan bo'ladigan hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Hamma pul to'lovlari (transfertlar) banklar orqali o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bosh maqsadi va asosiy vazifalari quyidagilar:

“Markaziy banning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Asosiy vazifalari:

Monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta'minlash;

Banklar, kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish, banklar, kredit uyushmalari, garovxonalarni nazorat qilish, qimmatbaho qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalash;

O'zbekiston Respublikasining rasmiy oltin valyuta rezervlarini, shu jumladan kelishuv bo'yicha hukumat rezervlarini saqlash va tasarruf etish;

Davlat byudjeti kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan birgalikda tashkil etishdan iboratdir”

### **2. Pul-kredit siyosatining maqsadlari, vositalari va ko'rinishlari. Depozitlarni majburiy zahiralash normasi.**

Pul-kredit siyosati deganda yalpi milliy mahsulotni ishlab chiqarishga inflyatsiyaning ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o'zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Pul kredit siyosati davlat tomonidan belgilanadi va uni Markaziy Bank amalga oshiradi.

Pul kredit siyosatini amalga oshirishning pirovard maqsadlari iqtisodiy o'sish, to'liq bandlikni, baholarning hamda to'lov balansining barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Bu maqsadlarga erishish uchun milliy valyutani muomaladagi pul massasi, foiz stavkasi va milliy valyuta almashinuv kursining optimal kattaliklarini ta'minlab turish zarur bo'ladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun Markaziy Bank qator vazifalardan foydalanadi.

Pul-kredit siyosatining uchta asosiy vositasi ajratib ko'rsatiladi:

1. Hisob stavkasi;
2. Majburiy zahiralash normasi;
3. Ochiq bozordagi operatsiyalar.

Markaziy bank ular yordamida pul yoki asosan bank depozitlari ko'rinishidagi pul massasiga yoki foiz stavkasiga ta'sir o'tkazadi, taklifini o'zgartiradi va shular orqali pul-kredit muomalasini tartibga solib turadi.

Pul-kredit siyosatini yuritish vositalaridan biri –majburiy bank zahira me'yorini o'zgartirish siyosatidir.

Majburiy zahiralalar – bu, kredit maqsadlari uchun ishlatilmaydigan bank omonatlarining bir qismidir.. Zahira normasi ikki asosiy funktsiyani bajaradi: bank likvidligini joriy tartibga solish uchun sharoit yaratadi va kredit emissiyasini cheklaydi. Markaziy bank tijorat banklari Markaziy bankda ushlab turishga majbur bo'lgan zahiralarning eng quyi normasini o'rnatadi va shu vosita yordamida ular kreditlash qobiliyatiga, imkoniyatiga ta'sir etadi. Bu me'yor qanchalik yuqori bo'lsa, ortiqcha zahiralalar shunchalik kam va tijorat banklarining kredit berish yo'li bilan «pullarni barpo etish» qobiliyati past bo'ladi.

### **3. Ochiq bozordagi operatsiyalar va hisob stavkasi.**

Ochiq bozordagi operatsiyalar – Markaziy bank tomonidan davlat obligatsiyalarini (qimmatli qog'ozlarni) tijorat banklari va aholidan sotib olish va ularga sotish bo'yicha operatsiyalardir. Markaziy bank tijorat banklaridan yoki aholidan bu qimmatli qog'ozlarni sotib olar ekan, tijorat banklari zahiralarni sotib olingan obligatsiyalar miqdori hajmida ko'paytiradi. Bu zahiralalar pul bazasiga kiradi, ya'ni yuqori quvvatli pullar bo'lganligi uchun pul taklifi multiplikativ ko'payadi. Markaziy bank tijorat banklari va aholiga obligatsiyalarni sotish bilan zahiralarni hamda tijorat banklarining kredit berish qobiliyatini kengaytiradi. Bu holda pul taklifi qisqaradi.

Pul - kredit siyosatini amalga oshirishning muhim vositalardan biri – bu, hisob stavkasi siyosatidir. Hisob stavkasi yoki qayta moliyalash stavkasi deb Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan ssudaning foiz stavkasi tushuniladi. Bu ssudalarni tijorat banklari ayrim ko'zda tutilmagan zarurat tug'ilganda va moliyaviy ahvoli mustahkam bo'lgan hollardagina oladilar. Hisob stavkasining pasayishi bilan tijorat banklarida Markaziy bankdan qo'shimcha zahiralarni olish imkoniyatlari kengayadi. O'z navbatida, bu tijorat banklarining zahiralardan yangi kreditlar berish bilan pul taklifini ko'paytiradi.

2006 yil 15 iyuldan boshlab qayta moliyalash stavkasi 14 % etib belgilandi.

Keynschilar pul taklifining YaIMga ta'sirini quyidagi ketma-ketlikda amalga oshadi deb hisoblashadi:

- pul taklifining o'zgarishi foiz stavkasining o'zgarishiga olib keladi;
- foiz stavkasining o'zgarishi o'z navbatida, investitsiyalarga bo'lgan talabning o'zgartiradi;
- investitsiyalarga talab o'zgarishi yalpi talab (yalpi xarajatlarning o'zgarishiga olib keladi);
- yalpi talabning o'zgarishi ishlab chiqarish hajmiga ( YaIMga) ta'sir etadi.

Umuman, barqaror pul-kredit siyosati hukumat tomonidan olib boriladigan fiskal siyosatga hamma vaqt ham mos kelavermaydi.

### **4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekistonning bank tizimini mustahkamlash va pul-kredit siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.**

Inqirozga qarshi choralar dasturini bajarish maqsadlaridan kelib chiqib, 2010 yilga mo'ljallangan pul-kredit ko'rsatkichlari:

\* inflyatsiyaning yillik darajasi 7-9 foiz atrofida bo'lishi;

\* YaIMning real usishi 8,3 foizni tashkil etishi;

\* byudjet taqchilligini YaIMning 1 foizidan oshmagan miqdorida bo'lishi va uning to'liq noinflyatsion manbalar hisobidan qoplanishi;

\* tashqi savdo aylanmasi sof qoldig'ining ijobiy bo'lishi kabi prognoz ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2010 yil uchun pul massasining maqsadli ko'rsatkichlarini iqtisodiyotning 8,3 foizlik o'sishi hisobiga pulga bo'lgan real talabning oshishi va inflyatsiya darajasining 7-9 foiz atrofida ushlab turilishini inobatga olgan holda belgiladi.

O'tgan yillar kabi, Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan sterilizatsiya operatsiyalarining, ya'ni tijorat banklarining bo'sh pul mablag'larini Markaziy bankdagi maxsus

depozitlarga va davlat qimmatli qog'ozlariga jalb qilish operatsiyalarining o'rtacha oylik xajmini pul agregatlarining maqsadli ko'rsatkichlaridan kelib chiqib hamda to'lov balansining ijobiy salbdosini inobatga olgan holda, 1,4 martagacha oshirish mo'ljallanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasini 2010 yildagi pul-kredit kursatkichlarining maqsadli parametrlaridan va inflyatsion kutilmalardan kelib chiqib 14 foiz miqdorida saqlab turish mo'ljallanmoqda.

2010 yilda Markaziy bank muomaladagi pul massasini tartibga solishda monetar siyosatning bozor instrumentlaridan foydalanish bilan bir qatorda ularning samaradorligini oshirib boradi.

Markaziy bank tijorat banklari likvidligining yetarli darajada bo'lishini ta'minlash maqsadida vakillik hisobvara-g'idagi mablag'larni muntazam ravishda monitoring qilib boradi va ularning optimal darajada bo'lishi uchun barcha zarur choralarini amalga oshiradi.

Majburiy rezervlar normasi bank tizimining moliyaviy bar-karorligi va likvidlik darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi, zaruriyat tug'ilganda, o'zgartiriladi.

Bank tizimida vaktinchi likvidlik yetishmovchiligi holati yuzaga kelganda Markaziy bank likvidlik berish instrumentlaridan, ya'ni davlat qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshiriladigan REPO hamda valyutaviy SVOP operatsiyalaridan foydalanadi.

Tijorat banklarining resurs bazasini va bank infratuzilmasini rivojlantirishga oid chora-tadbirlar doirasida 2010 yilda tijorat banklarining umumiy kapitalini ko'shimcha aktsiyalarni fond birjasida joylashtirish orkali kamida 20 foizga oshirish, yaqin ikki yilda esa uning yalpi ichki mahsulotga nisbatan hajmini 10 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

Tijorat banklardagi aholi mablag'lari hajmining bir maromda o'sib borishini ta'minlash va doimiy ravishda yangi jozibador omonat turlarini taklif etib borish, xususan 2010 yilda aholi va xo'jalik sub'ektlarining bo'sh mablag'larini banklarning uzoq muddatli depozitlariga jalb etishni kamida 30 foizga ko'paytirish va bu yunalishda banklararo raqobatni yanada kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

2010 yilda tijorat banklari tomonidan yana 250 mlrd. so'mlik qo'shimcha aktsiyalar muomalaga chiqarilib, banklar ustav kapitallarining oshirilishi kutilmoqda. Masalan, Xalq banki keyingi 4 yil davomida o'zining ustav kapitalini 10 mlrd. so'mdan avval 100 mlrd. so'mga, keyin 200 mlrd. so'mgacha oshirishni mo'ljallamoqda.

Banklarning kapitallashuvi darajasini oshirish doirasida ularning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash uchun tijorat banklari tomonidan 2009-2010 yillarga mo'ljallangan, yuridik shaxslar o'rtasida joylashtiriladigan 200 mlrd. so'mdan kam bo'lmagan hajmdagi uzoq muddatli obligatsiyalar chiqarish joriy yilda yakunlanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Markaziy bank va tijorat banklari funktsiyalarini tushuntirib bering.
2. . Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. . Ochiq bozordagi operatsiyalarning pul taklifiga ta'siri mexanizmini tushuntirib bering.
- 4.. Qayta moliyalash stavkasining o'zgartirilishi pul taklifiga qanday ta'sir etadi?
5. .Majburiy zahiralash normasi qaysi maqsadlarda qo'llaniladi va uning pasaytirilishi oqibatlari qanday?
6. . Pul-kredit siyosatining yetkazish mexanizmini tushuntirib bering.
7. Yumshoq va qattiq pul kredit siyosati tushunchalariga izoh bering.
8. Fiskal va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning muhimligi nimalar bilan izohlanadi?

## **12-Mavzu. IS-LM modeli**

Reja:

**12.1. IS - LM modelining mohiyati va AD-AS modeli bilan bog'liqligi.**

**12.2. Modelning asosiy tenglamalari**

**12.3. IS - egri chizig'i va uning tenglamasi**

## 12.4. LM - egri chizig'i va uning tenglamasi

### 12.5. IS-LM modelida makroiqtisodiy muvozanat

#### 12.1. IS - LM modelining mohiyati va AD-AS modeli bilan bog'liqligi.

Tovar va pul bozorida umumiy muvozanatga erishish shartlari va makroiqtisodiy siyosat tadbirlarining bu ikki bozorga ta'sirini umumlashtirib tadqiq qilish IS - LM modeli yordamida bajariladi.

IS - LM modeli qisqa muddatli davrga ham tovarlar ham pul bozorida birgalikda muvozanat o'rnatilishi mexanizmini xarakterlaydi.

**“IS - LM modeli** (investitsiyalar-jamg'armalar, likvidlikni afzal ko'rish – pul) – yalpi talab funksiyasini belgilovchi iqtisodiy omillarni aniqlash imkonini beruvchi tovar-pul muvozanatim modeli”. AD-AS modelida tovar va pul bozorlarining aloqasi e'tiborga olingan edi. Ya'ni tovarlar va xizmatlar baholarining ko'tarilishi pulga bo'lgan talabni oshirishi bu esa o'z navbatida foiz stavkasining ko'tarilishiga olib kelishi, oqibatda investitsiya xarajatlari va umuman yalpi xarajatlar kamayishi AD-AS modelida ko'zda tutilgan edi. IS-LM modeli AD-AS modelini qisqa muddatli davrga aniqlashtiradi va bu modelda har ikkala bozor yagona makroiqtisodiy tizimning sektorlari sifatida namoyon bo'ladi.

Model bu sektorlarda tarkib topgan sharoitlarga bog'liq tarzda foiz stavkasi R bilan daromad darajasi Y ning muvozanatli darajasini belgilaydi.

#### 12.2. Modelning asosiy tenglamalari

IS-LM (investitsiya - jamg'armalar, likvidlikning afzalligi - pul) modeli foiz stavkasi R bilan daromadlar Y ning bir vaqtning o'zida har ikkala bozorda muvozanatni ta'minlaydigan kombinatsiyalarini topish imkonini beradi.

Modelning asosiy tenglamalari quyidagilar:

1.  $Y = C + I + G + X_n$  — asosiy makroiqtisodiy ayniyat.
2.  $C = a + b(Y - T)$  — iste'mol funksiyasi, bu yerda  $T = T_a + tY$ .
3.  $I = e - dR$  — investitsiya funksiyasi.
4.  $X_n = d - m'Y - nR$  — sof investitsiya funksiyasi.
5.  $M/P = kY - hR$  — pulga talab funksiyasi.

IS-LM modelida ko'rilgan barcha tenglamalar bajarilsa muvozanatga erishiladi.

Modelning endogen o'zgaruvchilari Y, C, I, X<sub>n</sub> va foiz stavkasi R.

Modelning ekzogen o'zgaruvchilari G, M<sub>s</sub> va chegaraviy soliq stavkasi t.

a, b, c, d, m', n, k va h empirik koeffitsientlar bo'lib musbat va nisbatan barqarordir.

Y haqiqiy < Y potentsial bo'lgan qisqa muddatli davrga muvozanat ko'rib chiqilayotganda, modelda, baholar darajasi o'zgarmas, foiz stavkasi R va daromad Y o'zgaruvchan deb olinadi.

Y haqiqiy = Y potentsial bo'lgan, ya'ni to'liq bandlik sharoitida baholar darajasi R o'zgaruvchan, M<sub>s</sub> nominal kattalik va boshqa barcha o'zgaruvchilar real kattaliklardir.

#### 12.3. IS - egri chizig'i va uning tenglamasi

IS-egri chizig'i tovarlar xizmatlar bozorida foiz stavkasi R va daromadlar darajasi Y ning kombinatsiyalarini xarakterlovchi, bir vaqtning o'zida asosiy makroiqtisodiy ayniyat, iste'mol, investitsiya va sof eksport funksiyalari qondiriladigan nuqtalarning geometrik joylashuvini xarakterlaydi. Bu egri chiziqning har bir nuqtasida investitsiyalar va jamg'armalar o'zaro teng bo'ladi.

IS-egri chizig'ini Keynes xochi va investitsiya funksiyasi grafigi yordamida keltirib chiqarish mumkin.

Foiz stavkasining R<sub>1</sub> dan R<sub>2</sub>ga qadar ko'tarilishi investitsiyalar miqdorini I<sub>1</sub> dan I<sub>2</sub> ga qadar kamayishiga olib keladi. Bu haqiqiy xarajatlar egri chizig'ini Ye<sub>1</sub> dan Ye<sub>2</sub> ga qadar pastga



tomon  $\Delta E = \Delta I$  ga teng miqdorda surilishiga olib keladi. Oqibatda daromadlar miqdori  $Y_1$  dan  $Y_2$  qadar

$\Delta Y = \Delta E \times m$  miqdorga pasayadi, bu yerda ( $m = 1/(1-b(1-T)+m')$ ).

Demak tovarlar va xizmatlar bozorida daromadlar darajasi va foiz stavkasi dinamikasi o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud.

R o'zgarmagan holda IS egri chizig'ining o'ngga yoki chapga siljishi quyidagi omillar ta'sirida ro'y beradi:

- iste'mol xarajatlari darajasi;
- davlat xaridi darajasi;
- sof soliqlar (soliqlar - subsidiyalar - transfertlar);
- investitsiyalar hajmining (R ning mavjud stavkasida) o'zgarishi.

IS tenglamasini iste'mol, investitsiya va sof eksport funksiyalari tenglamalarini asosiy makroiqtisodiy ayniyatga qo'yib, uni R va Y ga nisbatan yechib topiladi.

#### 12.4. LM - egri chizig'i va uning tenglamasi

LM egri chizig'i o'zgarmas narxlar sharoitida pul vositalari bozorida vujudga keladigan foiz stavkasi va daromadlar darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi.

LM egri chizig'ining har bir nuqtasida pulga talab  $M_d$  pul taklifi  $M_s$  ga teng bo'ladi (liquidity Preference = Money Supply). Pul bozorida bunday muvozanatga daromad Y ning oshishi bilan foiz stavkasi R ko'tarilsagina erishiladi.

Daromadlarning o'sishi yuqoriroq foiz stavkasiga olib keladi va buni LM egri chizig'i aks ettiradi. U pul bozorida foiz stavkasi va daromad o'rtasidagi munosabatlarni ko'rgazmali tarzda ifodalaydi. Daromad darajasi qancha baland bo'lsa, pulga bo'lgan talab shuncha yuqori va shunga muvofiq muvozanatli foiz stavkasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

LM egri chizig'i o'ziga xos: gorizontaal va vertikal konfiguratsiyaga ega.

LM egri chizig'ining gorizontaal kesmasi foiz stavkasi foiz stavkasi  $R_{min}$ . darajadan pastga tushishi mumkin emasligini ko'rsatadi. Egri chiziqning vertikal kesmasi foiz stavkasining maksimal daraja  $R_{max}$ . chegarasidan tashqarida hech kim jamharmalarini likvid (pul) shaklida ushlab turmaydi va ularni qimmatli qohozlarga aylantiradi.

Baholarning o'zgarishi hamda pul taklifi hajmidagi o'zgarishlar LM egri chizig'ining o'ngga yoki chapga siljishiga olib keladi.

LM egri chizig'i tenglamasi pulga talab funksiyasini R va Y ga nisbatan yechib topiladi.

R ga nisbatan LM egri chizig'i tenglamasi quyidagicha:

$$R = (k/h)Y - (1/h) (M/P).$$

Y ga nisbatan LM egri chizig'i tenglamasi quyidagicha:

$$Y = (1/k) (M/P) + (h/k) R.$$

$k/h$  koefitsenti LM egri chizig'ining Y o'qiga nisbatan og'ish burchagini xarakterlaydi hamda fiskal va pul kredit siyosatining nisbiy samaradorligi baholaydi.

#### 12.5. IS-LM modelida makroiqtisodiy muvozanat

IS-LM egri chiziqlari kesishadigan nuqta IS-LM modelidagi iqtisodiy muvozanat holatini ko'rsatadi.

Bu nuqta o'zida shunday foiz stavkasi «R» ni va daromad darajasi «Y» ni aniqlaydiki, bunda tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif hamda real pul mablag'lariga bo'lgan talab va ularning taklifi o'zaro teng bo'ladi. (29-chizma.)

Bu yerda :  $R^*$  -muvozanatli foiz stavkasi;  $Y^*$  - muvozanatli daromad hajmi.

IS va LM egri chiziqlarining o'zaro kesishishi pul taklifi investitsiyalar va jamg'armalarni o'zaro tenglashtiruvchi foiz stavkasi shakllanishi uchun yetarli ekanligini anglatadi.

IS egri chizig'i rejalashtirilgan xarajatlarga bog'liq bo'lganligi uchun uning o'zgarishi fiskal siyosatidagi o'zgarishlarni xarakterlaydi. LM pul taklifiga bog'liq bo'lganligi uchun undagi o'zgarish monetar siyosat tadbirlari natijasini ko'rsatadi.

Bundan xulosa shuki IS-LM modeli fiskal va monetar siyosatning iqtisodiyotga birgalikda ko'rsatadigan ta'sirini baholash imkonini beradi. Davlat xarajatlarining o'sishi yoki soliqlarning kamayishi IS egri chizig'ini o'ngga siljitadi. Davlat xarajatlarining kamayishi va soliqlarning oshishi esa bu egri chiziqni chapga siljitadi. Xuddi shuningdek pul taklifining oshishi LM egri chizig'ini o'ngga, kamayishi esa chapga siljitadi. IS-LM modeli ma'lum makroiqtisodiy natijalarga erishishning turli variantlarni ko'rib chiqish imkoniyatini beradi

Agar modelda muvozanati LM egri chizig'ining gorizontol(keyns) kesmasida yuzaga kelsa pul massasining ko'paytirilishi investitsiyalar, ishlab chiqarish va bandlilikning o'sishiga olib kelmaydi. Bunda pul taklifining o'sishi tovarlar bozoriga ta'sir ko'rsata olmaydi, chunki pul bozorida foiz stavkasini kamaytirish imkoniyati qolmaydi. Bunday vaziyat **likvidlilik tuzog'i** nomini olgan.

Agar IS egri chizig'i vertikal ko'rinishda bo'lsa, ya'ni investitsiyalarga talab foiz stakasi o'zgarishiga ta'sirchan (elastik) bo'lmagan, masalan investorlar kelajakdagi bozor kon'yukturasi noaniqligi sababli o'z investitsiyalari istiqboliga tushkun baho bersalar **investitsion tuzoq** yuzaga keladi. Investitsion tuzoq shuni anglatadiki IS egri chizig'i vertikal bo'lganda LM egri chizig'ining siljishlari real daromad miqdorini o'gartirmaydi. Bu holatda pul-kredit siyosati yalpi talab va milliy daromad hajmiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi, fiskal siyosat esa samarali bo'ladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. IS-LM modeli qanday maqsadga xizmat qiladi va unga ehtiyojni qanday asoslab berish mumkin?
2. IS-LM modelining asosi bo'lgan tenglamalarni sanab bering va ularga tavsif bering.
3. IS egri chizig'ining mohiyati nimada va qanday keltirib chiqariladi?
4. LM egri chizig'ining asosiy o'zgaruvchilari nimalardan iborat va u qanday keltirib chiqariladi?
5. IS egri chizig'i tenglamasidagi qaysi parametr fiskal va pul kredit siyosatining nisbiy samaradorligini belgilaydi va nima sababli?
6. Modelda makroiqtisodiy siyosat yuzaga kelishining shartlari qaday?
7. Likvidlilik tuzog'i qachon vaziyatda yuzaga keladi va makroiqtisodiy siyosatga qanday ta'sir ko'rsatadi?
8. "Investitsion tuzoq" atamasi qo'llaniladigan makroiqtisodiy vaziyatni tavsiflab bering.

### **13-Mavzu. Iqtisodiy o'sishning umumiy tavsifi va neokeynscha modellari**

#### **Reja**

- 13.1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi va o'lchanishi.
- 13.2. Iqtisodiy o'sishning omillari va tiplari.
- 13.3. Iqtisodiy o'sishning keynscha modellarining umumiy tavsifi. Ye. Domar modeli.
1434. Iqtisodiy o'sishning R. Xarrod modeli.

#### **13.1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi va o'lchanishi**

Iqtisodiy o'sish to'liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potentsial ishlab chiqarish darajasini uzoq muddatli ko'payishi tendentsiyasini anglatadi.

Iqtisodiy o'sish jami taklifning o'sishini yoki boshqacha aytganimizda, haqiqiy va potentsial YaIM hajmining oshishini bildiradi. Iqtisodiy o'sish nafaqat mamlakat real daromadlarining o'sishi, shuningdek, jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarning o'sishini ham anglatadi. SHu sababli ham iqtisodiy o'sish ikki xil usul bilan o'lchanadi.

Birinchi usulda iqtisodiy o'sish real YaIM ni o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiy iqtisodiy imkoniyatlari dinamikasini aniqlash uchun ishlatiladi.

Ikkinchi usulda iqtisodiy o'sish aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YaIM ning o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasi va modellarida YaIM o'rniga SIM, YaMD, SMD ko'rsatkichlaridan ham foydalanilishi mumkin. Iqtisodiy nazariyada iqtisodiy o'sish daromadlarni qanday nisbatlarda iste'mol va investitsiyalarga bo'linishiga bog'liq deb qaraladi.

Iqtisodiy o'sish real kattaliklarda, qiyosiy baholarda o'lchanadi..

### **13.2. Iqtisodiy o'sishga omillari va tiplari**

Real ishlab chiqarish hajmlarining uzoq muddatli o'sishi sur'atlarini, ko'lamlarini, samaradorligi va sifati oshirishini belgilovchi hodisa va jarayonlar iqtisodiy o'sish omillari deyiladi.

Iqtisodiy o'sish omillari ikki guruhga ajratiladi.

Birinchi guruh omillari iqtisodiy o'sishni fizik (ashyoviy) jihatdan ta'minlaydi. Bu guruhga ishlab chiqarish omillari kiritiladi:

- tabiiy resurslar soni va sifati;
- mehnat resurslari soni va sifati;
- asosiy kapital hajmi;
- texnologiyalar va ishlab chiqarishni tashkil etish;
- jamiyatda tadbirkorlik malakalarining rivojlanishi darajasi..

Ikkinchi guruhga omillari jamiyatdagi iqtisodiy o'sish potentsialini yuzaga chiqarish imkonini beruvchi omillar – talab va taqsimot omillari bilvosita omillar) kiritiladi:

- bozorning monopollashuvi darajasini pasayishi;
- iqtisodiyotdagi soliq muhiti;
- kredit-bank tizimi samaradorligi;
- iste'mol, investitsiya va davlat xarajatlarining o'sishi;
- eksport hajmining o'sishi;
- iqtisodiyotda ishlab chiqarish resurslarini qayta taqsimlash imkoniyatlari;
- daromadlarni taqsimlashning shakllangan tizimi.

Agar o'sish qo'shimcha resurslarni jalb etish hisobiga ta'minlansa va jamiyatdagi resurslardan foydalanishning shakllangan o'rtacha samaradorligi darajasini oshirmasa ekstensiv iqtisodiy deb ataladi.

YaIMning o'sishi iqtisodiyotda band bo'lganlar sonidan yuqori sur'atga ega bo'lsa intensiv iqtisodiy o'sish ro'y beradi.

“Iqtisodiy o'sishning intensiv tipi ishlab chiqarish samaradorligining oshirishiga bog'liq. U foydalanilayotgan resurs birligiga to'g'ri keladigan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishni, ishlab chiqarishning texnik xususiyatlarini yaxshilashni ko'zda tutadi.

Iqtisodiy o'sishning bu ikki tipi sof holda ro'y bermaydi. Iqtisodiy o'sish uni ta'minlashdagi intensiv yoki intensiv omillarning ulushi darajasiga qarab ko'proq ekstensiv, yoki ko'proq intensiv bo'lishi mumkin.

### **13.3. Iqtisodiy o'sishning keynscha modellarining umumiy tavsifi. Ye. Domar modeli.**

Iqtisodiy o'sish modellarini yalpi ishlab chiqarishning uzoq muddatli ko'payishi taklif omillariga tayangan holda tahlil etish imkonini beradi.

Iqtisodiy o'sishning keynscha va neoklassik modellarini mavjud. Keynscha modellarining mohiyati quyidagicha:

- 1) ularning barchasi Keynsning yalpi talb to'ovrisidagi bosh g'oyasiga tayanadi. Ya'ni ularni tuzishda mualliflar iqtisodiyotni uzoq muddatli mutanosib rivojlanishining hal qiluvchi sharti yalpi talabni oshirish deb qarashgan;
- 2) iqtisodiy o'sishning asosiy omili investitsiyalar hisoblanadi, boshqa ishlab chiqarish omillari e'tiborga olinmaydi;

Keynscha iqtisodiy o'sish modelidan soddarog'i 40-yillarda Ye. Domar tomonidan taklif etilgan model hisoblanadi.

Domar modelida mehnat bozorida ortiqcha taklif mavjud, bu baholarni barqaror xolatida ushlab turadi, investitsion lag «0» ga teng, kapital quyilmalarning chegaraviy unumdorligi doimiy deb olinadi.

Ye. Domar investitsiyalarni ham talab ham taklif omili deb qaraydi. Ya'ni investitsiyalar nafaqat multiplikativ ta'sir ko'rsatib yalpi talabni oshiradi, balki ishlab chiqarish quvvatlarini yuzaga keltirib, ishlab chiqarishni rivojlantiradi, tovarlar taklifini oshiradi. SHunday ekan, yalpi talabning o'sishi yalpi taklifning o'sishiga teng bo'lishi uchun investitsiyalar qanday o'sishi kerak degan savol paydo bo'ladi. Bu savolga javob topish uchun Domar uch tenglamani o'z ichiga olgan tenglamalar sistemasini tuzdi:

- 1) taklif tenglamasi;
- 2) talab tenglamasi;
- 3) talab va taklif tengligini ifodalovchi tenglama.

1. Taklif tenglamasida investitsiyalar ishlab chiqarish omillarining qanchaga qo'shimcha o'sishini ko'rsatadi. Agar berilgan sharoitda investitsiyalar I o'ssa, yalpi ishlab chiqarish  $\Delta K \alpha$  miqdorga o'sadi:

$\Delta Y_s = \Delta K \alpha$ ,  $\Delta K$  investitsiyalar hisobiga ta'minlanganligi uchun tengikni:

$\Delta Y_s = I \alpha$  deb yozish mumkin. Bunda,  $\alpha$  – kapital quyilmalar (investitsiyalar)ning chegaraviy unumdorligi. Agar bir yilda yalpi ishlab chiqarishni 1 mlrd. so'mga oshirish uchun 4 mlrd so'm investitsiya talab etilsa  $\alpha = 0,25$  bo'ladi.

$\alpha = \Delta Y_s / I$  bir so'mlik investitsiya hisobiga yaratilgan yangi mahsulot miqdorini ko'rsatadi.

2. Talab tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega

$\Delta Y_d = \Delta I (1/\mu)$ , bu yerda  $1/\mu$  – xarajatlar multiplikatori,  $\mu$  – jamg'arishga chegaralangan moyillik.

Bu tenglama milliy daromad  $\Delta Y_d$ , yoki yalpi talab qo'shimcha investitsiyalarning multiplikativ ko'payishiga teng miqdorda o'sishini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish to'plangan jami kapital bilan ta'minlanishi, milliy daromad esa qo'shimcha investitsiyalarning multiplikativ ta'siri ostida ko'payishi sababli taklif tenglamasida jami investitsiyalar, talab tenglamasida esa qo'shimcha investitsiyalargina ko'rib chiqiladi.

3. Daromadlar va ishlab chiqarish quvvatlarining qo'shimcha o'sish sur'atlari tengligi tenglamasi:

$$\Delta I (1/\mu) = I \alpha$$

Bu tenglamani yechib suvidagi natijani olamiz:

$$\Delta I / I = \mu \alpha$$

$(\Delta I / I)$  – investitsiyalarning yillik o'sish sur'ati bo'lib, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish yordamida to'liq bandlikni ta'minlab turish uchun

$(\mu \alpha)$  miqdorga teng bo'lishi kerak. Bundan xulosa shuki investitsiyalarning mutanosib o'sish sur'ati jamg'arishga chegaralangan moyillik va investitsiyalarning unumdorligi (kapital qaytimi) darajalarining hosilasi ekan.

Agar  $\mu = 0,2$   $\alpha = 0,4$  bo'lsa  $\Delta I / I = 0,2 * 0,4 = 0,08$  yoki 8 %

Demak investitsiyalarning o'sish sur'ati 8% bo'lishi talab etiladi.

E. Domar modelidan kelib chiqadigan umumiy xulosa shuki iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun investitsiyalar hajmini oshirish, bu uchun esa jamg'arish normasi hamda fan texnika taraqqiyoti orqali kapitalning samaradorligini oshirish zarur.

### 13.4. Iqtisodiy o'sishning R. Xarrod modeli.

Agar Ye. Domar o'z modelida investitsiyalarni ekzogen tarzda berilgan miqdor ded olgan bo'lsa R.F. Xarrodning 1939-yilda ishlab chiqilgan iqtisodiy o'sish modeliga akselerator printsipli va tadbirkorlarning kutishiga asoslangan endogen funktsiyasi ham kiritildi. Akselerator printsipligiga ko'ra nafaqat investitsiyalar ishlab chiqarishning o'sishini keltirib chiqaradi, balki ishlab chiqarish va daromadlarningning o'sgan hajmi ham investitsiya jarayonlarining jadallashishiga olib keladi.

R.Xarrod o'z modeliga uch tenglamani kiritadi:

- 1) kafolatlangan o'sish sur'ati tenglamasi;
- 2) haqiqiy o'sish sur'ati tenglamasi;
- 3) tabiiy o'sish sur'ati tenglamasi.

R Xarrod modelida haqiqiy o'sish sur'ati ishchi kuchining o'sish sur'ati va kapital unumdorligining o'sish sur'ati bilan belgilanadi.

**$Gc = s$ , bu yerda**

$G$  - YaIMning haqiqiy qo'shimcha o'sish sur'ati;  $\Delta Y / Y$ ;

$c$  - ishlab chiqarishning kapital talabchanligi koeffitsenti,  $I / \Delta Y$ ;

$s$  - Milliy daromaddagi jamg'arish hajmi yoki jamg'arishga o'rtacha moyillik,  $S / Y$ ;

Tadbirkorlar dinamik muvozanat ta'minlangan o'sish sur'ati bo'lgan kafolatlangan (prognoz qilingan) o'sish sur'atiga asoslanib o'z investitsiya rejalarini tuzadilar. Kafolatlangan o'sish sur'ati jamg'arishga o'rtacha moyillik darajasini akseleratorga nisbati sifatida aniqlanadi:

**$Gw = s / cr$ , bu yerda:**

$Gw$  - kafolatlangan o'sish sur'ati

$cr$  - talab etiladigan kapital talabchanlik koeffitsenti (qtgan yillardagi shakllangan darajasi);

Bu ko'rsatkichlar doimiy bo'lganligi sababli kafolatlangan o'sish sur'atlari ham doimiy bo'ladi.

Agar haqiqiy o'sish sur'ati kafolatlangan o'sish sur'atiga mos kelsa iqtisodiyotda barqaror uzluksiz o'sish ta'minlanadi. Amaliyotda bunga doimo erishib bo'lmasligi tufayli qisqa muddatli davriy tebranishlar ro'y beradi.

Xarrod modelida resurslardan to'liq foydalangan sharoitda ta'minlanishi mumkin bo'lgan maksimal o'sish sur'ati tabiiy o'sish sur'ati deb nomlandi.

**$Gn cr = yoki \neq s$**

Iqtisodiyotning barqaror dinamik muvozanati to'liq bandlilik sharoitida kafolatlangan va tabiiy o'sish sur'atlari o'zaro teng bo'lganda ta'minlanadi. Ammo bunday tenglikka davlatning faol aralashuvi orqaligina erishiladi.

#### Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uni o'lchash usullarini izohlab bering.
2. Iqtisodiy o'sish omillarini ishlab chiqarish, talab va taklif omillariga qaysi tamoyillarga asoslanib bo'linadi?
3. Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sishning farqlari nimada, sof intensiv o'sishga erishish mumkinmi?
4. Domar modelida investitsiyalar tahlili Keyns tahliliga nisbatan qanday farq qiladi?
5. Domar modelining asosiy o'zgaruvchilariga tavsif bering va uning mohiyatini tushuntiring?
6. Iqtisodiy o'sishning Xarrod modeli Domar modelidan qaysi jihatlariga ko'ra farq qiladi?
7. Domar modelida iqtisodiy o'sish shartlari qanday izohlangan?

### 14- Mavzu. Xalqaro savdo nazariyasi

Reja

14.1. Xalqaro savdoning zaruriyati va uning asosiy ko'rinishlari

14.2. A.Smitning mutlaq va D. Rikardonning nisbiy ustunlik nazariyasi

14.3. Xeksher - Olinning neoklassik kontsepsiyasi. Leonъtev taajjubi

#### 14.4. Xalqaro savdoning zamonaviy nazariyalari (Porter nazariyasi).

##### 14.1. Xalqaro savdoning zaruriyati va uning asosiy ko'rinishlari

Jahon savdosi tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shaklidir.

Tashqi savdoning vujudga kelishi ikki muhim ob'ektiv sabab bilan izohlanadi.

Birinchidan, bu tabiiy va xom ashyo resurslarining mamlakatlar o'rtasida notekis taqsimlanganligi.

Xalqaro savdo rivojlanishining zarurligini belgilovchi ikkinchi muhim sabab shundaki hamma mamlakatlar ham barcha turdagi mahsulotni bir xil samaradorlik bilan ishlab chiqara olmaydi.

Bu ikki ob'ektiv sabab har qanday milliy iqtisodiyotning takror ishlab chiqarishi jarayonida xalqaro savdoning ahamiyatini aniqlaydi. 90-yillarning boshlarida xalqaro savdo hajmi AQSHda yalpi milliy mahsulotning 16-18 foizini, Germaniyada 30-39 foizini tashkil etdi. SHu davrda O'zbekiston yalpi milliy mahsulotida tashqi savdoning ulushi 10-12 foiz atrofida bo'ldi.

Tashqi savdo xalqaro ayirboshlashning an'anaviy shakli sifatida quyidagi ko'rinishlarni o'z ichiga oladi:

- mahsulotlarni ayirboshlash: yoqilg'i-xom ashyo mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sanoat mahsulotlari;
- xizmatlarni ayirboshlash: muhandislik-maslahat xizmatlari;
- transport xizmatlari, sayyohlik va boshqa xizmatlar. Hozirgi vaqtda xizmatlarning jahon eksportidagi hissasi 30 foizdan oshib ketdi;
- yangi ilmiy-texnik ma'lumotlarni ayirboshlash: litsenziyalar va «nou-xou»lar. Ular hissasiga xalqaro savdo aylanmasining 10 foiziga yaqini to'g'ri keladi.

Xalqaro savdo mahsulotlari, xizmatlar va fan-texnika ma'lumotlarini ayirboshlashning barcha ko'rinishlari tashqi savdo operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi. Ular o'z navbatida eksport, import, reeksport va reimport operatsiyalariga bo'linadi.

##### 14.2. A.Smitning mutlaq va D. Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi

Erkin tashqi savdoning zarurligi va foydaliligi to'g'risida dastlabki nazariyalardan biri A.Smitning **mutlaq ustunlik** nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra har bir mamlakat undagi mavjud sharoitlar va resurslar o'ziga xosligiga tayangan holda ma'lum bir tovarni eng kam xarajatlar hisobiga (yoki vaqt birligida bu tovarni eng ko'p) ishlab chiqirish imkoniyatiga ega. SHunday ekan mamlakat mutlaq ustunlikka ega bo'lgan tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashadi va ushbu tovarning o'z iste'molidan ortiqcha qismini sotadi hamda boshqa tovarlarni sotib oladi.

D. Rikardoning fikriga ko'ra mamlakatlar ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda yoki ko'proq ustunlikka ega bo'lgan yoxud kamroq zaiflikka ega bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish va sotishga ixtisoslashsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday vaziyatlarda ikki mamlakat o'rtasidagi savdo ko'proq imkoniyatlar olib keladi. Har bir mamlakat o'zi ixtisoslashgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi va shu orqali yutuqlarga erishadi. Uning mulohazalari "Nisbiy ustunlik nazariyasi"da o'z yechimiga ega bo'ldi.

Nisbiy ustunlik nazariyasida tashqi savdodan barcha davlatlarning manfaat ko'rishi mahsulotlar bahosi o'rtasidagi bahoga bog'liq bo'ladi.

Mahsulotlar bahosi o'rtasidagi o'zaro nisbat aniqlab olingandan keyin «savdo sharoiti» (terms of trade) tushunchasi savdo sharoitini aniqlab olish uchun esa "savdo sharoiti indeks" tushunchasi kiritilgan. Bu indeks quyidagi formula orqali aniqlangan:

$$\text{Savdo sharoiti indeksi} = \frac{\text{Eksport narxlar indeksi } E_i}{\text{Import narxlar indeksi } I_i} \cdot 100 = \text{-----} \cdot 100 = \text{-----} \cdot 100$$

Indeksning o'sishi (masalan, 100 dan 105 gacha) savdo sharoitlarining yaxshilanayotganligini ko'rsatadi. Ya'ni, ushbu miqdordagi importga hisob-kitob qilish uchun undan kam miqdorda eksport talab etiladi.

Amaliyotda savdo sharoiti, birinchidan, tovarlar bahosi o'zgarishi hisobiga, unga bo'lgan talabning oshishi yoki kamayishiga bog'liq. Ayrim mahsulot ishlab chiqaruvchilar (masalan, neft va neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar) narxlarda bo'layotgan o'zgarishlarga qaramay, katta yutuqlarga erishadilar.

### **14.3. Xeksher – Olinning neoklassik kontseptsiyasi**

E. Xeksher va B. Olinlar «Ishlab chiqarish omillariga bog'liq holda narxlarni tenglashishi» qoidasini oldinga surgan. Buning ma'nosi shundan iboratki, milliy ishlab chiqarishdagi farqlar ishlab chiqarishning mehnat, yer, kapital va shuningdek, u yoki bu mahsulotga ichki iste'moldagi o'zgarishlar kabi omillarga bog'liq.

Ularning qoidalaridagi asosiy vaziyatlar quyidagicha keltirilgan:

1. Mamlakatlar o'zlarida ortiqcha bo'lgan ishlab chiqarish omilini ko'p talab qiladigan mahsulotlarni eksport qilishadi va aksincha, o'zlarida taqchil bo'lgan ishlab chiqarish omillarini ko'p talab qiladigan mahsulotlarni import qiladilar.

2. Xalqaro savdo yo'lidagi cheklashlar bekor qilinsa tovarlarning turli mamlakatlardagi «omil narxi» (tannarxi) ning tenglashishi kabi o'zgarishlar kuzatiladi.

3. Mahsulotlar eksporti o'rnini asta sekin ishlab chiqarish omillari eksporti egallaydi.

Agar mamlakatdagi bir ishlab chiqarish omili miqdori bilan boshqa omillar miqdori o'rtasidagi nisbat boshqa mamlakatdagiga nisbatan yuqori bo'lsa shu omil bu mamlakatda nisbatan ortiqcha deb hisoblanadi.

Xeksher–Olin kontseptsiyasini tadqiq qilish borasidagi izlanishlar 50 yillarda «Leont'ev taajjubi» yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. V.Leont'ev AQSH kapital ortiqcha bo'lgan mamlakat bo'lishiga qaramasdan 1947 yilda kapital talabchan emas, balki mehnat talabchan mahsulot eksport qilganligini ko'rsatib berdi. Ya'ni Xeksher-Olin kontseptsiyasiga zid keladigan vaziyat yuzaga keldi. Keyingi tadqiqotlar esa AQSH da kapitaldan ko'ra yer va ilmiy texnik mutaxassislar nisbiy ortiqcha ekanligi tasdiqlandi. AQSH ishlab chiqarilishida aynan shu omillar ko'proq foydalaniladigan tovarlarning sof eksportiyori bo'lib chiqdi.

### **14.4.Xalqaro savdoning zamonaviy nazariyalari**

1948 yil amerikalik iqtisodchilar P. Samuelson va V.Stolperlar Xeksher-Olin kontseptsiyasini takomillashtirishdi. Ularning nazariyasi bo'yicha xalqaro savdo – ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik darajasidan notekislik, texnologiyalarining bir-biriga mosligi, raqobatning rivojlanishi va mahsulotlarning harakatchanligi kabi sharoitlarda mamlakatlar o'rtasidagi ishlab chiqarish omillari narxlari tenglashadi.

D. Rikardo modelida ishlab chiqilgan va E. Xeksher, B. Olin, P.Samuelson hamda V.Stolperlar tomonidan to'ldirilgan savdo kontseptsiyasiga nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro foydali savdoni yo'lga qo'yish, balki mamlakatlar rivojlanishi o'rtasidagi farqlarni kamaytirish vositasi sifatida ham qaraladi

SHuningdek M.Pozner, GXufbauer va R.Vernon tadqiqotlari ham nisbiy ustunlik nazariyasini yana bir bor tasdiqladi.

M. Porter o'z tadqiqotlari natijasida mamlakat tarmoqlari va firmalarining raqobat ustunligini belgilovchi omillarni ikki guruhga bo'ladi:

1.Asosiy omillar:

-zarur sifatga ega va yetarlicha miqdordagi ishlab chiqarish omillarining mavjud bo'lishi;

-mamlakat ichida mazkur tarmoq mahsulotiga bo'lgan talabning xususiyatlari, uning sifat va miqdor xarakteristikalarini;

-mamlakatda ushbu tarmoqqa yo'ldosh va uni ta'minlab turuvchi, jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan tarmoqlarning mavjudligi;

-firmaning strategiyasi, shuningdek ichki bozordagi raqobat xarakteri

2. Qo'shimcha omillar:

-tasodifiy hodisalar;

-tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha hukumat faoliyati.

Mahsulot eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash, mamlakat ichida qulay biznes muhitini yaratish, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish, bojxona bojlarining pasaytirilishi, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar berish, boshqa xalqaro shartnomalar tuzish orqali milliy korxonalarining chet mamlakatlardagi faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish kabi tadbirlar ularning raqobat ustunliklarini oshirishga xizmat qiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Xalqaro savdoni rivojlantirishning ob'ektiv va sub'ektiv sabablari nimalardan iborat?
2. Xalqaro savdoning shakllari va ular hajmini belgilovchi omillarni tushuntirib bering.
2. A. Smitning «Mutlaq ustunlik» nazariyasi kamchiligi nimada ko'rinadi?
3. «Nisbiy ustunlik» nazariyasining mohiyatini tushuntirib bering.
4. Savdo sharoitlari tushunchasini izohlab bering. Savdo sharoitining yaxshilanishi qanday oqibatlarga olib keladi?
5. Xeksher-Olinning neoklassik kontsepsiyasini izohlab bering.
6. «Леопътев таажуби» qaysi sababli yuzaga keldi va qanday yechim topti?
7. M.Porter tomonidan milliy korxonalarining raqobat ustunligini ta'minlovchi omillar qanday tasniflanadi?

## **15-мавзу Тўлов баланси. Валюта курси**

**15.1. Тўлов баланси тушунчаси ва унинг тузилиши.**

**15.2. Жорий операциялар ҳисоби баланси.**

**15.3. Капитал ҳаракати ҳисоби баланси.**

**15.4. Тўлов балансининг таркибий қисмлари ўртасидаги боғлиқликлар**

**15.5. Тўлов баланси таҳлили.**

**15.6. Тўлов балансини макроиқти- содий тартибга солиш воситалари ва усуллари.**

**15.7. Валюта ва жаҳон валюта тизими тушунчаси.**

**15.8. Валюта бозорини давлат томонидан тартибга солиш усуллари.**

**15.9. Валюта курси ва уни белгиловчи омиллар.**

**15.10. Харид қобилияти паритети.**

**15.11 Макроиқтисодий сиёсатнинг номинал ва реал валюта курсларига таъсири.**

*Тўлов баланси — маълум давр мобайнида мамлакат резидентлари ва ташқи дунё ўртасида бўладиган битимлар статистик қайд қилинган*



хужжатдир. ... У мамлакатнинг иқтисодий алоқаларини аниқ-лўнда ифодалаб пул-кредит, валюта, бюджет-солиқ, халқаро савдо сиёсатининг ҳамда давлат қарзини бошқариш йўналишларини танлаш учун индикатор вазифасини бажаради.

**Мамлакат тўлов балансининг тахминий кўриниши**  
**(рақамлар шартли)**

Моддалар номи	Кредит(+) ёки экспортдан тушумлар	Дебет (-) ёки импорт учун харажатлар	Соф кредит ёки соф дебит
<b>Жорий операциялар ҳисоби</b>			
Товарлар	+185	-260	-75
Ташқи савдо балансининг қолдиғи			-75
Хизматлар	+85	-97	-12
Инвестициялардан даромадлар (фоизлар ва дивидентлар)	+28	-20	+8
Трансферт қуринишидаги пул ўтказмалари	+10	-18	-8
Жорий операциялар буйича баланснинг қолдиғи			-87
<b>Капитал ҳаракатнинг ҳисоби</b>			
Инвестициялар ва бошқа ўрта ва узоқ муддатли капитал	+150	-87	+63
Капитал ҳаракати балансининг қолдиғи			+63
Жорий операциялар ва капитал ҳаракати буйича баланснинг қолдиғи			-24
Расмий захиралар (олтин, ХФВдаги захиралар)	+24		+24

Жорий операцияларнинг асосий моддаси товарлар экспорти ва импорти ҳисобланади, уларнинг фарқи ташқи савдо балансининг қолдиғи деб юритилади.

Макроиқтисодий моделларда жорий операциялар баланси қолдиғи куйидагича берилади:

$$X-M = X_n = Y - (C+I+G)$$

Бу ерда:

**X** - экспорт;

**M** - импорт;

**X<sub>n</sub>** - соф экспорт;

**C + I + G** - ЯИМнинг бир қисми (абсорбция).

Мамлакатда маълум бир вақтда моддий ва молиявий активларини сотиб олиш ва сотиш билан боғлиқ операцияларига капитал ҳаракати ҳисоби дейилади.

**Капитал харажатлари ҳисобида активлар бўйича барча халқаро операциялар кўрсатилади.**

*Капитал харакати баланси = Активларни сотишдан тушадиган барча тушумлар = Хорижий активларни сотиб олишга килинган харажатлар*

**Баланснинг икки бўлими бир-бири билан тенглашиб боради.**

*Тўлов баланси қолдиғи = Жорий операциялар + Капитал ҳаракати баланси*

**Жорий операциялар ҳисоби билан капитал ҳаракати ҳисобининг умумлашган кўриниши қуйидагича:**

$$Y = C + I + G + X_n \rightarrow Y - C - G = C + I + G + X_n - (C + G) \quad S_n = I + X_n \quad (I - S) + X_n = 0$$

*(эгулувчан валюта курси режимида марказий банк аралашмаган шароитда)*

Бу ерда:  $S_n$  – миллий жамғариш;

$(I - S)$  – миқдори ички инвестиция-ларнинг ички жамғармалардан ортиқчилигини кўрсатади ва капитал ҳаракати ҳисоби қолдиғини билдиради.

Тўлов балансининг жорий операциялар бўйича камомати капиталнинг соф оқиб келиши ҳисобига молиялаштирилади.

$$\left\{ \begin{array}{l} X_n < 0 \Rightarrow X - M < 0 \Rightarrow X < M ; \\ I - S > 0 \Rightarrow I > S \Rightarrow \text{хориждан капитал киритилиши} \end{array} \right.$$

Жорий операциялар мусбат қолдиққа эга бўлганда, ортиқча маблағлардан хорижга инвестиция қилишда ёки хориждан кўчмас мулк сотиб олишда фойдаланилади.

$$\left\{ \begin{array}{l} X_n > 0 \Rightarrow X - M > 0 \Rightarrow X > M; \\ I - S < 0 \Rightarrow I < S \Rightarrow \text{хорижга капитал чиқарилиши} \end{array} \right.$$

Тўлов баланси ҳолатига баҳо беришда савдо баланси қолдиғи, жорий операциялар баланси қолдиғи, капитал ҳаракати ва молия баланси қолдиғи ҳамда расмий ҳисоб китоблар баланси қолдиғи алоҳида таҳлил этилади.

- Валюта курсининг эркин тебраниши тўлов балансининг жорий ва капитал ҳисобларини автоматик равишда мутаносиблаштириш механизми ҳисобланади.

- Валюта курсларининг эркин ҳаракати тўлов балансининг ортиқчалиги ёки камомадини йўқотади.

Ўтиш даври иқтисодиётида хорижий валютага спекулятив талаб ошиши Марказий Банкни қийин аҳволга солиб қўяди. Чунки расмий валюта захиралари бир вақтнинг ўзида ҳам тўлов баланси тақчиллигини ҳам ички спекулятив талабни қондириш учун етарли бўлмаслиги мумкин.

*Валюта – кенг маънода мамлакат пул бирлигини (масалан, сўм, доллар, марка, фунт-стерлинг ва ҳоказо) англатади. Қисқа маънода валюта атамаси чет давлатларнинг пул белгиси маъносида қўлланилади. Ҳар бир миллий бозор хусусий миллий валюта тизимига эга.*

**Жаҳон валюта тизими - бу, халқаро айирбошлашнинг барча шакллариغا хизмат қилишга ва уларнинг самарали ривожланишини таъминлашга қаратилган мамлакатлар ўртасидаги валюта муносабатларининг йиғиндисидир.**

**Жаҳон валюта тизими қуйидагиларни ўз ичига олади:**

1. Халқаро битимларда фойдаланиладиган тўлов ва кредит воситалари (олтин, энг ривожланган мамлакатларнинг миллий валюта-лари, халқаро пул бирликлари);
2. Валюта курсларини ўрнатиш ва сақлаб туриш механизми;
3. Валюта бозорининг ишлаш тартиби;
4. Халқаро ҳисоб-китобларни амалга ошириш тартиб ва қоидалари;

5. Валюта ёрдамида тартибга солиш ва назорат қилиш тизими;
6. Валюта муносабатларини тартибга солиб турувчи ва жаҳон валюта тизимининг барқарор фаолиятини таъминловчи халқаро ташкилотлар тизими (ХВФ, Умумжаҳон банки, ЕТТБ).

**Валюта конвертирлашуви** деганда уни бошқа хорижий валюталарга алмашиш қобилияти тушинилади. Ҳозирги пайтда улар эркин конвертирланадиган, қисман конвертирланадиган ва конвертир ланмайдиган валюталарга ажратилади.

**Эркин конвертирланадиган валюта** – бу, амалдаги курс бўйича ҳар қандай бошқа хори- жий валютага эркин ва чекланма- ган миқдорда айирбошланадиган валютадир. Бунга мисол қилиб АҚШ, Европа ҳамжамиятига аъзо мамлакатлар, Япония валюталарини киритиш мумкин.

**Қисман конвертирланадиган валюта** – бу, фақат баъзи хорижий валюталарга алмаштириладиган ва халқаро тўлов оборотини қисман қамраб оладиган миллий валютадир.

**Конвертирланмайдиган валюта** – бу, фақатгина ички тўловларга хизмат қиладиган ва хорижий валютага айирбошланмайдиган миллий валютадир.

**Валюта бозорини давлат томонидан тартибга солиш усуллари қуйидагилар:**

1. **Захиралардан фойдаланиш.** Валюта курсини мустақамлашнинг кўпроқ қўлланиладиган усули - расмий захиралар билан бозорда манипуляция қилиш ҳисобланади. Ўз-ўзидан аниқки, валюта захиралари алоҳида мамлакат лар ихтиёридаги чет мамлакатлар валюталарининг захирасидир (Масалан, АҚШ доллари, ЕВРО ва ҳ.к.).

2. **Савдо сиёсати.** Валюта бозорига таъсир кўрсатишнинг бошқа тадбирларига савдо ва молиявий оқимлар устидан тўғридан-тўғри назорат қилишни киритиш мумкин.

3. **Валюта назорати.** Бошқа муқобил вариант валюта назорати ҳисобланади. Валюта назорати шароитида ҳукумат миллий экспортёрлар олган барча тегишли чет эл валюталарини давлатга сотиш талаби билан уларнинг етишмаслиги муаммосини ҳал қилиши мумкин.

4. **Ички макроиқтисодий тартибга солиш.** Валюта курси барқарор- лигини ушлаб туришнинг охирги воситаси ички солиқ ёки пул сиёсатидан шундай фойдаланиш ҳисобланадики, бунда тегишли чет эл валютасининг етишмаслиги бартараф қилинади.

**Валюта курсларини ўрнатиш икки хил кўринишда ифодаланади:**

1. Талаб ва таклифга асосан аниқланадиган эгилувчан ёки эркин сузиб юривчи валюта курси тизими.

2. Давлат аралашуви асосида аниқланадиган қатъий белгиланган валюта курси тизими.

**Қайд этилган валюта курси** – бу, хорижий валютада ифода-ланган, давлат томонидан расмий ўрнатилган миллий пул бирлигининг баҳоси бўлиб, унга валюта бозорида талаб ва таклифнинг ўзгариши бевосита таъсир қилмайди.

*Реал валюта курси бир мамлакат товарлари бошқа мамлакат товарларига алмашиши мумкин бўлган нисбатни кўрсатади, шу туфайли у савдо шароити ҳам деб юритилади.*

Номинал ва реал валюта курслари ўртасидаги нисбат қуйидаги кўринишга эга.

$$Er = En \frac{Pd}{Pt}$$

Бу ерда :  $Er$  – реал валюта курси;

$En$  - номинал валюта курси ;

$Pd$  – миллий валютада кўрсатилган ички баҳолар даражаси (индекси);

$Pt$  – хорижий валютада кўрсатилган чет элдаги баҳолар даражаси (индекси).

Харид қобилияти паритети концепциясига кўра валюта курси доимо турли мамлакатларда баҳолар даражасининг ўзгариши натижасида келиб чиқадиган фарқни қоплаш учун зарур бўлган даражада ўзгаради.

Харид қобилияти паритети қуйидагича ифодаланади:

$Pd$

$r = \frac{Pd}{Pt}$

$Pt$

Бу ерда:

$r$  — хорижий валютанинг миллий валютадаги баҳоси;

$Pd$  — ички баҳолар даражаси;

$Pt$  — чет элдаги баҳолар даражаси.

Ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosat

## **Reja:**

- 1. Ochiq iqtisodiyotning mohiyati va uning ko'rinishlari*
- 2. Kichik ochiq iqtisodiyot modeli*
- 3. Ichki va tashqi muvozanat modeli*

## 1. Ochiq iqtisodiyotning mohiyati va uning ko'rinishlari

Yopiq iqtisodiyot aslida real holatda kuzatilmaydi. Aslida hech qaysi davlat boshqa davlat bilan iqtisodiy aloqa qilmasdan mustaqil ravishda mavjud bo'la olmaydi va rivojlana olmaydi. Bu tushuncha fakat ochiq iqtisodiyot bilan solishtirib o'rganish uchun foydalaniladi.

Mamlakatning qanchalik darajada ochiq iqtisodiyotga moslashganlik yoki ochiq iqtisodiyotdan foydalanish darajasini quyidagi ko'rsatkichlar ifodalaydi:

$$\text{Import kvotasi} = \text{Import} / \text{YaIM} * 100 \%$$

Import kvotasi - import hajmining mamlakatning YaIMida tutgan ulushini ifodalaydi .

$$\text{Eksport kvotasi} = \text{Eksport} / \text{YaIM} * 100\%$$

Eksport kvotasi - mamlakat YaIMida eksport salohiyati qanchalik darajada ekanligini ifodalaydi .

$$\text{Tashqi savdo aylanmasi kvotasi} = \text{tashqi savdo aylanmasi} / \text{YaIM} * 100\%$$

Ochiq iqtisodiyot kichik va katta ochiq iqtisodiyot kabi ko'rinishlarda bo'lib, ularning bir qancha farqli jihatlari mavjud. Xususan, ular real foiz stavkasining qo'llanilishi bilan farq qiladi.

Kichik ochiq iqtisodiyotda r real foiz stavkasi barcha davlatlarda iqtisodiyotga bir xil darajada ta'sir ko'rsatadi yoki hamma davlatlarning bir biriga bo'lgan ta'siri bir xil darajada, ya'ni sezilarli darajada farq qilmaydi, deb qaraladi.

Katta ochiq iqtisodiy modelida bu masala boshqacharoq hal qilinadi, ya'ni tashqi savdo aylanmasi bo'yicha katta ta'sirga ega bo'lgan davlatlarning ushbu real foiz stavkasini o'rnatilishida va boshqa davlatlarga nisbatan bu foiz stavkaning ta'sirini aniqlashda katta ta'sirga ega ekanliklari alohida hisobga olinadi.

$$Y=C+I+G+X_n$$

Asosiy makroiqtisodiy ayniyatga ta'sir etuvchi omillar eksport va importning (hajmi hisobida) o'zaro farqi , ya'ni  $N_x$  hisoblanadi .

$$\text{Sof eksport } X_n = X - M$$

bu erda :

$X$  - eksport hajmi ;  $M$  - import hajmi .

Dunyoning ko'pgina davlatlarida sof eksport hajmi asosiy ayniyatning boshqa ko'rsatkichlariga nisbatan YaIM hajmiga kam ta'sir ko'rsatadi (o'rtacha 3-4 % YaIMdagi ulushi).

Asosiy ayniyatni o'zgartiramiz :

$$Y - C - G = I + X_n$$

Ifodaning chap tomoni  $Y - C - G$  milliy jamg'armani beradi, ya'ni uy xo'jaligi iste'moli va davlat talabini kondirilgandan so'ng qolgan qismi hisoblanadi. Shuning uchun  $Y - C - G$  ifodani  $S$  bilan belgilab olamiz .

$$S = Y - C - G .$$

Endi ifoda quyidagicha tus oladi :  $S = I + X_n$  yoki  $(I - S) + X_n = 0$

$(I - S) + X_n = 0$  bu ayniyat milliy hisoblarning asosiy ayniyati bo'lib, xalqaro oqimlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalaydi, ya'ni oldindan belgilangan jamg'arilgan kapital  $(I - S)$  va xalqaro oqimlar  $X_n$  .

$(I - S) + X_n = 0$  tenglamadagi har bir ishtirokchi ko'rsatkich o'ziga xos nomlanishga ega va o'ziga xos funktsiyaga ega .

$(I - S)$  to'lov balansida kapital harakati schyoti deb ataladi va ichki investitsiyaning ichki jamg'arishdan ortiqligini ifodalaydi.

Investitsiya mamlakatdagi jamg'armalarni oshirishi mumkin, ya'ni tadbirkorlar investitsion loyihalarni chet el kapitali ishtiroki orqali moliyalashtiradilar. Bundan kelib chiqadiki kapital harakati schyoti tashqi qarzlar orqali moliyalashtiriladi, ya'ni ichki kapital jamg'armasi hajmiga teng bo'ladi.

$X_n$  ni biz sof eksport deb atagan edik.  $(I - S) + X_n = 0$  tenglamada esa  $X_n$  o'zida chetdan sof eksport evaziga olingan summani ifodalaydi va to'lov balansining joriy schyot yoki joriy operatsiyalar schyoti deb yuritiladi.

$(I - S) + X_n = 0$  ayniyatiga kaytadigan bo'lsak agar ayniyatda  $(I - S)$  miqdor musbat (ijobiy) qoldiqqa ega bo'lsa,  $X_n$  manfiy (salbiy) bo'ladi degani. Bu o'z - o'zidan kapital harakati schyotini musbat qoldiqqa ega ekanligini va to'lov balansida schyotida defitsit bo'lganligini anglatadi, bu shuni anglatadiki, biz jahon bozoridan eksportga qaraganda importni ko'proq qilishimiz kerak.



Aksincha agar  $(I - S)$  manfiy qiymatga ega bo'lsa  $X_n$  musbat bo'ladi. Unda kapital harakati schyotida defitsit va joriy operatsiyalar schyotida musbat (ijobiy) saldoga ega bo'lamiz. Bunda mamlakat jahon bozorida kreditor rolini bajaradi va importga qaraganda eksportni ko'payganini anglatadi.

Agarda milliy jamg'arish mamlakat ichidagi jamg'armadan ortib ketsa, ortgan qismi chet elga investitsiya qilinishi mumkin.

Agarda aksincha mamlakat ichidagi investitsiya milliy jamg'armadan ortib kets, unda bizning mamlakatga investitsiya qilinishi kerak bo'ladi.

## 2. Kichik ochiq iqtisodiyot modeli

Kichik ochiq iqtisodiyot - bu milliy iqtisodiyot bo'lib, unda jahon bozoriga nisbatan juda kam ulushni ifodalovchi, xalqaro kreditlash, qarzdorlikni inkor etmaydi, lekin butunjaxon real foiz stavkasi  $r^*$  ni inkor etadi. Chunki kichik ochiq iqtisodiyotda foiz stavkasi  $r$  butunjahon real foiz stavkasi  $r^*$  ga teng deb olinadi ( $r = r^*$ ).

Kichik ochiq iqtisodiyot modeli uchta asosiy funktsiya (faraz, tahmin)dan iborat :

- 1) Mahsulot chiqarish hajmi

$$Y = \hat{y} = f(K, N)$$

Shunday qilib ishlab chiqarish yoki daromad miqdori berilgan faktorlarga bog'liq bo'ladi, ya'ni kapital -  $K$  va ishchi kuchi -  $N$ .

- 2) Iste'mol funktsiyasi

$$C = C_y(Y - T)$$

Iste'mol hajmi ixtiyordagi daromadga bog'liq bo'ladi.

- 3) Investitsiya funktsiyasi

$$I = (I_r)$$

Investitsiya miqdori foiz stavkasi  $(r)$  ga teskari bog'liqlikda bo'ladi.

$(I - S) + X_n = 0$  ayniyatni  $X_n = S - I$  ko'rinishida yozib olamiz, ya'ni

$$X_n = (Y - C - G) - I$$

Xalqaro foiz stavkasi  $r^*$  va yuqoridagi formula asosida quyidagi formulani yozamiz

$$X_n = ((Y - C_y(Y - T) - G)) - I(r^*) = S - I(r^*)$$

Ushbu tenglama bizga jamg'arma  $S$ , investitsiya  $I$ , kapital harakati schyoti  $(I - S)$ , to'lov balansining joriy operatsiyalar schyoti  $X_n$  ga qanday omillar ta'sir etishini ko'rsatadi .


Biz investitsiya hajmi ( $I$ ) ga foiz stavkasi teskari ta'sir etishini bilamiz. Jamg'arma miqdori ( $S$ ) ushbu holatda ikki omilga bog'liq bo'ladi: soliqlar  $T$  va davlat harajatlari  $G$ . Aynan davlat harajatlari va soliqlardan davlat o'zining fiskal (byudjet - fiskal) siyosatida foydalanadi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, kapital harakati schyoti  $(I - S)$  va joriy operatsiyalar schyoti ( $X_n$ ) fiskal siyosatga va xalqaro foiz stavkasiga bog'liq bo'ladi .

Grafikdagi muvozanat yopiq iqtisodiyotda foiz stavkasi  $r$  orqali o'rnatiladi.  $I$  va  $S$  chiziqlari  $r$  foiz stavkasi  $AB$  chiziqdagi kesishgan joyi muvozanat hisoblanadi .

Kichik yopiq iqtisodiyot modelida mamlakat foiz stavkasi  $r$  bilan xalqaro foiz stavkasi  $r^*$  teng bo'ladi. Bizning misolimizda esa  $r^* > r$  ifoda o'rinli. Muvozanat buziladi  $S > I$ . Bunday vaziyat joriy operatsiyalar schyotida  $X_n$  ijobiy saldo xisoblanadi .

Kapital xarakati schyoti  $(S - I)$  va joriy operatsiyalar schyoti ( $X_n$ ) dastlab nolli saldogaga ega bo'ladi: bu shuni anglatadiki, iqtisodiyotning tashqi savdosi balanslashgan, ya'ni import va eksport teng bo'ladi. Mamlakatga kirib kelayotgan va chiqib ketayotgan kapital oqimlari ham teng bo'lib nolli saldogaga ega bo'ladi. Ushbu holatga istisno qilib biz bozor farovonligi holatini ko'rishimiz mumkin. Chunki iqtisodiy siyosat fiskal siyosat orqali amalga oshiriladi. Boshqa tomondan esa fiskal siyosat mamlakat ichida o'tkaziladi va milliy hisoblanadi. Shu bilan birga unga chet mamlakatlar o'tkazayotgan fiskal siyosat ham o'z ta'sirini o'tkazadi .




**chizma. Jamg'arma va investitsiyalarning foiz stavkasiga bog'liqligi**

Birinchi bo'lib milliy fiskal siyosatning o'tkazilishini ta'sirlarini ko'rib chiqaylik. Iqtisodiyotni dastlabki shakllanishida tashqi savdo ( $X_n = 0$ ) balanslashgan va kapital harakati schyoti nolli qoldiqqa ega bo'ladi, deylik. Unda foiz stavkasi  $r$  ni o'zgartirmasdan turib davlat xarajatlarini oshishi ( $G$ ) va soliqlarni ( $T$ ) kamayishi milliy jamg'armani ( $S$ )  $S_1$  dan  $S_2$  gacha pasayishiga olib keladi (AV chiziq). Jamg'armaning  $S_1$  dan  $S_2$  gacha kamayishi kapital harakati schyotining ( $I - S > 0$ ) musbat (ijobiy) qoldiqqa ega ekanligini anglatadi. Shu bilan birga mamlakatga chetdan tashqi investitsiyalarning oqib kirishini taqazo etadi. Kapital xarakati schyotining ijobiy qoldiqqa ega bo'lishi joriy operatsiyalar schyoti ( $-X_n$ ) ning manfiy (salbiy) qoldiqqa ega bo'lishi orqali muvozanatlashadi.

Agar davlatning dastlabki balanslashgan iqtisodiyotida  $X_n = 0$  va  $(I - S) = 0$  bo'lsa va rag'batlantiruvchi fiskal siyosat olib borilsa, bu davlatda kapital xarakati schyoti ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi.


$$(I - S > 0, X_n < 0)$$

Schyotining ( $I-S>0$ ) (ijobiy) musbat qoldig'iga ega ekanligini anglatadi. Shu bilan birga mamlakatga chet el investitsiyalarini kirib kelishini taqozo etadi. Kapital harakati schyoti ijobiy qoldiqqa ega bo'lishi joriy operatsiyalar schyoti ( $-X_n$ )ning manfiy (salbiy) qoldig'i orqali muvozanatlashadi. Agar davlatning dastlabki balanslashgan iqtisodiyoti  $X_n = 0$  va  $I-S=0$  bo'lsa va rag'batlantiruvchi fiskal siyosat olib borilsa, bu davlatda kapital harakati schyoti ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi. ( $I-S>0, X_n < 0$ )



**chizma. Davlatning rag'batlantiruvchi fiskal siyosati**


Agar chet mamlakatlar rag'batlantiruvchi fiskal siyosat olib borsalar, G-davlat xarajatlari ortib, T-soliqlar qisqarsa, bu xalqaro foiz stavkasi  $r^*$  ning oshishiga olib keladi.



**chizma. Chet mamlakatlar rag'batlantiruvchi fiskal siyosati**

Chet mamlakatlarning rag'batlantiruvchi fiskal siyosati xalqaro foiz stavkasi  $r^*$  ning oshishiga va capital harakati schyotining ( $I-S<0$ ) defitsiti va joriy operatsiyalar schyoti ( $X_n < 0$ ) ning ijobiy saldoga ega bo'lishiga olib keladi. Ichki

investitsiya mamlakat tomonidan rag'batlantirilgan holatda, rejalashtirilgan investitsiya egri chizig'i o'ngga va yuqoriga harakat qiladi, boshqa ishtirokchilari foiz stavkasi  $r$  va jamg'arma hajmi  $S$  o'zgarmaydi. Bunday modellashtirishning natijasi sifatida kapital harakati schyoti  $(I-S) > 0$  ijobiy qoldiqqa va joriy operatsiyalar schyoti  $(-X_n)$  qisqarishi kuzatiladi. Investitsiya chizig'ining o'ngga va yuqoriga siljishi kapital harakati schyoti  $(I-S > 0)$  ning ijobiy saldogga va joriy operatsiyalar schyoti  $(-X_n)$  ning manfiy saldosi yoki joriy to'lov balansida defitsitni keltirib chiqaradi.



**chizma. Mamlakatdagi investitsiya taklifi hajmining o'zgarishi.**

Demak, xalqaro tovarlar orqali to'lov balansining joriy schyoti  $(X_n)$ da o'z aksini topadi va bu kapital harakati schyoti  $(I-S)$  da o'z aksini topgan kapital jamg'armalar oqimi bilan juda mustahkam bog'liq hisoblanadi.

Shunday qilib, davlat investitsiyani rag'batlantiruvchi siyosat olib borsa, bu kapital harakati schyoti  $(I-S)$  ijobiy qoldiqqa va to'lov balansining joriy operatsiyalar kamomadga  $(X_n)$  ega bo'linadi.

Aksincha, agar davlat jamg'armalarni rag'batlantiruvchi siyosat olib borsa, yuqoridagi holatning aksini kuzatish mumkin.

$$I-S < 0 \text{ va } X_n > 0$$

Agar biz kichik ochiq iqtisodiyot modelini yopiq iqtisodiyot bilan taqqoslaydigan bo'lsak, yopiq iqtisodiyotda jamg'arma darajasi juda past bo'ladi va bu o'z navbatida investitsiya hajmining ham past darajada bo'lishiga va kelajakda

kapital zaxiralarining kamayishi oqibatda iste'mol (C) ning kamayishiga olib keladi.

Ochiq iqtisodiyotda esa jamg'armalarning past darajada bo'lishi tashqi qarzning ortishiga olib keladi va bu ham kelajakdagi iste'mol (C) ni kamaytirishga olib keladi.

Yuqoridagi aytilganlardan foydalanib, biz mamlakatdagi chet el taklifining funktsiyasini ko'rishimiz mumkin:

$$X = E_a + mX$$

Bu erda :

X – eksport hajmi

$E_a$  - avtonom eksport hajmi, ya'ni mustaqil real ayirboshlash kursi asosidagi (X)

m – eksportga moyillik.

Import bo'yicha keyns funktsiyasi:

$$M = Z_a + Y_y$$

M – import

$Z_a$  - ixtiyordagi daromaddan importga taklif

$Z_y$  - import iste'moliga bo'lgan moyillik

Shunday qoida bor  $Z_y = C_y$

Bozor farovonligi uchun jami taklif funktsiyasiga ta'sir qiluvchi barcha omillarni ko'rib chiqdik.

Kelib chiqadigan jami taklif funktsiyasi

$$y^D = C + I + G + X_n$$

Izohlashning keynscha modeli daromadga asosan quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$y^D = C(y) + I(p, i) + G(y) + X_n(E, y)$$

Izohlashning keynscha modeli foiz stavkasi bo'yicha esa quyidagicha bo'ladi:

$$y^D = C(i) + I(y, i) + G(i) + X_n(e, i)$$

## **Ichki va tashqi muvozanat modeli**

Tadqiqotlar ko'rsatishicha odatda yalpi talabni tartibga solish orqali faqat ichki muvozanatga erishish uchun yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat ba'zi hollardagina bir vaqtda tashqi muvozanatga olib keladi. Xuddi shunday holat tashqi muvozanatni asoslangan holda tartibga solishda ham yuzaga keladi. Shu sababdan ham ichki va tashqi balansga bir vaqtda erishish juda qiyin hal etiladigan masala hisoblanadi.

Ushbu muammoni tahlil qilish davomida iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishning fundamental tamoyili aniqlangan. Bu tamoyil Ya. Tinbergen tomonidan yaratilgan bo'lib, unda ikki bir-biriga bog'liq bo'lmagan maqsadlarga erishish uchun iqtisodiy siyosatning hech bo'lmaganda ikkita bir-biriga bog'liq bo'lmagan vositalari talab etiladi. Muvofiq ravishda iqtisodiy siyosatning uchta maqsadiga erishish uchun uchta vositasidan foydalanish zarur va hakozi. Ikki maqsad sifatida ichki balans, ya'ni ishsizlikning tabiiy darajasi va past yoki nollik inflyatsiya bo'lganda ishlab chiqarishning hohlangan hajmiga erishish hamda tashqi balans, ya'ni to'lov yoki savdo balansi nolga teng bo'lishiga erishish qatnashadi.

R. Mandell ishlarida pul-kredit va byudjet-soliq siyosati vositalaridan foydalanish, bu model kapitalning xalqaro harakatini ko'zda tutgan sharoitda bir vaqtda ichki va tashqi muvozanatga erishishga imkon beradi.

Ichki va tashqi muvozanat muammosining nazariy jihati ko'pincha IS-LM ning bir muncha modifikatsiyalangan modeliga to'lov balansi muvozanatini ko'rsatuvchi VR chizig'ini qo'shib qo'llash sifatida qaraladi. Bu model valyuta kursining turli tartiblari uchun quriladi. Mukammal kapital harakatiga ega bo'lgan kichik ochiq iqtisodiyot Mandell-Fleming modeli yordamida tahlil qilinishi mumkin. R. Mandell va M.Fleming o'z tadqiqotlarida pul-kredit va byudjet-soliq siyosati ichki va tashqi muvozanatga turli nisbiy ta'sir o'tkazishini aniqladilar. Ular qayd etilgan ayirboshlash kursida monetar siyosat to'lov balansini tartibga solishda, fiskal siyosat esa ichki muvozanatni tartibga solishda nisbiy afzallikka

ega ekanligini ko'rsatdilar. Bu qoidani Mandellning samarali bozorni sinflash tamoyili deb atashadi.

Suzib yuruvchi ayirboshlash kursida ichki va tashqi muvozanatni ta'minlashda pul-kredit hamda byudjet-soliq siyosatining natijalari aksincha bo'ladi, ya'ni byudjet-soliq siyosati tashqi savdo va to'lov balansini tartibga solish orqali tashqi balansni, pul-kredit siyosati esa ichki balansni ta'minlashda nisbiy afzallikka ega bo'ladi.

Ichki va tashqi muvozanatni ta'minlash modeli XVF qarzlari hisobiga barqarorlashtirish siyosati va tarkibiy qayta qurishlarni o'tkazgan ko'plab mamlakatlar tomonidan qo'llanilgan. XVF dasturlarida bu modelda uchta maqsad va uchta vosita qo'llanilgan. Bu modelga muvofiq, byudjet-soliq siyosati ichki balans bilan, real valyuta kursi joriy operatsiyalar hisobi bilan, pul-kredit siyosati xorijiy valyutaning zahiralari hajmi bilan bog'langan. Bu modelda tashqi balans maqsadi ikki tarkibiy qismga, ya'ni joriy operatsiyalar hisobi va valyuta zahiralari darajasiga ajratiladi. Bunda quyidagi uchta qoida qo'llaniladi:

- 1) agar inflyatsiya juda yuqori bo'lsa, byudjet taqchilligini kamaytirish kerak;
- 2) agar joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi yuqori bo'lsa, real ayirboshlash kursini pasaytirish zarur;
- 3) agar xorijiy valyuta zahiralari juda kam yoki juda tez qisqarayotgan bo'lsa, pul-kredit siyosatini qat'iylashtirish lozim.



## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *Axmedov D.Q., Ishmixonmedov A.E., Jumaev Q.X., Jumaev Z.A. Makroiqtisodiyot. Darslik.- T.: TDIU, 2004, 240 b.*
2. *Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика: Учебник. М.: Дело и Сервис, 2001.*
3. *Вечканов Г.С., Вечканова Г.Р. Макроэкономика: Торговая политика. Инфляция и безработица. Социальная политика. СПб.: ЗАО «Питер», 2005.*
4. *Гайгер А., Линвуд Т. Макроэкономическая теория и переходная экономика. Пер. с англ. М.: ИНФРА-М, 1996.*
5. *Галперин В.М., Гребенников П.И., Леусский А.И., Тарасевич Л.С. Макроэкономика: Учебник. СПб.: СПбГУЕФ, 1997.*
6. *Дорнбуш Р., Фишер С. Макроэкономика. М.: МГУ, 1997.*
7. *Yo'ldoshev Z., Qosimov M.S. Makroiqtisodiyot asoslari. T.: «O'qituvchi», 1994*
8. *Менкю Н.Г. Макроэкономика. М.: МГУ, 1997.*
9. *Селищев А.С. Макроэкономика: Открытая экономика. Причины экономического роста. Динамика рынков. СПб.: ЗАО «Питер», 2005.*
10. *19. Xodjaev R., Maxmudov B., Xadjaev X., Ergashev E, Egamberdiev R. Mikro va makroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma-T.: "ILM ZIYO" 2012, 324 b.*
11. *20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. – 2012, 282 b.*
12. *Abulkasimov X. Makroiqtisodiy tartibga solish va O'zbekistonning barqaror rivojlanishi. Monografiya. – T. "Akademiya", 2011, 92 b.*
13. *O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligining rasmiy ma'lumotlari*

## AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN MATERIALLAR

### 2–MAVZU: ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR VA ULARNI HISOBLASH

**I. Darsning maqsadi:** iqtisodiyotdagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumot berish, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash turlari va shartlarini o'rganish.

#### **II. Darsning rejasi:**

1. *Yalpi ichki mahsulot(YaIM) ko'rsatkichining mohiyati.*
2. *YaIMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli.*
3. *YaIMni xarajatlar bo'yicha hisoblash.*
4. *YaIMni daromadlar bo'yicha hisoblash.*
5. *Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar.*
6. *YaIM deflyatori(Paashe indeksi) va iste'mol narxlari indeksi(INI).*

**III. Identiv o'quv maqsadlari:** sosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash tartibini o'rganish.

**IV. Kerakli jixoz, material va vositalar:** kodoskop, proektor, kompyuter, kalkulyator.

#### **V. Darsning ta'minoti:**

1. Каримов И.А. “Бизнинг бош мақсадимиз—жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишидир” // Халқ сўзи, 2005 й.- 29 январь.
2. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. “Макроэкономика”: Учебник.- 7-е изд. М.: “Дело и Сервис” , 2005., 464 с.
3. Ишмухаммедов А.Э. Асқарова М.Т.”Ўзбекистоннинг миллий иқтисодиёти” Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмасининг Адабиёт жамғармаси нашриёти., 2004., 225 б.
4. Ивановский С.Р., “Макроэкономика” Учебник.-2-е издание.- М: Дело, 2002, -472 с.

5. Andrew B. Abel, Ben S. Bernanke “Macroeconomics” Addison-Wesley Publishing Company, Inc. 1998.
6. Roger LeRoy Miller, David Van Hoose. “Macroeconomics: Theories, Policies, and International Applications” 2<sup>nd</sup> edition. South- Western Collage Publishing. 2001

#### **VI. Darsning borishi:**

1. Talabalar bilan salomlashiladi, talabalar davomati tekshiriladi.
2. Talabalarga ushbu mavzu bo'yicha to'planishi lozim bo'lgan reyting ballari va reyting xaritasi tushuntiriladi.
3. Amaliy mashg'ulot uchun berilgan masalalar bajariladi.
4. Talabalar bilan ma'ruzada mavzuning nihoyasiga yetmay qolgan qismi yuzasidan muhokama olib borish.
5. Mustaqil topshiriqlar bajarish va baholash.
6. Talabalar uyda bajarish lozim bo'lgan topshiriqlarni bajarish.

#### **VII. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:**

##### *7.1. Test topshiriqlari.*

1. **Quyidagi ko'rsatkichlardan qaysi biri mamlakatning makroiqtisodiy ahvolini ifodalaydi?**
  - a) Milliy daromad
  - b) 1 t metallning narxi
  - c) Respublikada ekin maydonlarining hajmi
  - d) Sof daromad
2. **Quyidagi ko'rsatgichlar asosida milliy daromadni aniqlang: yalpi milliy mahsulot-500, amortizasiya-54, biznesga egri soliqlar –36:**
  - a) 554
  - b) 446
  - c) 590
  - d) 410
3. **Agarda bozor savatining bahosi 2005 yilda 50, 2006 yilda esa 60 ga teng bo'lgan bo'lsa, 2006 yilda YaIM deflyatori nimaga teng bo'ladi?**
  - a) 120%
  - b) 83%
  - c) 50%
  - d) 65%
4. **Agar joriy yilda aholining nominal daromadlari o'tgan yildagiga nisbatan 60% ko'paygan bo'lsa, narxlar darajasi esa 40% oshgan bo'lsa, unda real daromadlar qanday o'zgargan?**
  - a) O'zgarishsiz qolgan
  - b) 20% ga kamaygan
  - c) 20% ga ko'paygan
  - d) 30% ga ko'paygan

##### *7.2. Amaliy topshiriqlar.*

### **1 –Topshiriq.**

*Iqtisodiyotda quyidagilar ma'lumotlar berilgan:*

1. YaMM	1000
2. Davlat haridlari	200
3. Davlat defisiti	50
4. Milliy jamg'arish	200
5. Investisiya	150
6. Xorijdan olingan sof omilli to'lovlar	25

*Davlat investisiyasini 0 ga teng deb olib quyidagilarni toping.*

*A. Iste'mol.*

*B. Hususiy jamg'arish.*

*C. Ixtiyordagi daromad.*

*D. YaIM.*

*E. Sof eksport.*

### **2 –Topshiriq.**

*Quyidagi iqtisodiy muomalalarning har biri joriy yilning YaIMda hisobga olinadi.*

*Ularning har birini ishlab chiqarish, daromadlar va harajatlar usulidan qaysi biriga tegishligini ko'rsating.*

*A. 1–yanvarda siz 10 l. benzinni har bir litrini 1150 so'mdan sotib oldingiz. AYoQSh o'tgan haftada transport harajatlari bilan qo'shib hisoblaganda 1 litr benzinni 1000 so'mdan sotib olgan.*

*B. Nestle kompaniyasi Sunday kompaniyasidan 500 million so'm miqdordagi eski yuni sotib oldi. Brokerlik to'lovi 6%.*

*C. Uy bekasi yiliga 2.000.000 so'm ish haqi to'lanadigan ishga joylashdi. Uy bekasi professional enagaga yil oxirida 700.000 so'm to'laydi.*

*D. Yaponlar Samarqandda 1000.000 dollarlik qiymatdagi avtomobil korxonasini qurdi. Bunda faqatgina mahalliy ishchi kuchi va materiallardan foydalandi.(Yaponlar tayyor binoni sotib olgan.)*

*E. Siz 300.000.000 so'm miqdorda lottoreyada yutdingiz. Pulni birdaniga oladigan bo'ldingiz.*

### **3-Topshiriq.**

*1990–1994 yillarda har bir yil uchun inflyasiya darajasini iste'mol narxlari indeksi bo'yicha hisoblang.*

Yillar	1990–yil	1991–yil	1992–yil	1993–yil	1994–yil
Iste'mol narxlar indeksi	51,3	50	45,6	40,9	38,8

Inflyasiya darajasi =?

#### **4-Topshiriq.**

*Iqtisodiyotda 2006–yil 1–yanvar holati bo'yicha YaIM deflyatori 200 ga teng. Ushbu deflyator o'sib 2008–yil 1–yanvar holatiga 242 ga va 1999–yil 1–yanvar holatiga 266.2 ga teng bo'ldi.*

*A. 2008 yil 1–yanvar bilan 2006 yil 1–yanvar oralig'ida yillik inflyasiya darajasi qanchaga teng bo'lgan?*

*B. 2009 va 2006 yillar oralig'ida yillik inflyasiya darajasi qanchaga teng bo'lgan?*

### **VIII. Qisqacha xulosalar.**

Mamlakatning makroiqtisodiy holati ko'rsatkichlar tizimi orqali baholanadi.

Makroiqtisodiy tahlilda YaIM, YaMD, SIM, SMD, ShD, ShTD, YaMTD, INI, YaIM deflyatori kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

YaIM-mamlakat rezidentlari tomonidan ma'lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlar bozor baholarininng umumiy yig'indisidan iborat.

YaIMni hisoblashning ishlab chiqarish, yakuniy iste'mol va taqsimot usulari mavjud bo'lib, ulardan dastlabki ikki turi keng qo'llaniladi.

YaIMni xarajatlar ko'rinishida to'rt guruhdagi xarajatlar-iste'mol, investisiya, davlat xaridi va sof eksport xarajatlari yig'indisi orqali hisoblanadi.

Makroiqtisodiy tahlilda YaIM ko'rsatkichi bilan birga YaMD ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. YaMD-mamlakat rezidentlari tomonidan, mamlakatda va mamlakat tashqarisida, ishlab chiqarishda ishtirok etish va mulkdan olgan boshlang'ich daromadlari yig'indisidir.

### **IX. Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilish uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlardan qaysilari makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi?
2. Qo'shilgan qiymat, yakuniy mahsulot, oraliq mahsulot ko'rsatkichlarini tavsiflab bering.
3. Nima uchun YaIM ko'rsatkichini qayta hisoblashdan ehtiyot bo'lish zarur va bunga qanday erishiladi?
4. YaIMni xarajatlar bo'yicha hisoblashda qo'llaniladigan komponentlar tarkibini sanab o'ting.
5. O'zbekiston Respublikasida YaIMning ishlab chiqarish strukturasi tahliliy sharh bering.

6. YaMD ko'rsatkichi qanday hisoblanadi va YaIM ko'rsatkichidan nimasi bilan farq qiladi?
7. ShD, ShTD, YaMTD ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik va farqlar nimada?
8. Baholar indekslarini va real YaIM ni hisoblash zaruratini asoslab bering?
9. YaIM deflyatori va iste'mol narxlari indeksi ko'rsatkichlarining farqlarini izohlang.

**X. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishini nazorat qilish va yo`l-yo`riqlar berish.**

**XI. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.**

**XII. Savol-javoblar.**

**XIII. Uyga vazifa.**

- 13.1. O`tilgan mavzuni o`qib chiqish.
- 13.2. Berilgan topshiriqlarni bajarish.
- 13.3. Kelgusi mavzuga tayyorgarlik ko`rish.

**4–MAVZU: INFLYASIYA VA AKSILINFLYASIYA SIYOSATI**

**I. Darsning maqsadi:** inflyasiyaning mohiyatini, hisoblanishini, turlarini, sabablarini, inflyasion soliq, harajatlar inflyasiyasini o`rganish.

**II. Darsning rejasi:**

1. Inflyasiya: mohiyati, hisoblanishi, turlari va sur'ati.
2. Inflyasiyaning sabablari, pulning miqdoriy nazariyasi.
3. Pul massasining ko'payishi va pulning aylanish tezligi ortishi.
4. Inflyasion soliq.
5. Xarajatlar inflyasiyasi:mohiyati va modeli.
6. Kutilgan va kutilmagan inflyasiya.
7. Inflyasiyaning ijtimoiy oqibatlarini.
8. Inflyasiya va ishsizlik. Fillips egri chizig'i.

**III. Identiv o'quv maqsadlari:** inflyasiyaning mohiyati va iqtisodiyotga ta'sirini o`rganish.

**IV. Kerakli jixoz, material va vositalar:** kodoskop, proektor, kompyuter, kalkulyator.

**V. Darsning ta`minoti:**

1. Каримов И.А. “Бизнинг бош мақсадимиз–жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир” // Халқ сўзи, 2005 й.- 29 январь.
2. Каримов И. А. “Ўзбекистон иқтисодий ислохатларни чуқурлаштириш йўлида”. Т.: “Ўзбекистон”, 1995., 269 б.
3. Ишмухамедов А.Э.,Чепель С.В., Шибаршова Л.И. Сборник кейсов по дисциплинам “Макроэкономика и микроэкономика”. Т., 2005., 139 б.
4. Ишмухаммедов А.Э. Асқарова М.Т.”Ўзбекистоннинг миллий иқтисодиёти” Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмасининг Адабиёт жамғармаси нашриёти., 2004., 225 б.
5. Ивановский С.Р., “Макроэкономика” Учебник.-2-е издание.- М: Дело, 2002, -472 с.
6. Andrew B. Abel, Ben S. Bernanke “Macroeconomics” Addison-Wesley Publishing Company, Inc. 1998.
7. Roger LeRoy Miller, David Van Hoose. “Macroeconomics: Theories, Policies, and International Applications” 2<sup>nd</sup> edition. South-Western Collage Publishing. 2001

**VI. Darsning borishi:**

1. Talabalar bilan salomlashiladi, talabalar davomati tekshiriladi.
2. Talabalarga ushbu mavzu bo'yicha to'planishi lozim bo'lgan reyting ballari va reyting xaritasi tushuntiriladi.
3. Amaliy mashg'ulot uchun berilgan masalalar bajariladi.
4. Talabalar bilan ma`ruzada mavzuning nihoyasiga yetmay qolgan qismi yuzasidan muhokama olib borish.
5. Mustaqil topshiriqlar bajarish va baholash.
6. Talabalar uyda bajarish lozim bo'lgan topshiriqlarni bajarish.
7. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.

**VII. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:**

**7.2. Test topshiriqlari.**

1. Nominal foiz stavka 20% ga teng, inflyasiya darajasi yiliga 15% ga teng bo'lganda real foiz stavka nimaga teng bo'ladi?
  - a) 5%

- b) 35 %
- c) 55 %
- d) 65%

**2. Giperinflyasiya nima?**

- a) Bahoning shiddat bilan pasayishi va pul qadrining pul topishga intilishning g'oyat tez o'zgarishi bilan xarakterlanadi
- b) Bahoning shiddat bilan o'sishi, pul qadrining g'oyat tez pasayishi va pul topishga intilishning minimal darajaga kelishi bilan xarakterlanadi
- c) Bahoning shiddat bilan o'zgarishi, talab va taklifning mos kelmasligi bilan xarakterlanadi
- d) Pul qadrining keskin oshib ketishidir

**3. Ishlab chiqarish funksiyasi deganda nimani tushunasiz?**

- a) Mexnat resurslaridan samarali foydalanishni
- b) Ishlab chiqarish omillarining i/ch texnologiyasi va oxirgi natija bilan bog'likligini
- c) Kapital va ish kuchi munosabatini aks ettiruvchi funksiya
- d) Ishlab chiqarish omillarining o'zaro bog'liqligini

**4. Inflyasiya – bu:**

- a) Bu – tovar va xizmatlar narxining ko'tarilishi
- b) Bu- narx tushishidir
- c) Ishga yaroqli aholining ish topa olmasligidir
- d) Mamlakat eksporti importdan oshiqcha bo'lishidir

**7.2. Amaliy topshiriqlar.**

**1-Topshiriq.**

Uzoq davrda iqtisodiyot muvozanatida yillik inflyasiya darajasi,  $\pi$ , 12% (0,12) va tabiiy ishsizlik darajasi,  $\bar{u}$ , 6% (0.06). kutilgan–kuchaytirilgan Fillips egri chizig'i

$$\pi = \pi^e - 2(u - \bar{u})$$

Ouken qonuniga muvofiq yillik ishsizlikning 1% ga oshishi mamlakatda to'la bandlik sharoitidagi YaIM ni 2,5 % ga kamaytiradi.

**A.** Faraz qilaylik mamlakatda 2 yil davomida inflyasiya darajasi pasaydi. Birinchi yilda  $\pi = 0,04$  va  $\pi^e = 0,08$  Ikkinchi yilda  $\pi = 0,04$  va  $\pi^e = 0,04$ . Birinchi yilda ishsizlik darajasi nimaga teng bo'lgan? To'la bandlik sharoitidagi ishlab chiqarish qanchaga pasaygan. Ikkinchi yilda ishsizlik darajasi nimaga teng va to'la bandlik sharoitidagi ishlab chiqarish qanchaga kamaygan?

**B.** To'rt yil davomida inflyasiya pasayishi quyidagicha bo'lgan:



Yil	1	2	3	4
$\pi$	0,08	0,04	0,04	0,04
$\pi^e$	0,10	0,08	0,06	0,04

To'rt yil davomida xar bir yil uchun ishsizlik darajasi qanday bo'lgan? Xar bir yilda to'la bandlik sharoitidagi ishlab chiqarish qanchaga pasaygan?

## 2-Topshiriq.

**Klassik iqtisodiyotda quyidagilar kutilishini ko'rib chiqing:**

**AD**

$$Y=300+10(M/P)$$

**SRAS**

$$Y=\bar{Y}+P-P^e$$

**Ouken qonuni**

$$(Y-\bar{Y})/\bar{Y}=-2.5(u-\bar{u})$$

**To'la bandlik sharoitida ishlab chiqarish**

$$\bar{Y}=500$$

**Haqiqiy ishsizlik darajasi**

$$\bar{u}=0.06$$

**A. Faraz qilaylik pul taklifi  $M=1000$  va kutilgan narx darajasi  $P^e=50$ . Qisqa davrda ishlab chiqarishning, narx darajasining va ishsizlik darajasining muvozanat qiymati nimaga teng?**

**B. Endi faraz qilaylik inflyasiyaga qarshi siyosat olib borildi. Nominal pul taklifi  $M=1260$  bo'ldi. Qisqa davrda ishlab chiqarishning, narx darajasining va ishsizlik darajalarining muvozanat qiymati nimaga teng?**

## VIII. Qisqacha xulosalar.

Inflyasiya ma'lum davr mobaynida mamlakatda baholar o'rtacha (umumiy) darajasining barqaror o'sishi va pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishini anglatadi. Inflyasiyaning iqtisodiyotga salbiy ta'siri normal iqtisodiy munosabatlarni izdan chiqarishida namoyon bo'ladi.

Inflyasiya darajasi baho indeksleri vositasida o'lchanadi.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra talab inflyasiyasi va taklif inflyasiyasi o'zaro farqlanadi. Inflyasiyaning bu ikki turi ko'pincha aralash holda yuzaga keladi. Kutilmagan inflyasiya daromadlarni debitorlar va kreditorlar, aholining turli qatlamlari hamda davlat va aholi o'rtasida qayta taqsimlaydi.

Ishsizlik va inflyasiya sur'atlari o'rtasidagi teskari bog'liqlik Fillips egri chizig'ida aks etadi.

Hukumat Fillips egri chizig'iga asoslanib qisqa davr uchun ishsizlik va inflyasiya darajalarining istalgan kombinasiyasini tanlashi mumkin.

## IX. Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Ouken qonuning mohiyatini tushuntirib bering.

2. Inflyasiyaning mohiyati faqatgina muomaladagi pul massasining ortiqchaligi bilan izohlanishi to'g'rimi?
3. Inflyasiyani tushuntirib berishga keynchilarning va neoklassiklarning yondoshuvlari qanday farq qiladi?
4. Inflyasiyaning ijtimoiy–iqtisodiy oqibatlari qanday?
5. Talab inflyasiyasi qanday sodir bo'ladi?
6. Taklif inflyasiyasiga izoh bering?
7. Fillips egri chizig'i qaysi ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi? Bu bog'liqlik qanday tavsiflanadi?

**X. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishini nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.**

**XI. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.**

**XII. Savol-javoblar.**

**XIII. Uyga vazifa.**

- 13.1. O'tilgan mavzuni o'qib chiqish.
- 13.2. Berilgan topshiriqlarni bajarish.
- 13.3. Kelgusi mavzuga tayyorgarlik ko'rish.

**5–MAVZU: YALPI TALAB-YALPI TAKLIF MODEL.**

**I. Darsning maqsadi:** jami talab va uni belgilovchi omillarni, jami taklif va uni belgilovchi omillarni, talab va taklif shoklarini, AD va AS egri chiziqlarini o'rganish.

**II. Darsning rejasi:**

1. Yalpi talab tushunchasi. AD egri chizig'i. AD egri chizig'i traektoriyasi.
2. Pulning miqdoriy nazariyasi.
3. Baholar darajasi va yalpi talab o'rtasidagi teskari bog'liqlik.
4. Yalpi taklif tushunchasi va egri chizig'i. Yalpi taklifdagi o'zgarishlar. AS egri chizig'i.
5. Ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi. Umumiy muvozanat tushunchasi.
6. Talab va taklif shoklari.
7. Pul taklifi va davlat xarajatlarining o'zgartirilishi.

**III. Identiv o'quv maqsadlari:** Jami talab va jami taklif modellarini o'rganish.

**IV. Kerakli jixoz, material va vositalar:** kodoskop, proektor, kompyuter, kalkulyator.

**V. Darsning ta'minoti:**

1. Каримов И.А. “Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий барқарорлик тўғрисида”.–Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2005., 528 б.
2. Каримов И. А. “Ўзбекистон иқтисодий ислохатларни чуқурлаштириш йўлида”. Т.: “Ўзбекистон”, 1995., 269 б.
3. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. “Макроэкономика”: Учебник.- 7-е изд. М.: “Дело и Сервис”, 2005., 464 с.
4. Ишмухаммедов А.Э. Асқарова М.Т.”Ўзбекистоннинг миллий иқтисодиёти» Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмасининг Адабиёт жамғармаси нашриёти., 2004., 225 б.
5. Ивановский С.Р., “Макроэкономика” Учебник.-2-е издание.- М: Дело, 2002, -472 с.
6. Andrew B. Abel, Ben S. Bernanke “Macroeconomics” Addison-Wesley Publishing Company, Inc. 1998.
7. Roger LeRoy Miller, David Van Hoose. “Macroeconomics: Theories, Policies, and International Applications” 2<sup>nd</sup> edition. South-Western Collage Publishing. 2001

**VI. Darsning borishi:**

1. Talabalar bilan salomlashiladi, talabalar davomati tekshiriladi.
2. Talabalarga ushbu mavzu bo'yicha to'planishi lozim bo'lgan reyting ballari va reyting xaritasi tushuntiriladi.
3. Amaliy mashg'ulot uchun berilgan masalalar bajariladi.
4. Talabalar bilan ma`ruzada mavzuning nihoyasiga yetmay qolgan qismi yuzasidan muhokama olib borish.
5. Mustaqil topshiriqlar bajarish va baholash.
6. Talabalar uyda bajarish lozim bo'lgan topshiriqlarni bajarish.
7. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.

**VII. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:**

## 7.2. Teast topshiriqlari.

### 1. Jami talab va jami taklif modeli nimani ifodalaydi?

- a) Taklif ortishini
- b) Taklif talab muvozanatini
- c) Ishlab chiqarish va narx darajasiga mos ravishda jami taklif va jami talab muvozanatini
- d) Talab ortishi va taklif kamayishini

### 2. Istemol xarajatlari deganda:

- a) Bu yangi kapital tovarlarni yaratish uchun sarflangan o`zgarmas va korxonalar ixtiyorida zaxiralar investisiyasidan tashkil topadi
- b) Aholi daromadidir
- c) Kunlik xarajatlar
- d) Mamlakat rezidentlari tomonidan mamlakat ichkarisida va tashkarisida ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlarni sotib olish xarajatlari

### 3. Ishlab chiqarish funksiyasining o`ziga xos 2 xususiyati:

- a) To`g`ri chiziq va egiluvchan
- b) Ishlab chiqarish funksiyasi chapdan o`ngga qarab o`sib boradi va chapdan o`ngga nisbatan yassi bo`lib boradi.
- c) Parabolik va o`suvchi
- d) Kamayuvchi va egiluvchan

### 4. Quyidagi fikrlardan qaysi biri to`g`ri?

- a) Pulga bo`lgan umumiy talab foiz stavkasiga nisbatan teskari bog`liqlikka ega
- b) Pulga bo`lgan umumiy talab foiz stavkasiga bog`liq emas
- c) Pulga bo`lgan umumiy talab narx darajasiga to`g`ri proporsional
- d) Pulga bo`lgan umumiy talab foiz stavkasi miqdoriga to`g`ridan to`g`ri bog`liq

## 7.2. Amaliy topshiriqlar.

### 1 –Topshiriq.

Iqtisodiyotda AD va AS egri chiziqlari quyidagicha berilgan.

AD egri chizig`i

$$Y = 300 + 30 * (M / P)$$

AS egri chizig`i

$$Y = \bar{Y} + 10 * (P - P^e)$$

Bu erda

$$\bar{Y} = 500 \text{ va } M = 400.$$

A. Faraz qilaylik  $P^e = 60$ . Ishlab chiqarish, narx darajasi muvozanat qiymatlari nimaga teng.

B. Kutilmaganda pul taklifi o'sib,  $M=700$  ga teng bo'ldi. Kutilmagan holat bo'lgani uchun  $P^e = 60$ . holicha qoldi. Ishlab chiqarish va narx darajasining muvozanat nuqtalari nimaga teng?

## 2-Topshiriq.

Klassik iqtisodiyotda quyidagilar berilgan:

AD

$$Y = 400 + 5 * (M / P)$$

SRAS

$$Y = \bar{Y} + 40 * (P - P^e)$$

Ouken qonuni

$$(Y - \bar{Y}) / \bar{Y} = 2.5 * (u - \bar{u})$$

To'la bandlik sharoitida

$$\bar{Y} = 800$$

ishlab chiqarish

Ishsizlikning tabiiy

$$\bar{u} = 0.08$$

darajasi

A. Faraz qilaylik nominal pul taklifi  $M=2000$  da o'zgarmas bo'lgan va kelgusida ham o'zgarmasdan qoladi. Narx darajasining muvozanat holatini ( $P$ ), kutilgan narx darajasini ( $P^e$ ), ishlab chiqarishni ( $Y$ ) va ishsizlik darajasini ( $u$ ) toping.

B. Faraz qilaylik nominal pul taklifi  $M=2140$  ga etdi. Qisqa davrda narx darajasining muvozanat holatini ( $P$ ), kutilgan narx darajasini ( $P^e$ ), ishlab chiqarishni ( $Y$ ) va ishsizlik darajasini ( $u$ ) toping. Siklik ishsizlik bilan kutilmagan inflyasiya qiymatlari nimaga teng.

C. Fillips egri chizig'ini chizing.

## VIII. Qisqacha xulosalar.

AD-AS modeli umumiy makroiqtisodiy muvozanat modeli bo'lib milliy bozorni qisqa va uzoq muddatga tahlil qilish imkonini beradi. AD-AS modeli iqtisodiy tebranishlarni tahlil qilish va baholash uchun asos yaratadi.

Yalpi talab–uy xo'jaliklari, korxonalar, hukumat va chet ellik xaridorlarning baholarning ma'lum darajasida iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmiga bo'lgan talabidir.

Baholar darajasi va talab qilingan milliy mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ifoda etuvchi chiziq yalpi talab egri chizig'i deb ataladi AD egri chizig'i traektoriyasini pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi bilan hamda baho omillari bo'lgan foiz stavkasi samarasi, boylik samarasi va import xaridlari samarasi bilan izohlash mumkin. Bahodan boshqa omillar ta'sirida AD egri chizig'i o'ngga yoki chapga siljiydi.

AS egri chizig'i keyns, oraliq va klassik kesmalarni o'z ichiga oladi. Uzoq muddatli davrlarda AS egri chizig'i vertikal, qisqa muddatga esa gorizantal bo'ladi. Shuning uchun AD dagi o'zgarishlar ishlab chiqarish hajmi, bandlik hamda baholar darajasiga bu kesmalarda turlicha ta'sir ko'rsatadi. Yalpi talab va yalpi taklif hajmlari o'zaro mos kelgan, ya'ni AD va AS egri chiziqlari kesishgan nuqta makroiqtisodiy muvozanat nuqtasi, unga mos keluvchi baholar darajasi baholarning muvozanatli darajasi deb aytiladi.

AS egri chizig'i ishlab chiqarishga jalb qilingan resurslar hajmi ko'payishi hamda yangi texnologiyalarning kiritilishi hisobiga o'ngga siljiydi. Bu holat iqtisodiy o'sish deb ataladi. AS egri chizig'ining chapga siljishi stagflyasiyadan dalolat beradi.

### **IX. Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Yalpi talabga va uning komponentlarini ta'rif bering.
2. Yalpi talab egri chizig'i quyiga egilgan traektoriyaga ega bo'lishi sababi nimada?
3. Yalpi talabning boshqa omillariga va ularning AD egri chizig'iga ta'siriga izoh bering.
4. Yalpi taklif egri chizig'i shakli qaysi sabablarga ko'ra murakkab ko'rinishga ega?
5. AD-AS modelidagi makroiqtisodiy muvozanat holatini va uning shartlarini tushuntiring.
6. Yalpi talab o'zgarishi modeldagi muvozanat holatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

### **X. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishini nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.**

### **XI. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.**

### **XII. Savol-javoblar.**

### **XIII. Uyga vazifa.**

## **6-MAVZU: ISTE'MOL, JAMG'ARISH VA INVESTISIYA FUNKSIYALARI.**

**I. Darsning maqsadi:** iste'mol, jamg'arish va investisiyaning ahamiyati, masalalari, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'rni va tarkibini o'rganish.

## **II. Darsning rejası:**

1. Iste'mol funksiyasining algebraik va grafik ko'rinishi.
2. Jamg'arish funksiyasi va grafigi. Xususiyl, davlat va tashqi dunyo jamg'armalari
3. Iste'molga(ARS) va jamg'arishga o'rtacha moyillik(APS). Iste'molga(MRS) hamda jamg'arishga(MPS) chegaraviy moyillik.
4. "Hayot sikli" konsepsiyasi.
5. Investisiya tovarlarining yalpi talabdagi o'rni. Avtonom investisiyalar.
6. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi.
7. *Bozor mexanizmi tomonidan yalpi talab va yalpi taklif muvozanati ta'minlanishining doimiy emasligi.*

**III. Identiv o'quv maqsadlari:** iset'mol, jamg'arish va investisiya tushunchalari haqida talabalarda ko'nikma hosil qilish.

**IV. Kerakli jixoz, material va vositalar:** kodoskop, proektor, kompyuter, kalkulyator.

## **V. Darsning ta'minoti:**

1. Каримов И.А. "Бизнинг бош мақсадимиз –жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишидир" // Халқ сўзи, 2005 й.- 29 январь.
2. Каримов И.А. "Банк тизими, пул муомаласи, кредит, нвестиция ва молиявий барқарорлик тўғрисида".–Т.:“Ўзбекистон” НМИУ,2005., 528 б.
3. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. "Макроэкономика": Учебник.- 7-е изд. М.: "Дело и Сервис", 2005., 464 с.
4. Ишмухаммедов А.Э. Асқарова М.Т."Ўзбекистоннинг миллий иқтисодиёти" Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмасининг Адабиёт жамғармаси нашриёти., 2004., 225 б.
5. Andrew B. Abel, Ben S. Bernanke "Macroeconomics" Addison-Wesley Publishing Company, Inc. 1998.
6. Roger LeRoy Miller, David Van Hoose. "Macroeconomics: Theories, Policies, and International Applications" 2<sup>nd</sup> edition. South-Western Collage Publishing. 2001

## **VI. Darsning borishi:**

1. Talabalar bilan salomlashiladi, talabalar davomati tekshiriladi.
2. Talabalarga ushbu mavzu bo'yicha to'planishi lozim bo'lgan reyting ballari va reyting xaritasi tushuntiriladi.
3. Amaliy mashg'ulot uchun berilgan masalalar bajariladi.
4. Talabalar bilan ma'ruzada mavzuning nihoyasiga yetmay qolgan qismi yuzasidan muhokama olib borish.
5. Mustaqil topshiriqlar bajarish va baholash.
6. Talabalar uyda bajarish lozim bo'lgan topshiriqlarni bajarish.
7. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.

## **VII. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:**

### ***7.1. Test topshiriqlari.***

**1. Faraz qilaylik mamlakatda daromad o'tgan yilga nisbatan 100 birlikka o'sgan va bu iste'molni 75 birlikka o'zgarishga olib kelgan. Unda iste'molga bo'lgan chegaraviy moyillik va jamg'arishga bo'lgan moyillik nimaga teng bo'ladi?**

- a) 65 % va 35%
- b) 33.3% va 66%
- c) 75% va 25%
- d) 175% va 75%

**2. Istemol xarajatlari deganda:**

- a) Kunlik xarajatlar
- b) Mamlakat rezidentlari tomonidan mamlakat ichkarisida va tashqarisida ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlarni sotib olish xarajatlari hisoblanadi
- c) Bu yangi kapital tovarlarni yaratish uchun sarflangan o'zgarmas va korxonalar ixtiyoridagi zaxiralar investisiyasidan tashkil topadi
- d) Aholi daromadidir

**3. Investisiya xarajatlari:**

- a) Bu yangi kapital tovarlarni yaratish uchun sarflangan o'zgarmas kapital va korxonalar ixtiyoridagi zaxiralar investisiyasidan tashkil topadi
- b) Mamlakat rezidentlari tomonidan mamlakat ichkarisida va tashkarisida ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlarni sotib olish xarajatlari hisoblanadi
- c) Amortizasiya xarajatlari
- d) Ish xaqi xarajatlari

**4. Jamg'arish turlari:**

- a) Xorijiy
- b) Xususiy
- c) Milliy, davlat, xususiy va qolgan dunyo jamg'arishi
- d) Davlat



## 7.2. Amaliy topshiriqlar.

### 1-Topshiriq.

Iste'molchi joriy va kelgusi yillar uchun jamg'arish rejasini tuzmoqda. U biladiki, uning soliqlar to'langandan keyingi real daromadi har ikkala yil uchun ham 50.000 dollarni tashkil etadi. Joriy yilda uning daromadidan jamarilgan qismi shu va kelgusi yillar orasida qo'shimcha 10% daromad keltiradi. Hozirda iste'molchining hech qanday boyligi yo'q(aktivlari ham, qarzi ham). Iste'molchi xohlaydiki joriy yilda u kelgusi yildagi o'qishi uchun ham 12600 dollar pul jamg'arishi kerak. Joriy va kelgusi yil iste'moli o'zgarmaydi. Kelgusi yilning iste'moliga o'qish uchun to'lovlar haqi kirmaydi. Iste'molchining kelgusi yil oxiriga qarzi ham aktivi ham qolmaydi.

- A. Iste'molchi joriy yilda qancha jamg'arishi va iste'mol qilishi kerak?
- B. Uning daromadi 50.000 dan 54200 ga etdi.
- C. Kelgusi yilda olish mumkin bo'lgan daromadi 50.00 dan 54200 ga etdi.
- D. Joriy yilda u 1050 dollar miqdorda merosga ega bo'ldi.
- E. Uning kutgan o'qish uchun pul to'lovi 12600 dan 14700 ga etdi.
- F. Real foiz stavkasi 10 % dan 25 % ga etdi.

### 2-Topshiriq.

Korxonaning kutilgan kelgusidagi marjinal kapitali funksiyasi quyidagicha berilgan:

$$MPK^f = 1000 - 2 * k$$

bu erda  $MPK^f$  -kelgusidagi marjinal kapital va  $k$  kapital mablag'lari, kapitalning narxi  $P_k = 1000$ , real foiz stavkasi  $r = 10\%$  va amortizasiya darajasi  $d = 15\%$ .

- A. Kapital ishlatish xarajati nimaga teng( $UC = (r + d) * P_k$ )?

**B.** Korxonaning ehtiyojdagi kapital mablag'lari qiymati qanchaga teng? Korxonaning ehtiyojdagi kapital mablag'lari kutilgan kelgusidagi marjinal kapitaliga teng ( $UC = MPK^t$ ).

**C.** Faraz qilaylik korxonaga o'zining tushumidan 50% soliq to'layapti. Ehtiyojdagi

kapital mablag'lari qiymati nimaga teng ( $MPK^t = \frac{(r+d)}{1-\tau}$ )?

### **3-Topshiriq.**

Iqtisodiyotda to'la bandlik sharoitida ishlab chiqarish 9000 ga, davlat xaridlari 2000 ga teng. Ehtiyojdagi iste'mol va ehtiyojdagi investisiya quyidagicha berilgan:

Real foiz stavkasi, % ( $r$ )	Ehtiyojdagi iste'mol, ( $C^d$ )	Ehtiyojdagi investisiya, ( $I^d$ )
2	6100	1500
3	6000	1400
4	5900	1300
5	5800	1200
6	5700	1100

**A.** Nima uchun ehtiyojdagi iste'mol va ehtiyojdagi investisiya real foiz stavkasi o'sishi bilan pasaygan?

**B.** Real foiz stavkasining har bir darajasida ehtiyojdagi milliy jamg'arishni hisoblang.

**C.** Agar tovarlar bozori muvozanatda bo'lsa, real foiz stavkasi ehtiyojdagi milliy jamg'arish va ehtiyojdagi investisiya qanday qiymatlarda bo'ladi? Buni tovarlar bozori muvozanati holatlari shaklida ko'rsating.

**D.** B va C shartlarni davlat xaridlari 1600 ga teng bo'lganda hisoblang.

### **VIII. Qisqacha xulosalar.**

Iste'mol xarajatlarini YaIMning eng yirik komponenti bo'lib, uning hajmini avvalo uy xo'jaliklarining tasarrufidagi daromadi belgilaydi. Aholining daromadlari miqdori oshib borishi bilan undagi jamg'armalar ulushi ham oshib boradi.

Iste'mol va jamg'arish hajmi, shuningdek iste'molchilar boyliklari darajasiga, narx va soliq o'zgarishlari, iste'molchilarning qarzi darajasiga va boshqa omillarga bog'liq.

Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik aholi daromadlarining qancha qismi iste'molga va qancha qismi jamg'armaga sarflanganligini xarakterlovchi ko'rsatkichlardir.

Iste'molga chegaraviy moyillik(MRS) iste'moldagi o'zgarishlarni ixtiyordagi daromad darajasidagi o'zgarishga bo'lib topiladi. MRS ning katta yoki kichikligi fiskal siyosat samaradorligini belgilovchi omillardan biridir.

Investisiya yoki kapital qo'yilmalar hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan mablag' hisoblanadi. Investisiya xarajatlari dinamikasi, foiz stavkasi, kutilayotgan sof foyda normasi va boshqa bir qancha omillarga bog'liq.

Investisiya hajmining YaMM hajmiga bog'liqligini xarakterlovchi model-akselerator modeli deyiladi.

### **IX. Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Daromad, iste'mol va jamg'armalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka izoh bering?
2. Avtonom iste'mol kategoriyasining mohiyatini tushuntirib bering.
3. Iste'mol va jamg'arish grafiklarini izohlang.
4. Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha va chegaraviy moyillik ko'rsatkichlarini izohlab bering?
5. Qaysi mablag'larni investisiya tarkibiga kiritamiz?
6. Akselerator modelini tushuntirib bering.
7. Kutilayotgan sof foyda normasi o'zgarishi qaysi sabablarga ko'ra ro'y beradi va u investisiya hajmiga qanday ta'sir ko'rsatadi.

### **X. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishini nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.**

### **XI. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.**

### **XII. Savol-javoblar.**

### **XIII. Uyga vazifa.**

## **9–MAVZU: BYUDJET-SOLIQ SIYOSATI**

**I. Darsning maqsadi:** Davlat byudjeti, uning funksiyalari, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, byudjet–solliq siyosati olib borishdan maqsad, soliqlar, turlari, solliqqa tortish mezonlari, davlat qarzi, solliq yuki tushunchalarini o'rganish .

### **II. Darsning rejasi:**

1. Byudjet-solliq(fiskal) siyosati: mohiyati, maqsadlari, vositalari. Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosat. Avtomatik stabilizatorlar. Progressiv solliq tizimi.
2. Davlat qarzi. Ichki va tashqi qarz. Davlat qarzi o'sishining iqtisodiy oqibatlari.
3. Daromadlar miqdoridagi tengsizlik. Foiz stavkasining ko'tarilishi va mamlakat ishlab chiqarish potensialining pasayishi.
4. O'zbekiston Respublikasi fiskal siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

**III. Identiv o'quv maqsadlari:** Davlat byudjeti va soliqlar haqida talabalarda ko'nikma hosil qilish.

**IV. Kerakli jixoz, material va vositalar:** kodoskop, proektor, kompyuter, kalkulyator.

### **V. Darsning ta`minoti:**

1. Каримов И.А. “Банк тизими, пул муомаласи, кредит, инвестиция ва молиявий барқарорлик тўғрисида”.–Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2005., 528 б.
2. Каримов И. А. “Ўзбекистон иқтисодий ислохатларни чуқурлаштириш йўлида”. Т.: “Ўзбекистон”, 1995., 269 б.
3. Агапов Т.А. “Макроэкономика для преподавателей”: Учебно-методическое пособие.-М.: Дело и Сервис. , 2003., 128 с.

4. Ишмухамедов А.Э.,Чепель С.В., Шибаршова Л.И. Сборник кейсов по дисциплинам “Макроэкономика и микроэкономика”. Т., 2005., 139 б.
5. Ивановский С.Р., “Макроэкономика” Учебник.-2-е издание.- М: Дело, 2002, -472 с.
6. Andrew B. Abel, Ben S. Bernanke “Macroeconomics” Addison-Wesley Publishing Company, Inc. 1998.
7. Roger LeRoy Miller, David Van Hoose. “Macroeconomics: Theories, Policies, and International Applications” 2<sup>nd</sup> edition. South-Western Collage Publishing. 2001

## **VI. Darsning borishi:**

1. Talabalar bilan salomlashiladi, talabalar davomati tekshiriladi.
2. Talabalarga ushbu mavzu bo'yicha to'planishi lozim bo'lgan reyting ballari va reyting xaritasi tushuntiriladi.
3. Amaliy mashg'ulot uchun berilgan masalalar bajariladi.
4. Talabalar bilan ma'ruzada mavzuning nihoyasiga yetmay qolgan qismi yuzasidan muhokama olib borish.
5. Mustaqil topshiriqlar bajarish va baholash.
6. Talabalar uyda bajarish lozim bo'lgan topshiriqlarni bajarish.
7. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.

## **VII. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:**

### ***7.1. Test topshiriqlari.***

#### **1. Makroiqtisodiyot siyosat tiplari:**

- a) Fiskal va monetar
- b) Fiskal va byudjet
- c) Fiskal va ochiq siyosat
- d) Unitar va makrosiyosat

#### **2. Byudjet defisiti:**

- a) Xorijiy qarzlarni ortishi
- b) Ma'lum davrdagi yig'ilgan davlat qarzi
- c) Fiskal yildagi davlat xarajatlarining va soliq tushumlaridan ko'p bo'lishi
- d) Xazinaning kamayishi. Unitar va makrosiyosat

#### **3. Davlatning asosiy iqtisodiy vazifasi bo'lib hisoblanadi:**

- a) Ishchi kuchlarini to'liq bandligini ta'minlash
- b) Narxlar darajasini barqarorlashtirish va inflyasiyaning oldini olish, atrof-muhitni asrash, ishchi kuchlarini to'liq bandligini ta'minlash
- c) Aholini tashqi agressiyalardan himoyalash
- d) Inflyasiyaning oldini olish

#### **4. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish bu-**

- a) Buzilgan makroiqtisodiy muvozanatni tiklash

- b) Ishlab chiqarish hajmi va bandlikni tabiiy darajada tutib turish
- c) Inflyasiyani tiyish va moddiy pul munosibligini ta'minlash
- d) Makroiqtisodiy muvozanatni saqlash, ishlab chiqarish hajmi va bandlikni tabiiy darajada tutib turish, inflyasiyani tiyish va moddiy pul munosibligini ta'minlash

## **7.2. Amaliy topshiriqlar.**

### ***1-Topshiriq.***

Katta miqdordagi nominal dastlabki defisitni qarz-YaIM koeffisienti nisbatini oshirmasdan(o'zgartirmasdan) toping. Bunda quyidagicha faraz qilamiz.

**A.** Nominal YaIM o'sishi 10%, nominal foiz stavkasi 12% va tashqi nominal qarzlari –1000.

**B.** Nominal foiz to'lovlari-800, tashqi nominal qarzi –10000, inflyasiya darajasi 6 % va iqtisodiyotning real o'sish darajasi nolga teng.

## **VIII. Qisqacha xulosalar.**

Fiskal siyosat(byudjet-soliq siyosati) maqsadi iqtisodiy o'sish, baholarning barqaror darajasi, to'liq bandlik va to'lov balansi barqarorligini ta'minlashdan iborat. Bu maqsadlarga erishish uchun davlat xarajatlari va soliqlar bilan manipulyasiya qilinadi.

Fiskal siyosatni cheklovchi yoki rag'batlantiruvchi turlarga bo'linadi. Rag'batlantiruvchi fiskal siyosat iqtisodiyotning pasayish davrida olib borilsa, cheklovchi fiskal siyosat iqtisodiyotda haddan ziyod talab tufayli inflyasiya paydo bo'lgan sharoitda olib boriladi.

Fiskal siyosat tadbirlari qisqa va uzoq muddatda multiplikator samarasi ta'siri ostida bo'ladi.

Davlat xarajatlari multiplikatori iste'molga chegaralangan moyillik darajasi bilan to'g'ri bog'liqlikka, chegaraviy soliq stavkasi hamda iste'molga chegaralangan moyillik darajasi bilan teskari bog'liqlikka ega.

Davlat xarajatlari va soliqlar miqdorini bir xil miqdorga oshirilishi daraomadlar hajmini ham shuncha miqdorga oshirilishiga olib keladi. Bu holat balanslashgan byudjet multiplikatori bilan izohlanadi.

### **IX. Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosatning qisqa va uzoq muddatdagi natijalarini tushuntirib bering.
2. Davlat xarajatlarining multiplikatori kattaligi qaysi ko'rsatkichlarga bog'liq?
3. Ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari multiplikatori kattaligi fiskal siyosat samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Soliq multiplikatori miqdori qaysi omillarga bog'liq?
5. Balanslashgan byudjet multiplikatorining mohiyati nimada?
6. Diskret fiskal siyosatining kamchiliklarini tushuntirib bering.
7. Byudjet taqchilligi va ortiqchaligi qanday paydo bo'ladi, ular qay yo'sinda tugatiladi?
8. O'zbekiston Respublikasi byudjetg'soliq siyosatining asosiy xususiyatlarini izohlab bering.

### **X. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishini nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.**

### **XI. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.**

### **XII. Savol-javoblar.**

### **XIII. Uyga vazifa.**

- 13.1. O'tilgan mavzuni o'qib chiqish.
- 13.2. Berilgan topshiriqlarni bajarish.
- 13.3. Kelgusi mavzuga tayyorgarlik ko'rish.

## **14-MAVZU: XALQARO SAVDO NAZARIYASI.**

**I. Darsning maqsadi:** Talabalarda xalqaro savdoning mutlaq ustunlik, nisbiy ustunlik nazariyalari, ishlab chiqatish xarajatlari o'rtasidagi farqlar va tashqi savdo shartlari haqida bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

### **II. Darsning rejasi:**

1. Tashqi savdoning zarurligi. A. Smitning mutlaq ustunlik nazariyasi.
2. D.Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi.
3. Turli tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farq..
4. Ishlab chiqarish xarajatlari va o'rin almashtirish xarajatlari doimiylik shartlari. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chiziqlari.
5. Mamlakatda va boshqa davlatlardagi omillar o'rtasidagi nisbat darajasi.

6. Jahon bozorida talab va taklif. Savdo shartlari.

**III. Identiv o'quv maqsadlari:** mutloq va nisbiy ustunlik nazariyalari va ishlab chiqarishdagi ustunlikni chuqur o'rganib tahlil qilish.

**IV. Kerakli jixoz, material va vositalar:** kodoskop, proektor, kompyuter, kalkulyator.

**V. Darsning ta'minoti:**

1. Каримов И. А. «Ўзбекистон иқтисодий ислохатларни чуқурлаштириш йўлида». Т.: «Ўзбекистон», 1995., 269 б.
2. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. «Макроэкономика»: Учебник.- 7-е изд. М.: «Дело и Сервис», 2005., 464 с.
3. Ишмухаммедов А.Э. Асқарова М.Т.»Ўзбекистоннинг миллий иқтисодиёти» Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмасининг Адабиёт жамғармаси нашриёти., 2004., 225 б.
4. Andrew B. Abel, Ben S. Bernanke «Macroeconomics» Addison-Wesley Publishing Company, Inc. 1998.
5. Roger LeRoy Miller, David Van Hoose. «Macroeconomics: Theories, Policies, and International Applications» 2<sup>nd</sup> edition. South- Western Collage Publishing. 2001

**VI. Darsning borishi:**

1. Talabalar bilan salomlashiladi, talabalar davomati tekshiriladi.
2. Talabalarga ushbu mavzu bo'yicha to'planishi lozim bo'lgan reyting ballari va reyting xaritasi tushuntiriladi.
3. Amaliy mashg'ulot uchun berilgan masalalar bajariladi.
4. Talabalar bilan ma'ruzada mavzuning nihoyasiga yetmay qolgan qismi yuzasidan muhokama olib borish.
5. Mustaqil topshiriqlar bajarish va baholash.
6. Talabalar uyda bajarish lozim bo'lgan topshiriqlarni bajarish.
7. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.

**VII. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:**

*7.1. Test topshiriqlari.*

**1. Tovarlar bozori muvozanatda bo'ladi:**

- a) Talab oshganda
- b) Taklif kamayganda



- c) Ehtiyojdagi investisiya va ehtiyojdagi jamg'arish muvozanatda bo'lganda  
 d) Ehtiyojdagi iste'mol va jamg'arish muvozanatda bo'lganda
- 2. Mutlaq ustunlik nazariyasi muallifi:**
- a) A.Smit  
 b) J.Keyns  
 c) K.Marks  
 d) S.Fisher
- 3. Xeksher-Olin nazariyasiga ko'ra quyidagi qoida ilgari suriladi:**
- a) Xalqaro savdodagi usutunlikni  
 b) Ishlab chiqarish omillariga bog'liq holda narxlarning tenglashishini  
 c) Mamlakatlarni sanoatlashgan va agrar mamlakatlarga bo'linishini  
 d) Leontev paradoksini
- 4. Sof eksport nima:**
- a) Mamlakatda eksport miqdorining import miqdoriga nisbatidan iborat  
 b) Mamlakatda eksport qilingan mahsulotlar qiymati  
 c) Mamlakatdagi tovarlar eksport va importining yig'indisidan iborat  
 d) Mamlakatning eksport va import operatsiyalari o'rtasidagi farqi

## 7.2. Amaliy topshiriqlar.

### 1-Topshiriq.

Faraz qilaylik, dunyaoda faqat ikkita mamlakat va ikkita tovar mavjud. Ushbu mamlakatlar AQSh va O'zbekiston hamda tovarlar yengil avtomobil va yuk avtomobillari bo'lsin. Har bir mamlakat o'zida ikkala tovarni ishlab chiqarishi mumkin. Ushbu ishlab chiqarish imkoniyatlarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

AQSh			O'zbekiston		
Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i	Yengil avtomobil	Yuk avtomobili	Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i	Yengil avtomobil	Yuk avtomobili
A	90	0	A	60	0
B	60	10	B	45	10
C	30	20	C	15	20
D	0	30	D	0	30

- A.** Mamlakatlarning ishlab chiqarish imkoniyatlarini grafikda tasvirlang ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ini chizing.
- B.** Yengil va yuk avtomobilini ishlab chiqarish bo'yicha har biri uchun qaysi mamlakat ustun ekanligini aniqlang.
- C.** AQSh va O'zbekistonda yuk avtomobiliga alternativ tarzda qancha yengil avtomobil ishlab chiqarish mumkin.

### 2-Topshiriq.

Yaponiya va J.Koreya uyali telefon va radio ishlab chiqaradi. Yaponiyada ishlab chiqarilgan uyali telfon va J.Koreyada ishlab chiqarilgan radio individual xarajatlarga ega bo'lsin. Ushbu ishlab chiqarish imkoniyatlarini quyidagi jadvalda ko`rishimiz mumkin.

Mamlakatlar	Uyali telefon	Radio
Yaponiya	130	120
J.Koreya	150	170

Yuqoridagi jadval ma`lumotlari asosida quyidagilarni aniqlang:

- A.** Yaponiyaning radio ishlab chiqarish va uyali sotib olish evaziga oladigan foydasini toping.
- B.** J.Koreyaning uyali telefon ishlab chiqarish va radio sotib olish evaziga oladigan foydasini toping.

### **VIII. Qisqacha xulosalar.**

Xalqaro savdo ikki muhim ob'yektiv sabab- tabiiy va xom ashyo ryesurslarining mamlakatlar o'rtasida bir tyekis taqsimlanmaganligi hamda mamlakatlarda ishlab chiqarish kuchlarining bir xil rivojlanmaganligiga ko'ra paydo bo'lgan.

Xalqaro savdoga mahsulotlarni ayirboshlash, xizmatlarni ayirboshlash va yangi ilmiy-tyexnik ma'lumotlarni ayirboshlash kiritiladi. Bu ayrboshlashlarning barcha ko'rinishi tashqi savdo operasiyalari - eksport va import operasiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Xalqaro savdo nazariyasining klassik ko'rinishlari A. Smitning "Mutloq ustunlik" va D. Rikardoning "Nisbiy ustunlik" azariyalaridir.

D.Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi mutlaq ustunlikka ega bo'lmagan mamlakatlar ham tashqi savdodan foyda ko'rishi mumkinligini asoslab byeradi.

Xekshyer-Olinning nyeoklassik konsyepsiyasi "Nisbiy ustunlik" nazariyasini omillar bilan ta'minlanganlik nuqtai nazaridan izohlab byerdi.

Erkin savdo yo'lidagi to'siqlarni bartaraf qilish ryesurslarni samarali taqsimlanishga yo'l ochib, provardida barcha mamlakatlar uchun iqtisodiy yutuq olib kyelishi savdo nazariyalarida isbotlab byerilgan.

### **IX. Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Xalqaro savdoni rivojlantirishning ob'ektiv va sub'ektiv sabablari nimalardan iborat?
2. Xalqaro savdoning shakllari va ular hajmini belgilovchi omillarni tushuntirib bering.
3. A.Smitning "Mutlaq ustunlik" nazariyasi kamchiligi nimada ko'rinadi?
4. "Nisbiy ustunlik" nazariyasining mohiyatini tushuntirib bering.
5. Savdo sharoitlari tushunchasini izohlab bering.
6. Savdo sharoitining yaxshilanishi qanday oqibatlarga olib keladi?
7. Xekshyer-Olinning neoklassik konsepsiyasini izohlab bering.
8. "Leontev taajubi" qaysi sababli yuzaga keldi va qanday yechim topdi?

### **X. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishini nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.**

### **XI. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.**

### **XII. Savol-javoblar.**

### **XIII. Uyga vazifa.**

## **16–MAVZU: TO'LOV BALANSI**

**I. Darsning maqsadi:** To'lov balansi, uning roli, tarkibiy tuzilishi tushunchalarini o'rganish .

### **II. Darsning rejasi:**

1. To'lov balansi tushunchasi, makroiqtisodiy roli, tuzish tamoyillari.
2. Joriy operatsiyalar balansi. Kapital harakati va moliyaviy operatsiyalar balansi.
3. To'lov balansi tahlili. To'lov balansi taqchilligi. Markaziy Bankning rasmiy valyuta zaxiralari bilan operatsiyalari.

**III. Identiv o'quv maqsadlari:** Davlat byudjeti va soliqlar haqida talabalarda ko'nikma hosil qilish.

**IV. Kerakli jixoz, material va vositalar:** kodoskop, proektor, kompyuter,

kalkulyator.

## **V. Darsning ta`minoti:**

1. Каримов И.А. “Бизнинг бош мақсадимиз –жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир” // Халқ сўзи, 2005 й.- 29 январь.
2. Каримов И. А. “Ўзбекистон иқтисодий ислохатларни чуқурлаштириш йўлида”. Т.: “Ўзбекистон”, 1995., 269 б.
3. Агапов Т.А. “Макроэкономика для преподавателей”: Учебно-методическое пособие.-М.: Дело и Сервис. , 2003., 128 с.
4. Ишмухаммедов А.Э. Асқарова М.Т.”Ўзбекистоннинг миллий иқтисодиёти” Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмасининг Адабиёт жамғармаси нашриёти., 2004., 225 б.
5. Ивановский С.Р., “Макроэкономика” Учебник.-2-е издание.- М: Дело, 2002, -472 с.
6. Andrew B. Abel, Ben S. Bernanke “Macroeconomics” Addison-Wesley Publishing Company, Inc. 1998.
7. Roger LeRoy Miller, David Van Hoose. “Macroeconomics: Theories, Policies, and International Applications” 2<sup>nd</sup> edition. South- Western Collage Publishing. 2001

## **VI. Darsning borishi:**

1. Talabalar bilan salomlashiladi, talabalar davomati tekshiriladi.
2. Talabalarga ushbu mavzu bo'yicha to'planishi lozim bo'lgan reyting ballari va reyting xaritasi tushuntiriladi.
3. Amaliy mashg'ulot uchun berilgan masalalar bajariladi.
4. Talabalar bilan ma`ruzada mavzuning nihoyasiga yetmay qolgan qismi yuzasidan muhokama olib borish.
5. Mustaqil topshiriqlar bajarish va baholash.
6. Talabalar uyda bajarish lozim bo'lgan topshiriqlarni bajarish.
7. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.

## **VII. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshriqlar:**

### ***7.2. Test topshiriqlari.***

**1. Agarda eksport hajmi 80 ga, import hajmi 60 ga teng bo'lsa tashqi savdo oboroti hajmi nimaga teng bo'ladi?**

- a) 20
- b) 70
- c) 1,33
- d) 140

**2. Turkiya firmasi O'zbekistonda o'zining filialini barpo etdi bu shunday izohlanadi:**

- a) Qisqa muddatli kapital harakati
- b) Tashqi savdo kapitalining harakati
- c) Tadbirkorlik kapitalining harakati
- d) Uzoq muddatli kapital harakati

**3. To'lov balansi quyidagilardan qaysi birini aks ettiruvchi hujjat sanaladi?**

- a) Moddiy ishlab chiqarishdagi barcha korxonalarining foydalari va zararlari
- b) Aholining daromadlari va xarajatlari
- c) Xorijdan keladigan barcha tushumlar va mamlakatning xorijga to'laydigan to'lovlari
- d) Davlatning daromadlari va xarajatlari

**3. Quyidagi javoblardan qaysi biri tashqi savdo operasiyalariga tegishli:**

- a) Xorijga paxta xom-ashyosini yetkazib berish, sayohatchilik xizmatlari bilan ayirboshlash, xorijiy davlatdan mashina olib kelish,
- b) Sayohatchilik xizmatlari bilan ayirboshlash
- c) Xorijiy davlatdan mashina olib kelish
- d) Xorijga paxta xom-ashyosini yetkazib berish

### ***7.2. Amaliy topshiriqlar.***

#### ***1-Topshiriq.***

1. Tovarlar eksporti	100
2. Tovarlar importi	125
3. Xizmatlar eksporti	90
4. Xizmatlar importi	80
5. Aktivlardan olinadigan investision daromad	110
6. Aktivlar uchun to'langan investision daromad	140
7. Mamlakatning boshqa mamlakatlarga o'tkazgan transfertlari	10
8. Xorij mamlakatlarining mazkur mamlakatga o'tkazgan transfertlari	0
9. Mamlakatning xorijdagi aktivlari o'sishi	160
10. Xorijiy aktivlarning mazkur mamlakatda o'sishi	200

11.Mahalliy rezervlarning o'sishi	30
12.Xorijiy rezervlarning o'sishi	35

Yuqoridagilardan foydalanib quyidagalarni:

- a) tovarlar savdo balansini;
- b) sof eksportini;
- c) joriy hisob balansini;
- d) kapital hisobi balansini;
- e) rasmiy rezidentlar balansini;
- f) statistik qoldiqni toping.

### **VIII. Qisqacha xulosalar.**

To'lov balansi – mamlakatning dunyoning boshqa davlatlari bilan bo'lgan savdo va moliyaviy operatsiyalari aks ettirilgan hujjat. U ikki qismdan, joriy operatsiyalar va kapital harakati balansidan tashkil topgan.

Savdo balansi mamlakatning joriy tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha tushumlar va xarajatlarni aks ettiradi. Mamlakat eksporti uning importidan ko'p bo'lsa joriy operatsiyalar balansi musbat qoldiqli bo'ladi.

Joriy operatsiyalar balansidagi o'zgarishlar ichki ishlab chiqarish va o'z navbatida ichki bandlilik bilan bog'liq.

Kapital harakati balansi aktivlarni sotish va sotib olish bo'yicha barcha xalqaro bitimlarni xarakterlaydi. Aktivlarni sotib olish xorijiy valyutaning chiqib ketishini, sotish esa kirib kelishini anglatadi.

Har qanday xalqaro bitimlar to'lov balansida ikki bir-birini muvozanatlovchi yozuv ko'rinishida qayd etilgani uchun hamjoriy operatsiyalar balansi va kapital harakati balansi qoldiqlari 0ga teng bo'ladi.

To'lov balansi taqchilligi rasmiy zaxiralarning qisqarishi hisobiga qoplansa uning aktiv saldosi rasmiy zaxiralarning o'sishiga olib keladi.

Qayd etilmagan valyuta kursi sharoitida tql dov balansi valyuta kursining o'zgarishi hisobiga muvozanatlashadi.

Milliy valyutasi jahon iqtisodiyotida zaxira valyutasi hisoblanmaydigan mamlakatlar Markaziy banklaridan rasmiy valyuta zahirasi cheklanganligi tufayli

to'lov balansining uzoq muddatli taqchilligi bu rezervlarning sarflab bo'linishiga olib keladi. Bunday hollarda to'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solinadi.

Qayd etilgan valyuta kursi tizimida to'lov balansini tartibga solish uchun tashqi savdo siyosati, pul kredit va fiskal siyosat vositalaridan foydalaniladi.

#### **IX. Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. Mamlakat to'lov balansi necha qismdan iborat va ularda nimalar qayd etiladi?
2. To'lov balansini tuzishda ikki bor yozuv prinsipi nimani anglatadi?
3. Joriy operasialar balansida aks ettiriladigan operasialarni sanab bering.
4. Kapital harakati balansining mohiyatini tushuntirib bering.
5. To'lov balansi tarkibiy qislari o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirib bering.
6. To'lov balansi taqchilligi va inqirozi bir xil tushunchalarmi?
7. Erkin tebranuvchi valyuta kursi tizimida to'lov balansi qay yo'sinda barqarorlashadi?
8. To'lov balansini makroiqtisodiy tarptibga solish deganda nimani tushunasiz? Bunda qanday vositalardan foydalaniladi?
9. To'lov balansi tahlili makroiqtisodiy jarayonlar to'g'risida qanday ma'lumotlar olish imkonini beradi?

#### **X. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishini nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.**

#### **XI. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.**

#### **XII. Savol-javoblar.**

#### **XIII. Uyga vazifa.**

### **16–MAVZU: OCHIQ IQTISODIYOTDA MAKROIQTISODIY SIYOSAT**

**I. Darsning maqsadi:** Talabalarga iqtisodiyotning barcha parametrlarini ochiq iqtisodiyot shaoitida o`rgatish va ko`nikmalar hosil qilish.

#### **II. Darsning rejasi:**

1. **Ochiq iqtisodiyotda muvozanatli ishlab chiqarish hajmi.**

2. Ichki xarajatlar va savdo balansi. Sof eksport.
3. Eksport va importning milliy iqtisodiyotga ta'siri.
4. Ochiq iqtisodiyotda pul-kredit siyosati.
5. Qayd qilingan valyuta kursi va kapitalning yuqori mobilligi sharoitida pul-kredit va fiskal siyosat.
6. Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi sharoitida iqtisodiy siyosat.

**III. Identiv o'quv maqsadlari:** Talabalarga ochiq iqtisodiyot va uning qonuniyatlarini orgatish.

**IV. Kerakli jixoz, material va vositalar:** kodoskop, proektor, kompyuter, kalkulyator.

**V. Darsning ta`minoti:**

1. Каримов И.А. “Бизнинг бош мақсадимиз –жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир” // Халқ сўзи, 2005 й.- 29 январь.
2. Агапов Т.А. “Макроэкономика для преподавателей”: Учебно-методическое пособие.-М.: Дело и Сервис. , 2003., 128 с.
3. Ишмухамедов А.Э.,Чепель С.В., Шибаршова Л.И. Сборник кейсов по дисциплинам “Макроэкономика и микроэкономика”. Т., 2005., 139 б.
4. Ивановский С.Р., “Макроэкономика” Учебник.-2-е издание.- М: Дело, 2002, -472 с.
5. Andrew B. Abel, Ben S. Bernanke “Macroeconomics” Addison-Wesley Publishing Company, Inc. 1998.
6. Roger LeRoy Miller, David Van Hoose. “Macroeconomics: Theories, Policies, and International Applications” 2<sup>nd</sup> edition. South- Western Collage Publishing. 2001

**VI. Darsning borishi:**

1. Talabalar bilan salomlashiladi, talabalar davomati tekshiriladi.
2. Talabalarga ushbu mavzu bo'yicha to'planishi lozim bo'lgan reyting ballari va reyting xaritasi tushuntiriladi.
3. Amaliy mashg'ulot uchun berilgan masalalar bajariladi.
4. Talabalar bilan ma`ruzada mavzuning nihoyasiga yetmay qolgan qismi yuzasidan muhokama olib borish.
5. Mustaqil topshiriqlar bajarish va baholash.
6. Talabalar uyda bajarish lozim bo'lgan topshiriqlarni bajarish.
7. O'tgan mavzu yuzasidan suhbat.



## **VII. Talabalarga mustaqil ishlash uchun topshriqlar:**

### ***7.1. Test topshiriqlari.***

#### **1. Yopiq iqtisodiyot deganda:**

- a) Tashqi mamlakatlar bilan savdo va moliyaviy munosabatlarni amalga oshiradigan iqtisodiyot
- b) Tashqi dunyo bilan aloqa qilmaydigan iqtisodiyotdir
- c) Mamlakat eksporti importdan oshiqcha bo'lgan iqtisodiyot
- d) Importning eksportdan katta bo'lishi

#### **2. Ochiq iqtisodiyot deganda:**

- a) Tashqi mamlakatlar bilan savdo va moliyaviy munosabatlarni amalga oshiradigan iqtisodiyot
- b) Tashqi dunyo bilan aloqa qilmaydigan iqtisodiyotdir
- c) Mamlakat eksporti importdan oshikcha bo'lgan iqtisodiyot
- d) Importning eksportdan katta bo'lishi

#### **3. Davlat transfertlari:**

- a) Davlatning qaytarib olmaslik sharti bilan bergan yordami
- b) Yo'l haqi to'lovlari
- c) Ovqatlanish uchun yordam
- d) Davlatning ijtimoiy himoya to'lovlaridir.

#### **4. Milliy daromad mamlakat turlari:**

- a) Ishlovchilar kompensasiyasi
- b) Mulkdorlar va ijara daromadi
- c) Korporasiyalar daromadi, sof foizlar
- d) Ijara daromadlari

#### **5. Kichik ochiq iqtisodiyotda tovarlar bozori muvozanatlashadi:**

- a) Foiz stavkalarini o'zgartirish
- b) Dunyo foiz stavkasi o'zgarmas qolib, muvozanatga erishish uchun xorijga qarz beriladi yoki olinadi
- c) Jahon foiz stavkasi o'zgaradi
- d) Foiz stavkasi o'zgarmaydi

#### **6. Davlat xarajatlari quyidagi kategoriyalarga bo'linadi:**

- a) Davlat xaridlari va sof foizli to'lovlar
- b) Davlat xaridlari va transfert to'lovlari
- c) Transfert to'lovlari va sof foizli to'lovlar
- d) Davlat xaridlari, transfert to'lovlari va sof foizli to'lovlar

### ***7.2. Amaliy topshiriqlar.***

#### ***1-Topshriq.***

Rossiya 360 ta ekskavator va 2400 ta traktor, Ukraina esa 160 ta ekskavator va 800 ta traktor ishlab chiqarishadi. Agar Rossiya faqat ekskavator ishlab chiqarganda, ularning hajmi yiliga 600 donani, agar faqat traktor ishlab chiqarganda, ularning hajmi yiliga 6000 donani tashkil etar edi. Mos ravishda Ukraina yoki 200 ta ekskavator yoki 4000 ta traktor ishlab chiqarishi mumkin. Bu mahsulotlar ishlab chiqarishda qaysi mamlakat mutloq nisbiy afzallikka ega? Ikkala mamlakat uchun ixtisoslashuv qanday manfaatlarni beradi?

### **2-Topshiriq.**

Jadvalda A va B mamlakatlardagi bozorlarning taklifi berilgan ( $P$ -narx,  $Q_d$  – talab,  $Q_s$ -taklif). Shu ma'lumot asosida erkin savdo sharoitidagi  $X$  tovarning jahon narxini aniqlang. Mamlakatlardan qaysi biri  $X$  tovarni eksport qiladi, eksport hajmini aniqlang.

	A mamlakat	B mamlakat
$P$	1 2 3 4 5	1 2 3 4 5
$Q_d$	5 4 3 2 1	6 5 4 3 2
$Q_s$	2 3 4 5 6	5 6 7 9 10

### **3-Topshiriq.**

A mamlakatda bir kunda 12 ta uyali telefon yoki 2 ta musiqa markazi ishlab chiqarilishi mumkin. B mamlakatda esa bir kunda 4 ta uyali telefon yoki 8 ta musiqa markazi ishlab chiqarilishi mumkin. Quyidagi savollarga javob bering:

- A.** Savdo bo'lmagan sharoitda ikkala mamlakatdagi nisbiy narxlarni aniqlang.
- B.** Savdo munosabatlari o'rnatilganda ikkala mamlakat nimani eksport qiladi.
- C.** Mamlakatlar o'rtasida savdo munosabatlari o'rnatilgandan keyin jahon narxlari qanday chegaralarda o'zgaradi.
- D.** Faraz qilaylik erkin savdo o'rnatilishidan oldin A mamlakatning bir kunlik ishlab chiqarish hajmi 8 ta uyali telefon va 0,5 ta musiqa markaziga teng edi B mamlakatning ishlab chiqarish hajmi mos ravishda 1 ta uyali telefon va 6 ta musiqa

markaziga teng. Agar bir mamlakatning nisbiy afzallik asosida ixtisoslashuvi natijasida ikkala mamlakatning umumiy ishlab chiqarish hajmi qanchaga oshadi?

### **VIII. Qisqacha xulosalar.**

Nominal YaIM yakuniy tovarlar va xizmatlar hajmini joriy narxlarda, real YaIM esa doimiy narxlarda baholaydi. Shunday qilib, real YaMM hajmi faqatgina ishlab chiqarish hajmi o'sishi bilan oshadi, nominal YaMM esa tovar va xizmatlar baho darajasining o'sishi natijasida ham oshishi mumkin. Milliy ishlab chiqarish va daromad hajmining real o'zgarishini aniqlash uchun baholar indekslaridan: YaIM deflyatori va INI ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi friksion va tarkibiy ishsizlik darajalari yig'indisiga teng bo'lib, mamlakatdagi oxirgi o'n yilda mavjud bo'lgan haqiqiy ishsizlik darajasi va kyeyingi o'n yil uchun prognoz qilib hisoblangan ishsizlik darajalarining o'rtacha miqdori sifatida belgilanadi.

Ishsizlar sonining oshishi, ya'ni ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan yuqori bo'lishi potensial hajmdagi YaIM bilan haqiqiy hajmdagi YaIM o'rtasida uzilishga olib keladi. Ouken qonuni bunday bog'liqlikning miqdoriy darajasini ifodalaydi.

Iste'mol xarajatlarini YaIMning eng yirik komponenti bo'lib, uning hajmini avvalo uy xo'jaliklarining tasarrufidagi daromadi belgilaydi. Aholining daromadlari miqdori oshib borishi bilan undagi jamg'armalar ulushi ham oshib boradi.

Iste'mol va jamg'arish hajmi, shuningdek iste'molchilar boyliklari darajasiga, narx va soliq o'zgarishlari, iste'molchilarning qarzi darajasiga va boshqa omillarga bog'liq.

### **IX. Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. YaIMni taqsimot usulida aniqlashda MHTning yangi talqinida keltirilgan hamda iqtisodiy adabiyotlarda qo'llab kelinayotgan uslublardagi farqlarni tushuntirib bering.
2. YaMD ko'rsatkichi qanday hisoblanadi va YaIM ko'rsatkichidan nimasi bilan farq qiladi?
3. Iste'mol va jamg'arish grafiklarini izohlang.
4. Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha va chegaraviy moyillik ko'rsatkichlarini izohlab bering?

5. Yalpi taklif egri chizig'i shakli qaysi sabablarga ko'ra murakkab ko'rinishga ega?
6. AD-AS modelidagi makroiqtisodiy muvozanat holatini va uning shartlarini tushuntiring.
7. Keynes xochi nomli modelda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlovchi mexanizmga izoh bering.
8. Multiplikativ samara nima sababdan ro'y beradi.

**X. Topshiriqlarning talabalar tomonidan bajarilishini nazorat qilish va yo'l-yo'riqlar berish.**

**XI. Topshiriqlarni yechishning asosiy natijalari bo'yicha xulosa va takliflar.**

**XII. Savol-javoblar.**

**XIII. Uyga vazifa.**

MUSTAQIL ISH MAVZULARI VA SHAKLLARI

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Hajmi (soatda)
1	Makroiqtisodiy modellar. Asosiy makroiqtisodiy modellarning qiyosiy tahlili.	Ilmiy konsepsiyalardan birini tanlab kengroq yoritib kelish	2
2	Milliy hisoblar tizimida yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini hisoblash shartlari va usullari	Murojaatnomada makroiqtisodiyotga tegishli qismlarini o'rganib kelish	2
3	Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili	Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili tayyorlab kelish	2
4	O'zbekiston Respublikasining YAIM tarkibidagi o'zgarishlar tahlili	O'zbekiston Respublikasining YAIM tarkibidagi o'zgarishlar tahlilini qilish	2
5	O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorining shakllanishi va ishsizlikning o'ziga xos xususiyatlari	O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorining shakllanishi va ishsizlikning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish	2
6	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholini ish bilan ta'minlash va yangi ish o'rinlari yaratishdagi roli.	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholini ish bilan ta'minlash va yangi ish o'rinlari yaratishdagi rolini o'rganish	2

7	Inflyasiyaning mohiyati va kelib chiqish sabablari	Inflyasiyaning mohiyati va kelib chiqish sabablarini o'rganish	2
8	Inflyasiyaga qarshi siyosat	Ilmiy maqola tahlili sifatida Essey yozib kelish	2
9	Filips egri chizig'i. Modelning zamonaviy talqini	Internet ma'lumotlari asosida doklad tayyorlash	2
10	Iste'mol va jamg'arish funksiyalari	Adabiyotlar bilan ishlash	2
11	Ratsional kutish nazariyasi	Statistik ma'lumotlaryig'ish va diagramma, grafik ko'rinishida olib kelish	2
12	Investitsiya funksiyasi va omillari	Ilmiy maqola tahlili sifatida Essey yozib kelish	2
13	O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosati	Kichik guruhda case study tayyorlash	2
14	YAlpi talab- yalpi taklif modeli	Kichik guruhda case study tayyorlash	2
15	YAlpi talab va yalpi taklifni ragbatlantirish yo'llari	Kichik guruhda case study tayyorlash	4
16	Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli	Ilmiy maqola tahlili sifatida Essey yozib kelish	2
17	Pul bozorida muvozanat	Internet ma'lumotlari asosida doklad tayyorlash	2
18	Soliqlarning makroiqtisodiy mohiyati va roli	Adabiyotlar bilan ishlash	2
19	O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish yo'llari	Statistik ma'lumotlaryig'ish va diagramma, grafik ko'rinishida olib kelish	4
20	Davlat byudjeti tarkibi va uni takomillashtirish yo'llari	Ilmiy maqola tahlili sifatida Essey yozib kelish	2
21	Byudjet -soliq siyosati	Kichik guruhda case study tayyorlash	2
22	O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq siyosati	Ilmiy maqola tahlili sifatida Essey yozib kelish	2
23	Byudjet taqchilligi	Internet ma'lumotlari asosida doklad tayyorlash	2
24	Pul-kredit siyosati	Adabiyotlar bilan ishlash	4
25	O'zbekiston Respublikasi pul-kredit siyosati.	Statistik ma'lumotlaryig'ish va diagramma, grafik ko'rinishida olib kelish	2
26	Pul-kredit siyosati va ulardan foydalanish amaliyoti tahlili.	Ilmiy maqola tahlili sifatida Essey yozib kelish	2

27	IS-LM modelida byudjet- soliq va pul-kredit siyosati.	Kichik guruhda case study tayyorlash	2
28	Iqtisodiy o'sish omillari va tiplari.	Ilmiy maqola tahlili sifatida Essey yozib kelish	4
29	Iqtisodiy o'sishning neokeynscha modellari.	Internet ma'lumotlari asosida doklad tayyorlash	2
30	Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari.	Adabiyotlar bilan ishlash	2
31	Zamonaviy iqtisodiy o'sish modellari	Statistik ma'lumotlaryig'ish va diagramma, grafik ko'rinishida olib kelish	2
32	Tashqi savdo siyosati	Ilmiy maqola tahlili sifatida Essey yozib kelish	2
33	O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo siyosati	Kichik guruhda case study tayyorlash	4
34	To'lov balansi	Ilmiy maqola tahlili sifatida Essey yozib kelish	4
35	O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi.	Internet ma'lumotlari asosida doklad tayyorlash	4
36	Valyuta kursi.	Adabiyotlar bilan ishlash	4
37	O'zbekiston Respublikasi valyuta siyosati.	Statistik ma'lumotlaryig'ish va diagramma, grafik ko'rinishida olib kelish	4
38	Kichik ochiq iqtisodiyot modeli.	Ilmiy maqola tahlili sifatida Essey yozib kelish	4
39	Ochiq iqtisodiyotda byudjet-soliq siyosati.	Kichik guruhda case study tayyorlash	4
40	Ochiq iqtisodiyotda pul-kredit siyosati.	Ilmiy maqola tahlili sifatida Essey yozib kelish	4
41	Tashqi savdo tarkibini takomillashtirish va diversifikatsiyalash yo'llari.	Kichik guruhda case study tayyorlash	4
	JAMI		108

## **GLOSSARIY**

### **ATAMALARNING IZOHLI LUG'ATI**

***Avtonom iste'mol*** – shaxsiy iste'mol xarajatlarining yalpi milliy daromad (shaxsiy tasarrufdagi daromad -SHTD) o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan qismi. SHTD nolga teng bo'lganda ham avtonom iste'mol to'plangan mulk va jamg'armalarning kamayishi, yoki qarz hisobiga amalga oshirilaveradi.

***Avtonom investitsiyalar*** – asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulot hajmi o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan qismi.

***Avtomatik (o'rnatilgan) barqarorlashtirgichlar*** – byudjet – soliq siyosatining iqtisodiy tebranishlarning ta'sirini avtomatik zaiflashtiruvchi elementlari.

***Akselerator*** – sof investitsiyalar darajasi bilan yalpi ichki mahsulot (milliy daromad)ning o'sish sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkich.

***Aktivlar*** – iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining pul va moliyaviy mablag'lari, asosiy va aylanma fondlarining qiymati.

***Amortizatsiya*** – foydalanish jarayonida asosiy kapital qiymatining kamayishi..

***Banknota*** – Mamlakat Markaziy banki tomonidan chiqariladigan naqd qog'oz pullar bo'lib, iqtisodiyotdagi pul taklifining bir qismini tashkil etadi.

***Bank zahiralari*** – bankda saqlanayotgan naqd pullar, Markaziy bankda tijorat banklari tomonidan saqlanayotgan foizsiz depozitlar.

***Bank tizimi*** – tijorat banklari majmui. Bank tizimi jismoniy va yuridik shaxslarining omonatlarini (depozitlarini) qabul qiladi, pul o'tkazmalarini amalga oshiradi, qarz va kreditlar beradi, davlat va aktsiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlariga investitsiya qiladi.

***Baholar indeksi*** – tovarlar va xizmatlar, yoki aktivlar o'rtacha bahosining o'zgarishi ko'rsatkichi. Baholar indeksi bozor savati deb yuritiladigan ma'lum to'plamdagi tovarlar va xizmatlarning joriy yildagi baholari yig'indisini bazis yildagi baholari yig'indisiga bo'lib topiladi.

***Boylik*** – bozor qiymatiga ega va pulga yoki boshqa ne'matlarga almashinishi mumkin bo'lgan barcha narsa. Fizik aktivlar, moliyaviy aktivlar, ko'nikmalar, tadbirkorlik malakasi, savdo markalari xullas daromad keltiradigan barcha narsalar.

***Byudjet taqchilligi*** – Moliyaviy yil natijalariga ko'ra davlat byudjetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi.

***Valyuta kursi*** – mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

***Giperinflyatsiya*** – haddan tashqari inflyatsiya, narxning shiddat bilan o'sishi, pul qadrining g'oyat tez pasayishi. Inflyatsiyaning oylik darajasi 50 % dan ortishi va bu holat 6 oydan ortiq davom etishi uning giperinflyatsiya darajasiga o'tganligini anglatadi.

**Davlat qarzi** – davlatning o'z fuqarolari, banklar, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek xorij mamlakatlaridan qarzi.

**Daromad (income)** – ishlab chiqarish natijasida tushgan pul (foyda).

**Debitor** – korxonalar, tashkilot yoki muassasadan qarzi bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

**Debitorlik qarzi** – o'zaro xo'jalik aloqalarini olib boruvchi korxonalar, tashkilotlarning bir-biridan qarzi summasi.

**Devalvatsiya** – qayd qilingan valyut kursini tizimi amal qilayotgan sharoitda hukumat tomonidan milliy valyutaning boshqa valyutalarga nisbatan kursini tushirishga qaratilgan tadbiri. Devalvatsiya to'lov balansini taqchilligini bartaraf qilish, eksportni arzonlashtirish, importni qimmatlashtirish imkonini beradi.

**Demping** – tovarlarni tannarxiga qaraganda yoki ichki bozordagiga qaraganda past bahoda eksport qilish.

**Deflyatsiya** – iqtisodiyotda baholar umumiy darajasining pasayishi.

**Depozitlar** – 1) moliya-kredit muassasalariga qo'yilgan omonatlar; 2) bank daftaridagi yozuvlar; 3) kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatli qog'ozlar.

**Diversifikatsiya** – korxonaning faoliyat soxalari va ishlab chiqaradigan maxsulot turlarining kengayishi.

**Diskriminatsiya baholari** – ma'qul kelmagan xaridorlar uchun, ayniqsa davlatlar orasidagi munosabatlar, xaqiqiy siyosiy muhit buzilgan davrda o'rnatiladi. Bu narxlar o'ta yuqori, tovarni sotib oluvchiga bir necha marotaba qimmat qilib belgilanadi.

**Dotatsiya** – davlat byudjetidan qaytarib bermaslik sharti bilan mablag' ajratish: iqtisodiyotga byudjet orqali ta'sir etish vositalaridan biri.

**Yopiq iqtisodiyot (closed economy)** – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo – iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lmaydigan iqtisodiyot.

**Jamg'arishga chegaralangan moyillik** – jamg'arish hajmi o'zgarishning bu o'zgarishni keltirib chiqargan daromadlarning (SHTDning) o'zgarish miqdoridagi ulushi.

**Jahon valyuta tizimi** – jaxon bozorining rivojlanishi asosida shakllangan va davlataro bitimlar bilan mustaxkamlangan xalqaro pul-kredit munosabatlari.

**Jahon puli** – xalqaro mikiyosida xama uchun umumiy xarid vositasi, umumiy to'lov vositasi, boylikning umumiy moddiy timsoli, baynanminal qiymat ifodasi bo'lgan pul.

**Import (import)** – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini va texnologiyasini olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir.

**Importga chegaralangan moyilik** – importga qilingan xarajatlardagi o'zgarishning YaIM yoki YaMD o'zgarishiga nisbatan ulushi. importga qaratilgan xarajatlar hissasi.



**Investitsiya (investment)** – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish. Uning moliyaviy va real turlari mavjud.

**Investitsiyalarga bo'lgan moyillik (propensity to invest)** – investitsiya xarajatlarining daromaddagi hissasi.

**Investor** – bu qaror qabul qiluvchi va o'zining shaxsiy, qarzga olingan mablag'larini va boshqa jalb qilingan mulkiy va madaniy boyliklarini investitsion loyihaga kirituvchi jismoniy va yuridik shaxsdir. U omonatchi va qarz beruvchi rolida chiqishi mumkin bo'lib amalga oshiruvchi investitsiyalarning yo'nalishini, samarasini erkin holda aniqlaydi. Investor qarori bilan investitsiyalarga egalik qilish, ishlatish, foydalanish xuquqi va ularning natijalari bilan jismoniy va yuridik shaxslarga qonunda ko'rilgan tartibda berishi mumkin.

**Indeksatsiya** – iqtisodiyotdagi narxlarning o'rtacha darajasi o'zgarishiga bog'liq ravishda ish haqi va boshqa daromadlarni tuzatish, kelishtirish.

**Inflyatsiya** – baholar umumiy darajasining ko'tarilishi, milliy pul birligi xarid qobiliyatining pasayishi.

**Inflyatsiya darajasi (rate of inflation)** – ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narx darajasining foizdagi o'zgarishi.

**Iste'mol (consumption)** – kishilarning iqtisodiy talablarini qondirish jarayonida ijtimoiy mahsulotdan foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi bosqichi.

**Iste'mol xarajatlari** – tovarlar va xizmatlarni yakuniy iste'mol qilish maqsadida xarid qilish uchun qilingan xarajatlar. Uy xo'jaliklari va davlatning iste'mol xarajatlariga bo'linadi. YaIMning xarajatlariga ko'ra tarkibida eng katta va barqaror komponent.

**Iste'mol narxlar indeksi (consumer price index)** – o'rtacha oila tomonidan, odatda, iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxining bazis davriga nisbatan o'zgarishi o'rtacha darajasini aks ettiradigan ko'rsatkich, inflyatsiya ko'rsatkichi sifatida ishlatiladi.

**Iste'molga o'rtacha moyillik** – iste'mol xarajatlarining daromaddagi (yoki shaxsiy tasarrufdagi daromad hajmidagi) hissasi.

**Iste'molga (jamg'arishga) chegaralangan moyillik** – iste'mol xarajatlaridagi (jamg'arish hajmigi) o'zgarishning bu o'zgarishni keltirib chiqargan daromadlarning (SHTDdagi) o'zgarish miqdoridagi ulushi.

**Ishlab chiqaruvchilar narxlarining indeksi (producer price index)** – bazis davriga nisbatan xom ashyo materiallar va oraliq tovarlar narxlari o'zgarishining o'rtacha darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich. YaIMni maksimal darajada detallashtirilgan komponentlari narxini solishtirma narxlarga o'tkazishda ishlatiladi.

**Ishsizlik** – mamlakatda ish bilan band bo'lmagan ishchi kuchi guruhining mavjud bo'lishi, aholi iqtisodiy faol qismining o'ziga ish topa olmasdan qolishi, ishchi kuchidan to'liq foydalanmaslik.

***Ishsizlikning darajasi ( unemployment rate)*** – ishsizlar umumiy sonining ishchi kuchiga bo'lgan nisbati.

***Ishsizlikning tabiiy darajasi (natural rate of unemployment)*** – real va potentsial yalpi ichki mahsulotning o'sishi bir-biriga mos keladigan iqtisodiy rivojlanish davri oraliqlariga xos bo'lgan ishsizlik darajasi. U shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va tarkibiy ishsizlik ko'rsatkichlari yig'indisi sifatida hisoblanishi mumkin.

***Ishchi kuchi***– ishga layoqatli, ishlayotgan va faol ish izlayotgan aholi.

***Iqtisodiy kon'yunktura*** – iqtisodiy o'sish, tuzilmaviy siljishlar, moliyaviy ahvol, eksport imkoniyatlari kabilarni xarakterlab beruvchi iqtisodiy holat.

***Iqtisodiy o'sish*** – real yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning o'sishi.

***Iqtisodiy o'sish sifati*** – iqtisodiy o'sishning umumlashgan sifat xarakteristikasi bo'lib, uning qanday sarflar bilan ta'minlangani va qanday ijtimoiy-iqtisodiy natija berganligini ifodalaydi.

***Kvota*** – davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tovarlarni ishlab chiqarish, ularni eksport va import qilish yuzasidan cheklashlarning joriy etilishi, kvota o'rnatish xalqaro bitimlarga binoan amalga oshiriladi.

***Kechiktirilgan talab*** – bozordagi takchilik tufayli kerakli tovar topilmasdan, qondirilish muddati orqaga surilgan talab.

***Kon'yunktura*** – bozorning aloxida segmentida talab, taklif, narx va raqobat xolatini xarakterlovchi omillar tizimi.

***Kutilayotgan inflyatsiya darajasi***– mavjud ijtimoiy – iqtisodiy axborotlar, ma'lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo'lg'usi davrdagi inflyatsiya darajasi.

***Likvidlilik*** – a) turli firmalar va banklarning o'z qarzini to'lay olish yoki boshqa majburiyatlarini bajara olish imkoniyati; b) bir aktivning ikkinchisiga qanchalik tez almashina olinishi o'lchovi. Naqd pul eng yuqorig' 100% likvidlilikka ega.

***Likvidlilik tuzog'i*** – foiz stavkasi juda past bo'lgan shunday vaziyatki, odamlar pulni naqd ko'rinishda saqlab turishni afzal ko'radilar. Tadbirkorlar esa foiz stavkasi bundan ko'ra pasayishi mumkin emasligi sababli investitsiyalarni ko'paytirmaydilar. Minimal foiz stavkasi sharoitida pulga talab egrir chizig'i cheksiz elastik bo'lib qoladi.

***Markaziy bank***– Mamlakatning bosh banki. Asosiy funktsiyasi mamlakat iqtisodiyotidagi pul massasini nazorat qilishdan iborat. Markaziy bank mamlakatlarning jami kredit tizimiga rahbarlik qiladi, davlat pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, pul va qimmatli qog'ozlar emissiyasini manopol huquqida amalga oshiradi.

***Milliy valyuta*** – muayyan mamlakatning pul birligi.

**Milliy valyutaning qadirsizlanish** – qayd qilinmagan valyuta kursi tizimi amal qilayotgan sharoitda chet el valyutalariga nisbatan milliy valyutaning kursining kamayishi.

**Milliy valyutaning qimmatlashishi** – qayd qilinmagan valyuta kursi tizimi amal qilayotgan sharoitda chet el valyutalariga nisbatan milliy valyutaning kursining ko'tarilishi.

**Moliya bozori** – mamlakatdagi moliya xizmatlari bozori: moliya mablag'lariini vaqtincha xaq to'lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo'lgan munosabatlar.

**Narxlar indeksi (price index)** – har xil vaqt oralig'ida tovar va xizmatlarga narxning muvozanati o'zgarishini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

**Narxlar korrektirovkasi (price adjustment)** – bozor vaziyati o'zgarishiga narxlarning moslashuv jarayoni.

**Nisbiy afzallik (comparative advantages)** – ayrim iqtisodiy agentlarning tovar va xizmatlarni kamroq xarajatlar evaziga ishlab chiqarish xususiyati. Makrodarajada nisbiy afzallik printsiipi ishlab chiqarish va eksportning samarali strukturasi shakllantirish uchun qo'llaniladi.

**Nominal YaIM** – joriy narxlarda aks ettirilgan yalpi ichki mahsulot.

**Oraliq iste'mol (intermediate consumption)** – ishlab chiqarishning bir bosqichida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning boshqa bosqichida mehnat predmetlari sifatida ishlatilishi.

**Oraliq mahsulot** – ishlab chiqarish va muomala jarayonidan chiqib ketmagan, yakuniy iste'mol uchun uchun yetib bormagan, qayta ishlash yoki sotishga mo'ljallangan mahsulot.

**Ortiqcha talab** – mavjud baholar darajasida tovarlar va xizmatlar taklifidan ularga bo'lgan talabning ko'pligi. To'liq bandlilik sharoitida inflyatsiya darajasining oshishiga olib keladi.

**Ochiq iqtisodiyot (open economy)** – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo – iqtisodiy va moliyaviy aloqalarga ega bo'lgan iqtisodiyot.

**Potensial YaIM** – to'liq bandlilik sharoitida, yoki mavjud sarmoya resurslari va ishchi kuchidan to'liq foydalanish hisobiga erishilishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish hajmi.

**Pul aktivlari** – ma'lum sohada korxonaning hisob raqami, kassasida bo'lgan pul mablag'lari.

**Pul bazasi** – bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va Markaziy bankdagi tijorat banklarining zahiralar

**Pulga bo'lgan talab** – uy xo'jaliklari va firmalar tomonidan bitimlarda to'lov vositasi sifatida foydalanish, ko'zda tutilmagan xarajatlar uchun saqlab turish, moliyaviy aktivlar sifatida foydalanib daromad olish uchun jamg'arish maqsadida ega bo'lishga intilgan pul miqdori.

**Pulning miqdoriy nazariyasi** – pul taklifi va iqtisodiyotdagi baholarning umumiy darajasi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni o'rnatuvchi nazariya. Birinchi bor ingliz faylasufi va iqtisodchisi D.Yum tomonidan XVIII asrda ilgari surildi, amerikalik iqtisodchi I. Fisher tomonidan 1911 yilda rivojlantirildi va keyinchalik Kebrij universiteti iqtisodchilari tomonidan takomillashtirildi.

***Pulning xarid qobiliyati*** – aniq pul birligining bozordagi tarif va narxlar darajasi sharoitida ma'lum miqdordagi tovar va xizmatlarga almashinuv qobiliyati.

***Raqobat*** – mustaqil ishlab chiqaruvchilar o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda, katta xajmda sotish, bozorda o'z mavkeini mustaxkamlash uchun kurash.

***Raqobat ustunligi*** – kapital va aktivlar mukamal tuzilishi, muamala xarajatlarining past darajasi, boshqarishni yaxshi tashkil etish xisobiga bozorning boshqa ishtirokchilaridan ustunlik.

***Real almashinuv kursi*** – ikkala mamlakatdagi baholar darajasining o'zaro nisbatini hisobga oluvchi almashinuv kursi. Solishtirilayotgan mamlakatlardagi nominal almashinuv kursini baholar indekslarining o'zaro nisbatiga ko'paytirish yo'li bilan topiladi..

***Real YaIM*** – qiyosiy baholarda aks ettirilgan YaIM. U joriy baholarda hisoblangan nominal YaIMni deflyatorga bo'lib topiladi..

***Real foiz stavkasi*** – inflyatsiya sur'ati hisobga olinib tuzatilgan nominal foiz stavkasi.

***Revalvatsiya***– qayd qilingan valyut kursi tizimi amal qilayotgan sharoitda hukumat tomonidan milliy valyutaning boshqa valyutalarga nisbatan kursini oshirishga qaratilgan tadbiri. Importni arzonlashtiradi va eksportni qimmatlashtiradi.

***Rezident*** – xo'jalik faoliyatida milliy qonunchilikka to'liq amal qiladigan, mazkur mamlakatda ro'yxatga olingan yoki doimiy yashaydigan yuridik yoki jismoniy shaxs.

***Rezerv valyuta*** – xalqaro hisob-kitob ishlarida, jumladan savdo-sotiq, kredit va investitsiya ishlarida, shuningdek xorijiy valyuta rezervlarini jamlashda qo'llanadigan, jaxon bozorida tan olingan, lekin kelib chiqishi milliy bo'lgan valyuta.

***Reeksport*** – mamlakatga oldin import qilingan tovarlarni hech qanday savdo-texnologik ishlov bermasdan eksport qilish.

***Cof ichki mahsulot (sof milliy daromad)*** – makroiqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, YaIM (YaMD) dan amortizatsiya ajratmalari miqdorini ayirib tashlash yo'li bilan topiladi.

***Soliq islohoti*** – soliq tizimini qayta ko'rish va uni yangilash, moliyaviy munosabatlarning o'zgarishi tufayli yuzaga keladi.

***Soliq ob'ekti*** – soliq solinadigan daromad yoki mol-mulk.

***Soliq tizimi*** – davlat foydasiga undiriladigan soliqlar turi mujmui.

***Soliq yuki*** – milliy iqtisodiyot darajasida davlat byudjetiga soliq tushumlarining (YaIMning davlat byudjeti orqali qayta taqsimlanadigan qismining) YaIM dagi ulushi. Korxonada korxonada yil davomida to'lagan jami soliqlar hajmining shu davrda olingan daromadlaridagi ulushi.

***Stagflyatsiya*** – iqtisodiyotda baholar va ishsizlik darajalarining bir vaqtning o'zida o'sishi.

**Subventsiya** – davlat byudjetidan muxim xo'jalik va ijtimoiy-madaniy tadbirlarni amalga oshirish uchun xokimiyat organlariga ajratilgan pul mablag'i.

**Subsidiya (subsidy)** – davlat byudjeti hisobidan korxonalar, tashkilotlar va xorijiy davlatlarga beriladigan mablag'. Subsidiya bozor iqtisodiyotini tartibga solish vositasi hisoblanadi.

**Talab inflyatsiyasi** – iqtisodiyotda talab keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish mumkin bo'lmay qolgan sharoitlarda kelib chiqqan inflyatsiya.

**Tashqi dunyo** – shu mamlakatni tashqi iqtisodiy aloqalar olib boruvchi iqtisodiy agentlar bilan birlashtiruvchi institutsional sektor.

**Tarkibiy ishsizlik** – iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish oqibatida ishchi kuchiga talab tarkibida o'zgarish ro'y berishi natijasida yuzaga keladigan majburiy ishsizlikning ko'rinishi.

**Uzoq muddat davomida ishlatiluvchi tovarlar (durable goods)** – iste'molchilarga uzoq vaqt xizmat qiladigan (1 yildan kam) tovarlar. Bunday tovarlarga avtomobil, xolodilniklar va boshqa turdagi maishiy xizmat vositalari kiradi.

**Transfert to'lovlari** – evaziga hech qanday tovar yoki xizmatlar olinmaydigan davlat xarajatlari (pensiya, stendiyalar, ishsizlik nafaqasi va boshqalar).

**Filips egri chizig'i** – ishsizlik darajasi dinamikasi ( abtsissa o'qi) va inflyatsiya sur'ati (ordinata o'qi) orasidagi bog'liklikni grafikda tasvirlovchi egri chiziq.

**Fisher samarasi** – inflyatsiyaning qarzlari yoki obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkasiga ta'sirini hisobga olishni bildiruvchi tushuncha.

**Friktsion ishsizlik (frictionfl unemployment)** – bir ishdan boshqa bir ishga o'tish bilan bog'liq bo'lgan vaqtinchalik ishsizlik.

**Foiz (interest)** – daromad, o'z mulkining boshqa jismoniy va huquqiy shaxslarga foydalanishga berib, shundan foyda olish.

**Foiz stavkasi (interest rate)** – kredit yoki qarz kapitali evaziga to'lovning foiz ko'rsatkichi. Odatda, qarzga olingan pul belgisining bir – birligiga to'g'ri keladigan yillik to'lovni aks ettiradi.

**Xalqaro savdo nazariyasi** – iqtisodiy nazariyaning bir qismi. Ishlab chiqarish tva ayirboshlashga xalqaro ixtisoslashuv sabablarin, amda bundan mamlakatlar oladigan manfaatlarni o'rganadi.

**Xarid qobiliyati pariteti** – valyutalar almashinuv kurslarining shunday darajasiki, bunda har bir valyutaning xarid qobiliyati tenglashadi.

**Eksport** – tovarlar, xizmatlari va kapitalni mamlakat tashqarisiga sotish; mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni sotib olish uchun boshqa mamlakatlar jismoniy shaxslari, firmalari va hukumatlarining qilgan xarajatlari..

**Emissiya** – yangi pullar yoki qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish. Pul emissiyasi davlat (Markaziy bank) tomonidan amalga oshiriladi.

***Yalpi ichki mahsulot*** – ma’lum vaqt davomida mazkur mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan yakuniy mahsulotlarning bozor baholari yig’indisi.

***YaIM darajalaridagi farqlar ( GNP gap)*** – potentsial va real YaIMning darajalari orasidagi farqlar.

***Yalpi milliy daromad*** – Mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarishda ishtirok etish natijasida hamda mulklaridan olgan boshlag’ich daromadlari yig’indisi.

***Yalpi taklif*** – mamlakatda, ma’lum vaqt davomida, tadirkorlik sektori va davlat tomonidan ishlab chiqarilgan, va baholarning turli darajasida taklif qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmi.

***Yalpi talab*** – uy xo’jaliklari, firmalar, davlat va xorijliklar tomonidan mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni baholarning turli darajasida sotib olishga qilingan xarajatlarning umumiy yig’indisi.

***O’zgaruvchan almashuv kursi (flexible exchange rate)*** – ichki muvozonatni tiklash maqsadida mamlakat almashuv kursiga ega bo’ladigan xalqaro hisob-kitoblar tizimi.

***Qayd etilgan valyuta kursi (fixed exchange rate)*** – Markaziy bank tomonidan valyuta intervensiyasi yordamida ta’minlab turiladigan valyuta kursi.

***Hisob stavkasi(qayta moliyalash stavkasi)*** – Markaziy bank tijorat banklari veksellarini hisobga olishda va ularga kredit berishda qo’llaydigan foiz stavkasi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**



**TASDIQLAYMAN”**

quv ishlari bo'yicha prorektori

Kolmatov

2024-yil

**MAKROIQTISODIYOT**

**FANINING**

**O‘QUV DASTURI**

*2024/2025 o'quv yili kundizgi ta'lim shakli, 2-kurslari uchun*

<b>Bilim sohasi:</b>	<b>300000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot</b>
<b>Ta'lim sohasi:</b>	<b>310000 - Ijtimoiy va hulq atvorga oid fanlar</b>
<b>Ta'lim yo`nalishi:</b>	<b>60310100- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'iycha)</b>
<b>Ta'lim yo`nalishi:</b>	<b>60310400 – Iqtisodiy xavfsizlik</b>
<b>Bilim sohasi:</b>	<b>400000 - Biznes, boshqaruv va huquq</b>
<b>Ta'lim sohasi:</b>	<b>410000 - Biznes va boshqaruv</b>
<b>Ta'lim yo`nalishi:</b>	<b>60412200 – Moliya sohasida boshqaruv</b>
	<b>60411300 – Biznesni boshqarish</b>
	<b>60411700 – Logistika (yo`nalishlar bo'yicha)</b>

<b>Fan/modul kodi</b> MAKROE6		<b>O‘quv yili</b> 2024-2025	<b>Semestr</b> 4	<b>ECTS-Kreditlar</b> 6
<b>Fan/modul’ turi</b> Majburiy		<b>Ta’lim tili</b> O‘zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b>  <b>IV semestr</b> 6 soat
<b>1</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Makroiqtisodiy ot</b>	90	90	180
<b>2</b>	<p style="text-align: center;"><b>I. FANNING MAZMUNI</b></p> <p><b>Fanni o‘qitishdan maqsad</b> - talabalarda makroiqtisodiyot nazariyasi va davlatning makroiqtisodiy siyosati tugrisida bir tizimga solingan bilim va kunikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifalari</b> - makroiqtisodiy kategoriyalar, makroiqtisodiy muammolarning namoyon bo‘lishi shakllari va sabablari, iqtisodiy jarayonlarni makroiqtisodiy modellar vositasida tahlil etish, makroiqtisodiy siyosat maqsadlari va vositalari, ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy siyosat yuritish xususiyatlari to‘g‘risida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish hamda makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblash, makroiqtisodiy konsepsiya va modellardan foydalangan holda iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, makroiqtisodiy siyosat natijalarini aniqlash usullarini) o‘rgatishdan iborat.</p> <p>“Makroiqtisodiyot” fanini o‘zlashtirish jarayonida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• makroiqtisodiyot fanining predmetini, ob’ekti hamda makroiqtisodiy agentlar;</li> <li>• makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning mohiyati va ularni hisoblash shartlari;</li> <li>• asosiy makroiqtisodiy modellar va ularda iqtisodiy jarayonlarning kechishi xamda makroiqtisodiy siyosat natijalarini aks ettirish;</li> <li>• tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmining mohiyati;</li> </ul>			



- pulga talab, pul taklifi va pul bozorida muvozanatga ta'sir etuvchi omillar;
- byudjet-soliq va pul-kredit siyosatining maqsadlari, vositalari, ko'rinishlari;
- iqtisodiy o'sishning mohiyati, o'lchanishi, omillari va modellari;
- tashqi savdo siyosatining nazariy asoslari va vositalari;
- mamlakat to'lov balansining tuzilishi, makroiqtisodiy ahamiyati va uni tartibga solish usullari;
- valyuta kursining mohiyati, makroiqtisodiy ahamiyati, uni belgilovchi omillar va barqarorligini ta'minlash shartlari;
- ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- iqtisodiy jarayonlarni tahlil kdlishda makroiqtisodiy modellarni-qo'llashni;
- makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishni;
- makroiqtisodiy siyosatning ijobiy va salbiy oqibatlariga baho berishni;
- makroiqtisodiy siyostaning natijalarini prognoz qilishni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash;
- asosiy makroiqtisodiy modellarning o'zgaruvchilarini aniqlash va tenglamalarini tuzish;
- tovarlarlar va xizmatlar bozorida qisqa va uzoq muddatli muvozanatni ta'minlash mexanizmini tushuntirib berish;
- pul bozorida muvozanat yuzaga kelishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- makroiqtisodiy siyosatning iqtisodiy jarayonlar va alohida ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatishi qonuniyatlarini aniqlash;
- turli makroiqtisodiy vaziyatlarda byudjet-soliq yoki pul-kredit siyosatini qo'llash hamda uzaro muvofiqlashtirish shartlarini tushuntirib berish;
- tashqi savdo siyosati va valyuta kursini tartibga solish orqali to'lov balansi holatiga, yalpi talab va yalpi taklif hajmlariga ta'sir ko'rsatish usullarini tavsiflab berish;
- ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlarini, milliy va jahon iqtisodiyoti darajasida bozor mexanizmi kandy amal kilishini izohlab berish ko'nikmalariga ega buliish kerak.

## **II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)**

### **II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

### **1-mavzu: Makroiqtisodiyot" ga kirish.**

«Makroiqtisodiyot» ning shakllanish tarixi, predmeta va ob'ekta. Dastlabki makroiqtisodiy tahlil elementlari, "Kene jadvali". Iqtisodiyotga davlat aralashuvining zarurligi. Keyns nazariyasining mohiyati. Makroiqtisodiyot fanining shakllanishi. Asosiy makroiqtisodiy muammolar. Uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyo makroiqtisodiyot sub'ektlari sifatida. Makroiqtisodiyotning iqtisodiyot sohasidagi boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullari. Agregatlashning afzalliklari va kamchiliklari. Makroiqtisodiy modellar. YOpiq va ochiq iqtisodiyot. Endogen va egzogen o'zgaruvchilar. Doiraviy aylanish modeli. "Daromadlar-harajatlar" va "resursdar-mahsulotlar" oqimi. Qarama-qarshi oqimlar o'rtasidagi tenglikning buzilishi sabablari. Makroiqtisodiyot sub'ektlarining o'zaro aloqalari, maqsad va funksiyalari. "Oqimdan chetga chiqish" va "chetdan oqimga qo'shilish"lar. Makroiqtisodiy siyosat ko'rinishlari.

### **2-mavzu: Milliy hisoblar tizimi. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.**

Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi., Milliy hisoblar tizimining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichi sifatida Yalpi ichki maxsulot (YAIM) ko'rsatkichining mohiyati. Iqtisodiy hudud. Rezident. Oraliq hamda yakuniy tovarlar va xizmatlar. Bozor baholari. YAIMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli. Qo'shilgan qiymat, bir qiymatni ikki bor hisobga olishni istisno etish. YAIMni harajatlar bo'yicha hisoblash. SHaxsiy iste'mol harajatlari. Yalpi investitsiyalar. Tovarlar va xizmatlarning davlat haridi. Sof eksport. O'zbekiston Respublikasida YAIMning ishlab chiqarish hamda yakuniy iste'molga ko'ra tarkibi. YAIMni daromadlar bo'yicha hisoblash. Boshlang'ich daromadlarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi. Yalpi milliy daromad. Sof ichki maxsulot. Sof milliy daromad. Shaxsiy daromad. Shaxsiy tasarrufdagi daromad. Iste'mol. Jamg'arish. Yalpi milliy tasarrufdagi daromad. Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar. Daromadlar va harajatlar tengligi. Investitsiyalar va jamg'armalar tengligi. Xususiy, davlat va tashqi dunyo jamg'armalari. Nominal va real YAIM. Baholar indeksleri. YAIM deflyatori (Paashe indeksi). Iste'mol narxlari indeksi (INI). Fisher indeksi. YAIMni hisoblash usullarini takomillashtirish zaruriyati va yo'nalishlari.

### **3-mavzu: Makroiqtisodiy beqarorlik. (Ishsizlik)**

Iqtisodiy davrlarning mohiyati. Iqtisodiy tebranishlarning sabablari:

Ilmiy texnika taraqqiyoti. Siyosiy hodisalar. Jahon bozorida energoresurslar narxlarining o'zgarishi. Tabiat xodisalar. Talab va taklif o'rtasidagi nisbat. Yalpi xarajatlardagi o'zgarishlar. Iqtisodiy davrlarning bosqichlari va ularning tavsifi. Iqtisodiy tebranishlarning turli tarmoqlarga ta'siri. Iqtisodiy tebranishlarning hozirgi kundagi xususiyatlari. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar. Iqtisodiy tebranishlarga bozorlardagi monopol tuzilmalar, davlatning taribga soluvchilik roli, ilmiy texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishning baynalminallashuvi ta'siri.

Ishsizlik tushunchasi. Ish bilan bandlar va ishsizlar. Ishsizlikning neoklassik va keynscha konsepsiyalari. A.Piguning neoklassik konsepsiyasi. Real ish haqi, ish kuchi taklifi va unta talab. Ishsizlikning keynscha konsepsiyasi. Majburiy ishsizlik. Bandlilik mul'tiplikator. Ishsizlik turlari va ish bilan to'la bandlik. Ishsizlikning haqiqiy va tabiiy darajasi. Potensial va haqiqiy YAIM. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. Ouken qonuni. Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari.

O'zbekiston Respublikasida yangi ish o'rinlar yaratish va aholining ish bilan bandligini ta'minlash siyosatining xususiyatlari va yo'nalishlari.

#### **4-mavzu: Umumiy makroiqtisodiy muvozanat: yalpi talab va yalpi taklif modeli (AD-AS)**

Yalpi talab tushunchasi. AD egri chizig'i. Baho omillari. Foiz stavkasi samarasi. Boylik samarasi va import haridlari samarasi. AD egri chizigi traektoriyasi. Pulning mikdoriy nazariyasi. Baholar darajasi va yalpi talab o'rtasidagi teskari bog'liklik. Bahodan boshqa omillarning yalpi talabga ta'siri. Iste'mol xarajatlaridagi, investitsiya harajatlaridagi, davlat harajatlaridagi va sof eksportdagi o'zgarishlar. Yalpi taklif tushunchasi va egri chizig'i. Resurslar bahosning o'zgarishi. Unumdorlikning o'zgarishi. Soliqlarning o'zgarishi. Yalpi taklifdagi o'zgarishlar. YAlpi taklifning klassik modeli. Nominal kattaliklarning o'zgaruvchanligi. Real kattaliklarning qat'iyiligi. AS egri chizig'ining vertikalligi. AS egri chizig'ining ishlab chiqarish omillari va texnologiyalar ta'sirida siljishi. Yalpi taklifning keynscha modeli. Nominal kattaliklarning nisbatan kat'iyiligi. Real kattaliklarning nisbatan o'zgaruvchanligi. YAlpi talab ta'sirida yalpi taklif egri chizig'idagi siljishlar. Baholarning muvozanatli darajasi. Ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi. Umumiy muvozanat tushunchasi. Val'rasning umumiy muvozanat tenglamasi. AD-AS modelida muvozanatning ta'minlanishi mexanizma Talab shoklari. Taklif shoklari.

Yalpi taklif o'zgarishining oqibatlari. Barqarorlashtirish siyosati. Pul taklifi va davlat harajatlarning o'zgartirilishi.

### **5-mavzu: Tovar bozorida muvozanatning Keynes modeli**

Klassik makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi tanqidi. Keynesning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi. Bozor mexanizmi tomonidan yalpi talab va yalpi taklif muvozanati ta'minlanishining doimiy emasligi. "Investitsiya - jamg'arish" modeli. Investitsiyalash va jamg'arish rejalarning turlicha ekanligi.

"Daromadlar - harajatlarni" modeli - Keynes xochi. Xaqiqiy va rejalashtirilgan harajatlarni. Modelni tuzishdagi asosiy shartlar. Sof eksport funksiyasi. Importga chegaraviy moyillik. Modelda makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmi Tovar moddiy zahiralarining rejalashtirilmagan o'zgarishlari. Haqiqiy investitsiyalar va rejalashtirilgan investitsiyalar tengligi. Zaxiralarning o'zgarishi. Avtonom harajatlarni dinamikasi va uning ta'sirida muvozanatli YAIM xajmining o'zgarishi. Mul'tiplikator samarasi. Avtonom harajatlarning mul'tiplikatsiyasi mexanizmi. Iste'molga chegaraviy moyillik va mul'tiplikatsiya samarasi. Mul'tiplikator formulasi. Retsession va inflyasion uzilish.

### **6-mavzu: Davlatning byudjet-soliq (fiskal) siyosati**

Byudjet-soliq (fiskal) siyosati: mohiyati, maqsadlari, vositalari. Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosat. YOpiq va ochik iqtisodiyotda davlat harajatlari mul'tiplikator. Soliq mul'tiplikatsiyasi mexanizmi. Soliq mul'tiplikator. Balanslashgan byudjet mul'tiplikator. Soliqlarni kamaytirilishi samarasi va davlat harajatlarni oshirilishi samarasi.

Diskret fiskal siyosat. Davlat byudjeta taqchilligi va profitsiti. Nodiskret fiskal siyosat. Avtomatik barqarorlashtirgichlar. Progressiv soliq tizimi. Davlat transfertlari tizimi. Davriy taqchillik va davriy profitsit. Davlat byudjetining tarkibiy taqchilligi. Tarkibiy profitsit. Taqchillikni moliyalash usullari. Taqchillikni monetlashtirish va Oliver-Tanzi samarasi. Davlat obligatsiyalarini chiqarish va siqib chiqish samarasi. O'zbekiston

Respublikasi byudjet-soliq- siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

## **7-mavzu Pul va pul bozori. Davlatning pul-kredit (pul-kredit) siyosati**

Pul tushunchasi va funksiyalari. Pul agregatlari: M1, M2, M3, L, "kvazi pullar". Pulga talabga monetarcha yondoshuv. Fisher va Kembrij tenglamalari. Pulning aylanish tezligi. Baholar darajasi, real YAIM xajmi va pulga talab. Pulga bo'lgan real talab. "Pul mablag'larining real zahirasi". Pulga talabning keynscha nazariyasi - likvidlilikni afzal ko'rish nazariyasi. Bitimlar uchun, ehtiyotkorlik shartiga ko'ra va mulk sifatida pulga (spekulyativ) talab. Pulni saqlashning muqobil qiymati. Pulga spekulyativ talab va qimmatli qog'ozlar daromadlilik darajasi o'rtasidagi teskari bog'liqlik. Pulga talab funksiyasi. Pulga talab egri chizig'i grafigi. Fisher samarasi. Nominal foiz stavkasi va pulga talab. Pulga talabga portfelli yondoshuv. Aktivlar portfelining tarkibi, unda naqd pulning ulushi. Jamg'arilgan boylik xajmi va pulga talab.

Pul taklifi. Naqd pullar va depozitlar. Tijorat banklari tomonidan "pul massasining yaratilishi". Kredit mul'tiplikatsiyasi. Depozitlarni majburiy zahiralash normasi. Majburiy va orgiqcha zahiralalar. Bank mul'tiplikatori. Pul taklifining qiskartirilgan modeli. Pullarning depozitlardan naqd pullarga oqib o'tishi, deponentlash koeffitsenti. Pul bazasi. Pul mul'tiplikatori. Pul taklifining kengaytirilgan modeli. Markaziy Bank tomonidan pul taklifini nazorat qilish va tartibga solish vositalari. Baholar darajasi qayd kdlingan va daromadlarning belgilangan darajasi sharoitda pul bozorida qisqa muddati muvozanat. Foiz stavkasi va pul massasining muvozanatli darajalari o'zgarishiga daromadlar darajasi va pul taklifi o'zgarishining ta'siri. Pulning likvidlilik egri chizig'i (LM)- Xansen modeli. Keynscha pul siyosatining mohiyati. Likvidlilik tuzog'i. Likvidlilik tuzog'i sharoitida pul siyosatining samarasizligi. Pul bozorida uzoq muddatli muvozanat.

Bank tizimining tarkibi. Markaziy bank va tijorat banklarining funksiyalari. Banklarning asosiy operatsiyalari va bozor iqtisodiyotidagi roli. Pul-kredit siyosatining mohiyati, pirovard maqsadlari va oraliq mo'ljallar. Majburiy zahira normasi. Hisob stavkasi (qayta moliyalash stavkasi). Ochiq bozordagi operatsiyalar. Qayta sotib olish to'g'risida kelishuv (REPO). Qat'iy va yumshok pul kredit siyosati. Pul kredit siyosatining ta'sirini ishlab chiqarish xajmiga etkazish mexanizmi. Etkazish mexanizmidagi buzilishlarning sabablari va oqibatlari. YAIMning o'sishi va pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosatining ko'zda tutilmagan salbiy samaralari. Pul-kredit va byudjet-soliq siyosatini muvofiklashtirish muammolari, siqib

chiqarish samarasi. O'zbekiston Respublikasida bank tizimi barqarorligini oshirish va pul-kredit siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

**8-mavzu: Tovar va pul bozorining birligi: "investitsiya - jamg'arma, likvidlikni afzal ko'rish - pul" modeli (IS-LM)**

Yalpi talab komponentlari orasida iste'molning o'rnini. Iste'mol funksiyasining algebraik va grafik ko'rinishi. "Asosiy psixologik qonun". Avtonom iste'mol. Daromad (shaxsiy tasarrufdagi daromad) va iste'mol o'rtasidagi o'zaro bog'liklik. Jamg'arish funksiyasi va grafigi. Foiz stavkasi va jamg'arish. Xususiy, davlat va tashqi dunyo jamg'armalari. Iste'molga (ARS) va jamg'arishga o'rtacha moyillik (APS). Iste'molga (MPC) hamda jamg'arishga (MPS) chegaraviy moyillik. O'zbekiston Respublikasida iste'mol va jamg'arish jarayonlari xususiyatlari.

Investitsiya tovarlariga talabining yalpi talabdagi o'rnini. Avtonom investitsiyalar. Foiz stavkasi. Kutilayotgan sof foyda normasi. Tobin koeffitsienti. Investitsiyalarga talab funksiyasi. Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi boshqa omillar. Akselerator modeli. To'liq investitsiya funksiyasi. Investitsiyalashga chegaraviy moyillik. Investitsiyalarning beqarorligini belgilovchi omillar. O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

Xiks-Xansen modelining mohiyati. Tovarlar va xizmatlar hamda pul bozorlaridagi muvozanatni umumlashtiruvchi model. Modelning tenglamalari va asosiy o'zgaruvchilari. Ekzogen va endogen o'zgaruvchilar. Empirik koeffitsientlar. Tovarlar va xizmatlar bozoridagi muvozanat. IS egri chizig'i. IS egri chizig'ining daromadlar o'qiga nisbatan yotiqdigi va tikligi. IS egri chizig'ining tenglamasi. IS egri chizig'ining surilishlarini belgilovchi omillar.

Pul bozoridagi muvozanat. LM egri chizig'i. Egri chiziqning daromad o'qiga nisbatan yotiqdigi va tikligi. LM egri chizig'ining tenglamasi. LM egri chizig'ining gorizontaal, ko'tarilib boruvchi va vertikal kesimlarida mul'tiplikator samarasi. Daromadlar, pulga talab va foiz stavkasi. LM egri chizig'ining algebraik natijasi. LM egri chizig'i siljishlari. IS-LM modelidagi muvozanat. Tovar va pul bozoridagi muvozanat. Baholar darajasi pasayishi natijasida ikki bozor tizimida muvozanatning o'zgarishi. IS-LM modelida byudjet soliq siyosati. Davlat harajatlari va soliq stavkalarining o'zgartirilishi. Siqib chiqarish samarasi va byudjet soliq siyosati samaradorligi. IS-LM modelida pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosatining

samaradorligi. Likvidlilik tuzog'i. Investitsiya tuzog'i. Baholar O'zgarishi sharoitida rag'batlantiruvchi fiskal va pul-kredit siyosati. Modelda qisqa muddatli va uzoq muddatli muvozanat.

### **9-mavzu: Umumiy taklif va Fillips egri chizig'i**

Inflyasiya: mohiyati, hisoblanishi va turlari. Inflyasiya darajasi. Inflyasiyani midoran o'lchash. Narxlarning barqaror o'sishi sharoitida inflyasiya darajasi. Inflyasiyaning sabablari, puling miqdoriy nazariyasi. Pul massasining ko'payishi. Pulning aylanish tezligi ortishi. Mahsulot ishlab chiqarish xajmlarining pasayishi. Iqtisodiyotdagi monopolizm darajasi. Davlat harajatlari. Inflyasion soliq. Inflyasiyaning sur'atlariga ko'ra turlari. Talab inflyasiyasi: mohiyati va modeli. Inflyasion kutish. Inflyasiyaning kritik nuqtasi. Harajatlar inflyasiyasi: mohiyati va modeli. Firmalar monopolizmi va kasaba uyushmalari monopolizmi. Xomashyo va energiya baholarining o'sishi. Talab va taklif inflyasiyasining qo'shilish modeli. Inflyasion spiral. Ochiq va bosib turilgan inflyasiya. Bozor mexanizmi deformatsiyasi. Baho signallarining buzilishi. Kutilgan va kutilmagan inflyasiya. Inflyasiya va foiz stavkalari. Fisher samarasi. Inflyasiyaning ijtimoiy oqibatlari. Inflyasiya va ishsizlik. Fillips egri chizigi. Inflyasiya sur'ati va ishsizlik darajasi o'rtasidagi optimal mutanosiblik. Inflyasiyaga qarshi siyosatning mohiyati, vositalari. "Karaxt qilib davolash" va gradualizm. Adaptatsiya siyosati. Inflyasiyaga qarshi siyosatning monetaristik yo'nalishi. Daromadlar va narxlarni tartibga solish siyosati. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi inflyasiya jarayonlari va antiinflyasiya siyosati xususiyatlari.

### **10-mavzu: Iqtisodiy o'sish**

Iqtisodiy o'sish tushunchasi, ahamiyati. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i. Ishlab chiqarishning potensial hajmi dinamikasi. Iqtisodiy o'sishning o'lchanishi, real YAIM va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real YAIM dinamikasi. Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish. Ekstensiv o'sishning resurs, texnologik va ekologik cheklovlari. Iqtisodiy o'sishning taklif, talab va taqsimot omillari. Ishlab chiqarishning moddiy-ashyoviy omillari. Mehnat unumdorliginini oshiruvchi omillar. Iqtisodiy o'sish modellarining mohiyati va ahamiyati. Iqtisodiy o'sishning neokeynscha modellarining o'ziga xos xususiyatlari, kapitalning chegaraviy unumdorligining doimiyliigi, ishlab chiqarish omillarining substitut emasligi. E.Domar modeli. Investitsiyalar - talab omili. Akselerator prinsipi. Investitsiyalar- taklif omili. Talab tenglamasi. Taklif tenglamasi. Kapital unumdorligi. Mul'tiplikator. Talab va taklif muvozanati tenglamasi. R.Xarrod modeli. Ishlab chiqarish va investitsiya xajmlari o'rtasidagi

bog'liqlik modeli. Haqiqiy, kafolatlangan va tabiiy o'sish sur'atlari. To'liq bandlik sharoitida barqaror o'sish formulasi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish sur'atlari va omillari.

Noklassiklar tomonidan iqtisodiy o'sishning keynscha - nazariyasi tanqidi. Kapitalnin chegaraviy unumdorligi va ishlab chiqarish omillari nisbatining o'zgarishi. Robert Solou modeli, modelda yalpi taklif funkdiyasi. Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasi. Mehnat va kapital xajmlari hamda unumdorligi. Modelda yalpi talabning o'sishi. Kapital jamg'arish. kapitalning chiqib ketishi. Mehnatning kapital bilan kurollanganligi darajasi. Jamg'arish normasi. Aholi sonining o'sishi. R.Solou modelida texnik taraqqiyot va kapital bilan kurollanganlikning barqaror darajasi. Jamg'arish normasi va E. Felpsning "oltin qoida"si. Jamg'arish normasini o'zgartirish siyosati. Texnik taraqqiyotni rag'batlantirish. A.Lyuisning iqtisodiy o'sish modeli. Agrar va sanoat sektori. Mehnat resurslarini qishloq xo'jaligidan sanoatga qayta taqsimlash. Modelning qo'llanishi imkoniyatlari.

### **11-mavzu. Iqtisodiy tsikllari**

Kechikishlarsiz multiplikator-akseleretor model. Kechikishlar bilan multiplikator- akseleretor model. Keynscha biznes siklining yangi modellari. Haqiqiy biznes tsikli modellari. Nordxaus va Alesina siyosiy tsikllarining modellari

#### **II.2. Ma'ruza mavzularini taqsimlanishi**

№	Mavzular	Soati
1	1-mavzu. Makroiqtisodiyot" ga kirish.	2
2	2-mavzu. Milliy hisoblar tizimi. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar	2
3	3-mavzu Haqiqiy va nominal ko'rsatkichlar. Narxlar indeksleri.	2
4.	4-mavzu Talabni shakllantirish va resurs bozorlaridagi takliflar. To'liq ish kuni va potentsial chiqarish	2
5.	5-mavzu. Bandlik va ishsizlik. Tabiiy ishsizlik	2



6.	6-mavzu. Investitsiyalar va jamg'armalar	2
7.	7-mavzu. Moliya tizimi. Moliya tizimining funksiyalari	2
8.	8-mavzu Davlat budjetining tuzilishi	6
9.	9-mavzu. Davlat balansi byudjet. Davlat jamg'arma va BNP	2
10.	10-mavzu. Iqtisodiy o'sish	4
11.	11-mavzu. Iqtisodiy tsikllar	2
	<b>jami</b>	<b>40</b>

### III.1. AMALIY MASHG'ULOT MAVZULARI

#### 1-mavzu: Makroiqtisodiyot" ga kirish.

«Makroiqtisodiyot» ning shakllanish tarixi, predmeta va ob'ekta. Dastlabki makroiqtisodiy tahlil elementlari, "Kene jadvali". Iqtisodiyotga davlat aralashuvining zarurligi. Keynes nazariyasining mohiyati. Makroiqtisodiyot fanining shakllanishi. Asosiy makroiqtisodiy muammolar. Uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyo makroiqtisodiyot sub'ektlari sifatida. Makroiqtisodiyotning iqtisodiyot sohasidagi boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullari. Agregatlashning afzalliklari va kamchiliklari. Makroiqtisodiy modellar. YOpiq va ochiq iqtisodiyot. Endogen va egzogen o'zgaruvchilar. Doiraviy aylanish modeli. "Daromadlar-harajatlar" va "resursdar-mahsulotlar" oqimi. Qarama-qarshi oqimlar o'rtasidagi tenglikning buzilishi sabablari. Makroiqtisodiyot sub'ektlarining o'zaro aloqalari, maqsad va funksiyalari. "Oqimdan chetga chiqish" va "chetdan oqimga qo'shilish"lar. Makroiqtisodiy siyosat ko'rinishlari.

#### 2-mavzu: Milliy hisoblar tizimi. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi., Milliy hisoblar tizimining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichi sifatida Yalpi ichki maxsulot (YAIM) ko'rsatkichining mohiyati. Iqtisodiy hudud. Rezident. Oraliq hamda yakuniy tovarlar va xizmatlar. Bozor baholari. YAIMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli. Qo'shilgan qiymat, bir qiymatni ikki bor hisobga olishni istisno etish. YAIMni harajatlar bo'yicha

hisoblash. SHaxsiy iste'mol harajatlari. Yalpi investitsiyalar. Tovarlar va xizmatlarning davlat haridi. Sof eksport. O'zbekiston Respublikasida YAIMning ishlab chiqarish hamda yakuniy iste'molga ko'ra tarkibi. YAIMni daromadlar bo'yicha hisoblash. Boshlang'ich daromadlarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi. Yalpi milliy daromad. Sof ichki maxsulot. Sof milliy daromad. Shaxsiy daromad. Shaxsiy tasarrufdagi daromad. Iste'mol. Jamg'arish. Yalpi milliy tasarrufdagi daromad. Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar. Daromadlar va harajatlar tengligi. Investitsiyalar va jamg'armalar tengligi. Xususiy, davlat va tashqi dunyo jamg'armalari. Nominal va real YAIM. Baholar indeksleri. YAIM deflyatori (Paashe indeksi). Iste'mol narxlari indeksi (INI). Fisher indeksi. YAIMni hisoblash usullarini takomillashtirish zaruriyati va yo'nalishlari.

### **3-mavzu: Makroiqtisodiy beqarorlik. (Ishsizlik)**

Iqtisodiy davrlarning mohiyati. Iqtisodiy tebranishlarning sabablari: Ilmiy texnika taraqqiyoti. Siyosiy hodisalar. Jahon bozorida energoresurslar narxlarining o'zgarishi. Tabiat xodisalar. Talab va taklif o'rtasidagi nisbat. Yalpi xarajatlardagi o'zgarishlar. Iqtisodiy davrlarning bosqichlari va ularning tavsifi. Iqtisodiy tebranishlarning turli tarmoqlarga ta'siri. Iqtisodiy tebranishlarning hozirgi kundagi xususiyatlari. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar. Iqtisodiy tebranishlarga bozorlardagi monopol tuzilmalar, davlatning taribga soluvchilik roli, ilmiy texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishning baynalminallashuvi ta'siri.

Ishsizlik tushunchasi. Ish bilan bandlar va ishsizlar. Ishsizlikning neoklassik va keynscha konsepsiyalari. A.Piguning neoklassik konsepsiyasi. Real ish haqi, ish kuchi taklifi va unta talab. Ishsizlikning keynscha konsepsiyasi. Majburiy ishsizlik. Bandlilik mul'tiplikator. Ishsizlik turlari va ish bilan to'la bandlik. Ishsizlikning haqiqiy va tabiiy darajasi. Potensial va haqiqiy YAIM. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlar. Ouken qonuni. Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlar. O'zbekiston Respublikasida yangi ish o'rinlar yaratish va aholining ish bilan bandligini ta'minlash siyosatining xususiyatlari va yo'nalishlari.

### **4-mavzu: Umumiy makroiqtisodiy muvozanat: yalpi talab va yalpi taklif modeli (AD-AS)**

Yalpi talab tushunchasi. AD egri chizig'i. Baho omillari. Foiz stavkasi

samarasi. Boylik samarasi va import haridlari samarasi. AD egri chizigi traektoriyasi. Pulning mikdoriy nazariyasi. Baholar darajasi va yalpi talab o'rtasidagi teskari bog'liklik. Bahodan boshqa omillarning yalpi talabga ta'siri. Iste'mol xarajatlaridagi, investitsiya harajatlaridagi, davlat harajatlaridagi va sof eksportdagi o'zgarishlar. Yalpi taklif tushunchasi va egri chizig'i. Resurslar bahosning o'zgarishi. Unumdorlikning o'zgarishi. Soliqlarning o'zgarishi. Yalpi taklifdagi o'zgarishlar. YAlpi taklifning klassik modeli. Nominal kattaliklarning o'zgaruvchanligi. Real kattaliklarning qat'iyiligi. AS egri chizig'ining vertikaligi. AS egri chizig'ining ishlab chiqarish omillari va texnologiyalar ta'sirida siljishi. Yalpi taklifning keynscha modeli. Nominal kattaliklarning nisbatan kat'iyiligi. Real kattaliklarning nisbatan o'zgaruvchanligi. YAlpi talab ta'sirida yalpi taklif egri chizig'idagi siljishlar. Baholarning muvozanatli darajasi. Ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi. Umumiy muvozanat tushunchasi. Val'rasning umumiy muvozanat tenglamasi. AD-AS modelida muvozanatning ta'minlanishi mexanizmi Talab shoklari. Taklif shoklari. Yalpi taklif o'zgarishining oqibatlari. Barqarorlashtirish siyosati. Pul taklifi va davlat harajatlarining o'zgartirilishi.

### **5-mavzu: Tovar bozoridagi muvozanatning Keyns modeli**

Klassik makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi tanqidi. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi. Bozor mexanizmi tomonidan yalpi talab va yalpi taklif muvozanati ta'minlanishining doimiy emasligi. "Investitsiya - jamg'arish" modeli. Investitsiyalash va jamg'arish rejalarining turlicha ekanligi. "Daromadlar - harajatlar" modeli - Keyns xochi. Xaqiqiy va rejalashtirilgan harajatlar. Modelni tuzishdagi asosiy shartlar. Sof eksport funksiyasi. Importga chegaraviy moyillik. Modelda makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmi Tovar moddiy zahiralarning rejalashtirilmagan o'zgarishlari. Haqiqiy investitsiyalar va rejalashtirilgan investitsiyalar tengligi. Zaxiralarning o'zgarishi. Avtonom harajatlar dinamikasi va uning ta'sirida muvozanatli YAIM xajmining o'zgarishi. Mul'tiplikator samarasi. Avtonom harajatlarning mul'tiplikatsiyasi mexanizmi. Iste'molga chegaraviy moyillik va mul'tiplikatsiya samarasi. Mul'tiplikator formulasi. Retsession va inflyasion uzilish.

## **6-mavzu: Davlatning byudjet-soliq (fiskal) siyosati**

Byudjet-soliq (fiskal) siyosati: mohiyati, maqsadlari, vositalari. Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosat. YOpiq va ochik iqtisodiyotda davlat harajatlari mul'tiplikatori. Soliq mul'tiplikatsiyasi mexanizmi. Soliq mul'tiplikatori. Balanslashgan byudjet mul'tiplikatori. Soliqlarni kamaytirilishi samarasi va davlat harajatlarini oshirilishi samarasi.

Diskret fiskal siyosat. Davlat byudjeta taqchilligi va profitsiti. Nodiskret fiskal siyosat. Avtomatik barqarorlashtirgichlar. Progressiv soliq tizimi. Davlat transfertlari tizimi. Davriy taqchillik va davriy profitsit. Davlat byudjetining tarkibiy taqchilligi. Tarkibiy profitsit. Taqchillikni moliyalash usullari. Taqchillikni monetlashtirish va Oliver-Tanzi samarasi. Davlat obligatsiyalarini chiqarish va siqib chiqish samarasi. O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq- siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

## **7-mavzu Pul va pul bozori. Davlatning pul-kredit (pul-kredit) siyosati**

Pul tushunchasi va funksiyalari. Pul agregatlari: M1, M2, M3, L, "kvazi pullar". Pulga talabga monetarcha yondoshuv. Fisher va Kembrij tenglamalari. Pulning aylanish tezligi. Baholar darajasi, real YAIM xajmi va pulga talab. Pulga bo'lgan real talab. "Pul mablag'larining real zahirasi". Pulga talabning keynscha nazariyasi - likvidlilikni afzal ko'rish nazariyasi. Bitimlar uchun, ehtiyotkorlik shartiga ko'ra va mulk sifatida pulga (spekulyativ) talab. Pulni saqlashning muqobil qiymati. Pulga spekulyativ talab va qimmatli qog'ozlar daromadlilik darajasi o'rtasidagi teskari bog'liqlik. Pulga talab funksiyasi. Pulga talab egri chizig'i grafigi. Fisher samarasi. Nominal foiz sgavkasi va pulga talab. Pulga talabga portfelli yondoshuv. Aktivlar portfelining tarkibi, unda naqd pulning ulushi. Jamg'arilgan boylik xajmi va pulga talab.

Pul taklifi. Naqd pullar va depozitlar. Tijorat banklari tomonidan "pul massasining yaratilishi". Kredit mul'tiplikatsiyasi. Depozitlarni majburiy zahiralanish normasi. Majburiy va orgiqcha zahiralar. Bank mul'tiplikatori. Pul taklifining qiskartirilgan modeli. Pullarning depozitlardan naqd pullarga oqib o'tishi, deponentlash koeffitsenti. Pul bazasi. Pul mul'tiplikatori. Pul taklifining kengaytirilgan modeli. Markaziy Bank tomonidan pul taklifini nazorat qilish va tartibga solish vositalari. Baholar darajasi qayd kdlingan va

**22. Pul bozorida muvozanat holatini izohlang va u qay yo'sinda o'zgarishini tushuntirib bering.** Pulga talab va pul taklifi egri chiziqlarining kesishuvi nuqtasi, Real pul zahiralari muvozanatli hajmi, muvozanatli foiz stavkasi, pulga talabning daromadlar dinamikasi ta'sirida o'zgarishi va buning pul bozoridagi muvozanatga ta'siri. Pul taklifi o'zgarishining pul bozoridagi muvozanatga ta'siri.

**23. Yopiq iqtisodiyot sharoitida davlat xarajatlari mul'tiplikatori ko'rsatkichini tavsiflab bering.** Davlat xarajatlari o'zgarishining daromadlar o'zgarishiga mul'tiplikativ ta'siri mexanizmi. Yopiq iqtisodiyotda soliqqa tortish hisobga olinmagan va hisobga olingan sharoitda davlat xarajati mul'tiplikatori. Asosiy makroiqtisodiy ayniyat va iste'mol funktsiyasi asosida davlat xarajatlari mul'tiplikatorini keltirib chiqarish. CHegaraviy soliq stavkasi.

**24. Byudjet taqchilligi (defitsiti) va ortiqchaligi (profitsiti)ning mohiyatini va kelib chiqishi sabablarini tushuntirib bering.** Daromadlar oshishi va kamayishi natijasida soliq tushumlari va byudjet xarajatlarining o'zgarishi, tarkibiy, davriy va haqiqiy taqchillik. Byudjet taqchilligi va profitsitining grafik ko'rinishi..

**25. Byudjet taqchilligini moliyalashtirish va profitsitni chegirib olish usullariga izoh bering.** Taqchillikni moliyalashtirish usullari, monetizatsiya, senyoraj va Oliver-Tanzi samarasi, inflyatsiya va byudjetga to'lovlarni kechiktirishga urinish. Davlat obligatsiyalarini chiqarish, xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar hisobiga moliyalashtirish. Profitsit miqdorini muzlatib qo'yish zarurati.

**26. O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.** Iqtisodiyotga soliq yukini pasaytirish, soliq tushumlari tarkibida bevosita soliqlar ulushinig kamatirib borilishi, soliq stavkalarining pasaytirilishi, soliqlarni unifikatsiyalash va turlarini qisqartirish, soliqlarning rag'batlantiri funktsiyasini kuchaytirish,

**27. Ochiq bozordagi operatsiyalarning mohiyatini va pul taklifi hajmiga ta'sirini tushuntirib bering.** Qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori, Davlat obligatsiyalari, Davlat obligatsiyalarini sotish va sotib olish, pul bazasining kengayishi va qisqarishi, pul taklifi.

**28. Qayta moliyalash stavkasining mohiyatini va qo'llanilishidan kutilgan maqsadlarni tushuntirib bering.** Tijorat banklari resurslarining cheklanganligi, Markaziy bankning tijorat banklariga krediti, hisob stavkasi-qayta moliyalash stavkasi, stavkaning pasaytirilishi, pul taklifi, investitsiyalar, yalpi ishlab chiqarish dinamikasi.

**29. Yumshoq va qat'iy pul-kredit siyosatining mohiyatini tushuntiriy va qiyosiy tavsifini bering.** Inflyatsiyani cheklash va milliy valyutaning almashinuv kursini barqarorlashtirish zaruriyati, qayta moliyalashtirish stavkasi va zahira me'yorlarining ko'tarilishi. Investitsiyalarni rahbatlantirish zaruriyati, yumshoq pul kredit siyosati..

**30. IS-LM modelining asosiy tenglamalarini yozing va tushuntirib bering.**

Asosiy makroiqtisodiy ayniyat, iste'mol, investitsiya va sof eksport funksiyalari, pulga talab funksiyasi. Tenglamalardagi endogen va ekzogen ko'rsatkichlar, empirik koeffitsentlar.

**31. IS - egri chizig'ini keltirib chiqaring va tavsiflab bering.** Foiz stavkasi va daromad darajasi kombinatsiyalari, tovarlar va xizmatlar bozorida muvozanat, Keyns xochi, investitsiya funksiyasi va IS –egri chizig'i. Jamg'arish funksiyasi, investitsiya funksiyasi va IS –egri chizig'i.

**32. LM - egri chizig'ining grafik ko'rinishi va algebraik tenglamasini keltiring va tavsiflab bering.** Foiz stavkasi va daromad darajasi kombinatsiyalari, pul bozorida muvozanat. Daromadlar o'zgarishi, pulga talabning o'zgarishi, pul taklifi, foiz stavkasi, LM –egri chizig'i. LM –egri chizig'ining algebraik ko'rinishi.

**33. IS-LM modelida (tovar va pul bozoridagi umumiy) muvozanatga tavsif bering.** Modelda makroiqtisodiy muvozanatning grafik ko'rinishi, algebraik tenglamasini topish shartlari, muvozanatli foiz stavkasi, daromadlarning muvozanatli darajasi.

**34. Xeksher-Olinning neoklassik kontseptsiyasidagi asosiy fikrlarni tushuntiring vaa "Leont'ev paradoksi" ga izoh bering.** Nisbiy ustunlik va ishlab chiqarish omillari bilan ortiqcha ta'minlanganlik, ixtisoslashuv. Savdo to'siqlarini kamaytirish va omillar hamda tovarlar narxlarining tenglashuvi, ishlab chiqarish omillari eksporti. Leont'ev paradoki, AQSHda kapital ortiqchami yoki ishchi kuchi?

**35. Zamonaviy xalqaro savdo nazariyalarining mohiyatini yoritib bering.** Texnologik taraqqiyot, texnologiyalar( darajasi)dagi uzilish, Porterning raqobat ustunligi naza-riyalari.

Milliy iqtisodiyotning raqobatga bardoshliligi, davlatning iqtisodiy siyosati, eksportyorlarni qo'llab quvvatlash, "milliy romb" ni tashkil etuvchi to'rt sharoit.

**36. Ichki ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalarning importga tarif kiritilishidan afzal jihatlarini va kamchiliklarini ochib bering.**

Subsidiyalar, ishlab chiqarishning o'sishi, baholarning ko'tarilmasligi,

importning kamayishi, resurslardan nooqilona foydalanish, byudjetdan moliyalashtirish imkoniyatlari.

**37. Eksport bojarini kiritishning iqtisodiy oqibatlarini sharhlab bering.** Eksport bojlari, ichki baholarining pasayishi, ishlab chiqarishning pasayishi va ichki iste'molning o'sishi, .

**38. Tashqi savdo siyosatida dempingni va va dempingga qarshi tadbirlarning mohiyatini ochib bering.** Demping, qo'llanilish zaruriyati, ichki baholar, tashqi bozordagi baholar, eksport subsidiyalari orqali qo'llash, kompensatsion bojar va importga tariflar orqali kurashish, GATT va BST tomonidan dempingga qarshi choralar, bu choralarni chetlab o'tish yo'llari.

**39. Tashqi savdo siyosatining tarif va notarif usullariga qisqacha qiyosiy baho bering.** Tarif usullarini qo'llash imkoniyatlari, afzalliklari, kamchiliklari,. Notarif usullarni qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari.

**40. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo siyosatining xususiyatlarini izohlab bering.** Yangi tarmoqlarni himoya qilish choralari. Eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab quvvatlash. Tashqi savdoni erkinlashtirish choralari. Eksport tarkibini diversifikatsiyalash.

**41. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdosi ko'rsatkichlari ni tahlil qilib bering.** Tashqi savdo aylanmasi va uning tarkibi. Eksport va import dinamikasi va ular tarkibidagi siljishlar.

**42. O'zbekiston Respublikasini Butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lib kirishini belgilovchi shart sharoitlar.** Tashkilotga a'zo bo'lishdan olinadigan yutuqlar va unga kirish shartlari. Avtomobilsozlik, yengil sanoat tarmoqlariga BSTga a'zo bo'lishning mumkin bo'lgan ta'siri. Tayyorgarlik tadbirlari



**43. To'lov balansiga umumiy tavsif bering.** Mamlakat rezidentlari va tashqi dunyo, iqtisodiy bitimlar, qiymat almashinuvi, joriy operatsiyalar, kapital bilan operatsiyalar, rasmiy zahiralarning o'zgartirilishi.

**44. Joriy operatsiyalar balansi (JOB)ning mohiyati va tuzilishini sharhlab bering.** Tovarlar eksporti va importi, xizmatlar eksporti va importi, chet eldan sof omilli daomadlar, sof joriy transfertlar, JOB qoldig'i, absorbtsiya.

**45. Kapital harakati balansi qanday tuzilishga ega va to'lov balansi qoldig'i nima?** CHet ellardagi sof aktivlar, aktivlarni sotishdan olingan tushum va sotib olishga qilingan xarajat, kapital harakati balansi qoldig'i, to'lov balansi qoldig'i

**46. Valyuta kursi atamasi nimani anglatadi, valyuta kursining qanday turlari mavjud?** Valyuta kursi, kotirovka, egiluvchan valyuta kursi, milliy bozorda xorijiy valyutaga talab va auning taklifi, qat'iy belgilangan valyuta kursi, valyuta zahiralari va to'lov balansi barqarorligi.

**47. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflab bering.** Iste'molchilar dididagi, nisbiy daromadlardagi nisbiy foiz stavkalaridagi o'zgarishlar, baholarning nisbiy darajasidagi o'zgarishlar, spekulyatsiya.

**48. Nominal va real valyuta kursining mohiyatini tushuntirib bering.**

Nominal valyuta kursi-almashinuv kursi, real valyuta kursi- savdo sharoiti, xorijiy davlatdagi va valyutasi kursi belgilanayotgan davlatdagi baholar indeksi.

**49. Mandell-Flemingning ochiq iqtisodiyot modelini izohlab bering.** Kichik ochiq iqtisodiyot, uning rivojlanishiga jahon bozori ta'siri, kichik ochiq iqtisodiyot uchun IS-LM modeli, modeldagi uch tenglama, IS egri chizig'i va almashinuv kursi, ichki va jahon foiz stavkasi, davlat iqtisodiy siyosatining valyuta kursiga bog'liqligi

**50. Ichki va tashqi muvozanatning mohiyati va ularga ta'sir etuvchi omillarni izohlab bering.** Talab va taklifning balanslashganligi, turli valyuta kursi rejimlarida to'lov balansining nolga teng qoldig'ini ta'minlash, joriy operatsiyalar schyoti qoldig'i, valyuta zahiralari darajasi. Ichki va tashqi balansni ta'minlash usullari, tashqi muvozanatni ta'minlashdagi qiyinchiliklar, kapitalning davlatlararo harakatidagi murakkabliklar.

### III. Murakkab savollar

**1. O'zbekiston Respublikasida YaIMning ishlab chiqarish bo'yicha tarkibini tahlil etib bering.** Sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushlari va ulardagi o'zgarishlar. Sof bilvosita soliqlar.

**2. O'zbekiston Respublikasida YaIMning iste'mol (xarajatlar) bo'yicha tarkibini tahlil etib bering.** Uy xo'jaliklari iste'moli, davlat iste'moli, investitsiyalar, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va tovar moddiy zahiralarning o'zgarishi, sof eksportning YaIM dagi ulushlari va ulardagi o'zgarishlar.

**3. Real YaIMni hisoblash zarurati va usullarini yoritib bering.** Nominal YaIM, baholar darajasining nominal YaIM dinamikasiga ta'siri, taqqoslama (bazis yil) baholar, Real YaIM, baho indeksleri, YaIM deflyatori va iste'mol narxleri indeksi.

**4. Milliy hisobchilik tizimidagi YaIMdan boshqa ko'rsatkichlarga ta'rif bering va hisoblash usullarini tushuntiring.** Yalpi milliy daromad, SHaxsiy daromad, SHaxsiy tasarrufidagi daromad, Yalpi milliy tasruffdagi daromad, iste'mol, jamg'arish.

**5. Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlarni tushuntiring va investitsiyalar=jamg'armalar ayniyatini keltirib chiqaring.**

Daromadlar va xarajatlar tengligi, Yalpi talab va yalpi taklif tengligi, Investitsiyalar va jamg'armalar tengligi. Davlat jamg'armalari, xususiy jamg'armalar va tashqi dunyo jamg'armalari.

**6. Fillips egri chizig'ining mohiyatini ochib bering.** Qisqa davrda ishsizlik va inflyatsiya darajalari o'rtasidagi bog'liqlik, bandlilikning ortishi, ish haqi xarajatlarning ko'payishi, yalpi talabning va baholar darajasining ortishi, haqiqiy inflyatsiya darajasi bilan kutilayotgan inflyatsiya darajasi va tabiiy ishsizlik darajalari o'rtasidagi bog'liqlik.

**7. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan aksinfllyatsiya siyosatining xususiyatlarini izohlab bering.** "Karaxt qilib davolash" usulidan voz kechish sabablari, graduallash, baholar va daromadlar siyosati, tarkibiy o'zgarishlar siyosati, monetar instrumentlardan foydalanish xususiyatlari.

**8. AD —AS modelining mohiyatini, modelda makroiqtisodiy muvozanatning ko'rinishi va unga erishish mexanizmini yoritib bering.** AD va AS egri chiziqlarining kesishuvi, muvozanatli YaIM va muvozanatli baholar darajasi. Aynan AD va AS egri chiziqlarining kesishuv nuqtasi muvozanat nuqtasi ekanligi isboti.

**9. Yalpi taklifning bahodan boshqa omillarini va ularining AS egri chizig'iga ta'sirini tushuntirib bering.** Texnologiyalardagi o'zgarishlar, ishlab chiqarish omillarining o'zgarishi, resurs baholarining o'zgarishi, soliqqa tortishdagi o'zgarishlar. Bu omillar ta'sirida AS egri chizig'idagi siljishlar.

**10. Iste'molning mohiyati va grafigin izohlab bering.** Daromad, shaxsiy tasarrufdagi daromad va iste'mol. Iste'mol xarajatlarining YaIMdagi ulushi, iste'mol grafigi, iste'mol-daromad tengligi egri chizig'i (bissektrisa), haqiqiy iste'mol egri chizig'i, avtonom iste'mol, bo'sag'aviy daromad, qarz hisobiga yashash, jamg'arish.

**11. Jamg'arishning mohiyati va grafigini izohlab bering.** Daromad, shaxsiy tasarrufdagi daromad, iste'mol va jamg'arish. Jamg'arishning mohiyati, ahamiyati, grafigi. Yalpi jamg'armalar, xususiy jamg'armalar, mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan tashqi dunyo jamg'armalari.

**12. Iste'mol va jamg'arish funksiyalarini yozing va tushuntirib bering.**

Iste'mol funksiyasi, avtonom iste'mol, b- koeffitsient (iste'molga chegaraviy moyillik), Daromadlar-U, chegaraviy soliq stavkasi-t?, soliqlar- T, jamg'arish funksiyasi.

**13. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb etishni ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora tadbirlarni keltirib ularni izohlang.** Investitsiya muhitini yaxshilash, investorlarga soliq imtiyozlari, soliq stavkalarini pasaytirilishi, inflyatsiya sur'atlarining pasaytirilishi, foiz stavkalarining tushirilishi, bozor infratuzilmasini rivojlantirish.

**14. Akselerator modelining mohiyatini yoritib bering.** Investitsiyalarning daromadlarga va daromadlarning investitsiyalarga ta'siri, YaIM hajmi va investitsiyalash imkoniyati, Modelning algebraik formulasi, rejalashtirilgan investitsiyalar, Investitsiyalar miqdorining nisbatan barqaror emasligi sabablari.

**15. Iste'mol-jamg'arish modelining mohiyatini tushuntirib bering.** Foiz stavkasi dinamikasi, jamg'arishdagi o'zgarishlar, investitsiyalardagi o'zgarishlar, jamg'arish va investitsiyalarning tenlashuvi, muvozanatli foiz stavkasi

**16. Klassik iqtisodchilarning makroiqtisodiy muvozanat modeli xususiyatlarini ochib bering.** J.B.Seyning bozorlar qonuni, yalpi talab va yalpi taklifning doimo teng bo'lishi, egiluvchan baholar, ish haqi va foiz stavkalari, pulning neytralligi, klassik dixotomiya- pul va tovarlar hamda xizmatlar bozorining parallel amal qilishi, pul bozorida jamg'armalar va investitsiyalar tengligining ta'minlanishi.

**17. Keyns xochini chizing va grafikda keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli mohiyatini tushuntiring.** Rejalashtirilgan xarajatlar, daromad (real xarajatlar),  $Y=E$  egri chizig'i, Rejalashtirilgan xarajatlar egri chizig'i, muvozanat nuqtasi. Tovar zahiralarning rejalashtirilmagan qisqarishi va jamg'arilishi.

**18. Avtonom xarajatlar mul'tiplikatorining mohiyatini tushuntirib bering.** Avtonom xarajatlar, avtonom xarajatlar mul'tiplikator, mul'tiplikator samarasi, MPC va mul'tiplikator.

**19. Retssession va inflyatsion uzilishning mohiyatini va ularni bartaraf etish mexanizmini yoritib bering.** Haqiqiy YaIM hajmining noinflyatsion potentsial YaIM hajmidan ortda qolishi yoki ortiq bo'lishi. Yetishmagan va ortiqsa yalpi talab. Yalpi talabni oshirish va kamaytirish orqali uzilishlarni bartaraf qilish.

**20. Tejamkorlik paradoksi hamda AD- AS modeli va Keyns xochi o'rtasidagi aloqadorlikni tushuntirib bering.** Ortiqcha jamg'arishga intilish, iste'molning kamayishi, mul'tiplikator samarasi, YaIMning kamayishi, jamg'arishning kamayishi. Keyns xochi va AD- AS modelining xususiy holi ekanligi, modellar o'rtasidagi farqlar.

**21. Pul taklifi asosida nimalar yotadi? Bank mul'tiplikator qanday aniqlanadi?** Bankdan tashqaridagi naqd pullar va bank depozitlaridagi mablag'lar. Tijorat banklari tomonidan kredit pullarni yaratilishi. Depozitlarni majburiy zahiralash me'yori va bank mul'tiplikator.

**22. Pul taklifining umumiy modeli mohiyatini tushuntirib bering.**

Likvidlikni afzal ko'rish nazariyasi, deponentlash koeffitsenti. Pul bazasi, naqd pullar va bank zahiralari, pul mul'tiplikator. Depozitlarni majburiy zahiralash normasi va deponentlash koeffitsenti o'zgarishlarining pul mul'tiplikatoriga ta'siri.

**23. Pul mul'tiplikatorining formulasini keltiring va mohiyatini tushuntirib bering.** Majburiy zahira me'yori, deponentlash koeffitsenti, pul taklifining pul bazasiga nisbati, pul mul'tiplikator o'zgarishining pul taklifiga ta'siri.

**24. Pul bozorida muvozanat.** Muvozanatli foiz stavkasi, muvozanat nuqtasi, pulga talab va pul taklifi o'zgarishlarining pul bozorida muvozanatga ta'siri. LM egri chizig'i.

**25. Byudjet soliq siyosatining ko'rinishlari.** Rag'batlantiruvchi va cheklovchi byudjet –soliq siyosati. Diskret va nodiskret byudjet-soliq siyosati. Ulardan foydalanish xususiyatlari.

**26. Ochiq iqtisodiyot sharoitida davlat xarajatlari mul'tiplikatorini tavsiflab bering.** Ochiq iqtisodiyot uchun asosiy makroiqtisodiy ayniyat, soliqqa tortish hisobga olingan iste'mol funktsiyasi, sof eksport funktsiyasi vositasida davlat xarajatlari mul'tiplikatorini keltirib chiqarish. Ochiq iqtisodiyotda mul'tiplikator samarasining pasayishi.

**27. Davlat xarajalari mul'tiplikatorining fiskal siyosat samaradorligiga ta'sirini tushuntirib bering.** Mul'tiplikator miqdorining yalpi talab miqdori o'zgarishiga ta'siri, retsession va inflyatsion uzilishlarni bartaraf etish va mul'tiplikator .

**28. O'zbekiston Respublikasida soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasini kuchaytirish borasida qanday chora tadbirlar amalga oshirilmoqda?** Soliq yukning pasaytirilishi, investorlarga soliq imtiyozlari, soliq imtiyozlarining manzilliligi, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik qayta qurollanishga qilingan xarajatlar bo'yicha soliq imtiyozlari, soliqlar yordamida eksportni va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish.

**29. Soliq mul'tiplikatorining mohiyatini va formulalarini tushuntirib bering.** Soliqlar kamaytirilishi yoki ko'paytirilishining daromadlar darajasiga multiplikativ ta'siri mexanizmi, oddiy soliq mul'tiplikator, ochiq iqtisodiyot uchun soliq mul'tiplikator.

**30. Balanslashgan byudjet mul'tiplikatorining mohiyatini tushuntirib bering.** Davlat xarajatlari mul'tiplikatorining soliq mul'tiplikatoridan kattaligi sababi, balanslashgan byudjet mul'tiplikatorining formulasining ko'rinishi, xarajatlar va soliqlar teng miqdorga oshirilganda daromadlarning oshishi.

**32. O'zbekiston Respublikasida byudjet xarajatlari samaradorligini oshirish yo'llarini tushuntirib bering.** Davlat byudjeti xarajatlari tarkibini o'zgartirib borilishi, ijtimoiy sohaga xarajatlar, markazlashgan investitsiyalar ulushining kamayib borishi, xazinachilik xizmatini joriy etish.

**33. Inqirozga qarshi choralar dasturiga ko'ra barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda byudjet-soliq siyosati vositalaridan foydalanish borasidagi tadbirlarni izohlab bering.** Soliq stavkalarining kamaytirilishi, qarzlarni to'lash muddati uzaytirilishi, tijorat banklari aksiyalarini sotib olish amaliyoti, soliq imtiyozlari doirasining kengaytirilishi.

**34. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida amalga yuritilgan pul-kredit siyosatining o'ziga xos xususiyatlari tushuntirib bering** 1992-1993 yillardagi yumshoq pul-kredit siyosati yuritilishi, 1994 yildan pul-kredit siyosatining qat'iylashuvi, pul kredit siyosatini yumshata borilishi amaliyoti, majburiy zahiralash me'yori va qayta moliyalashtirish stavkalari pasaytirilishi, 2012 yilda pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari.

**35. Inqirozga qarshi choralar dasturida qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda bank tizimining rolini oshirish yo'llarini izohlab bering.** Banklarning kapitallashuvi darajasini oshirish, bank tizimining likvidiligi ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash, aholi mablag'larini jalb etish dinamikasi, kreditlarning ichki va tashqi manbalariga ko'ra tarkibidagi o'zgarishlar, kredit portfeli tarkibini takomillashtirish, moliyaviy nochor korxonalarini banklar balansiga olish choralarini

**36. Pul-kredit va fiskal siyosatning o'zaro bog'liqligi ni asoslab bering va o'zaro muvofiqlashtirish muammolari izohlang.** Maqsadlar mumiyligi, pul kredit siyosati va fiskal siyosatning qat'iyligi darajalarining o'zaro mosligi, investitsiyaga davlat xarajatlari, baholar darajasi, foiz stavkasi, xususiy investitsiyalar.

**37. Byudjet-soliq siyosati natijasida IS egri chizig'idagi siljishlarning yo'nalishlarini va bularning sabablarini tushuntirib bering.** Soliqlarning o'zgartirilishi, davlat xarajatlardagi o'zgartirishlar, IS egri chizig'ining o'ngga va chapga siljishi oqibatlari.

**38. Pul-kredit siyosati natijasida LM egri chizig'idagi siljishlarning yo'nalishlarini va bularning sabablarini tushuntiring.** Majburiy zahiralash me'yori, qayta moliyalash stavkasi, ochiq bozordagi operatsiyalar ta'sirida pul taklifining o'zgarishi. LM egri chizig'ining o'ngga va chapga siljishi oqibatlari.

**39. IS-LM modelida fiskal va pul-kredit siyosatining ko'rinishlarini tasvirlab bering va tushuntiring.** Likvidlilik tuzog'i va investitsion tuzoq. Soliqlar va davlat xarajatlari o'zgarishi ta'sirida IS- egri chizig'idagi siljishlar, pul taklifi o'zgarishi ta'sirida LM-egri chizig'idagi siljishlar. Likvidlilik tuzog'i va investitsiya tuzog'i.

**40. Ye.Domarning iqtisodiy o'sish modeli mohiyatini tushuntirib bering.** Investitsiyalar, talab komponenti, taklif komponenti, taklif yenglamasi, talab tenglamasi, jamg'arish normasi, kapitalning unumdorligi, modelga ko'ra iqtisodiy o'sish arti.

**41. R.Xarrodning iqtisodiy o'sish modeli mohiyatini tushuntirib bering.** Akselerator printsipi, xaqiqiy o'sish sur'ati tenglamasi, kafolatlangan o'sish sur'ati tenglamasi, tabiiy o'sish sur'ati tenglamasi, ishlab chiqarishning kapital talabchanligikoeffitsenti, jamg'arishga o'rtacha moyillik.

**42. R.Solouning iqtisodiy o'sish modeli mohiyatini tushuntirib bering.** Mehnat resurslari, kapitapl, tabiiy resurslar, texnologiyalar. Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funktsiyasi, kapital bilan quollanganlik, aholining o'sish sur'ati, kapitalning chiqib ketish sur'ati, jamg'arish normasi, Felpsning oltin qoidasi.

**43. 2010-2011 yillarda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini tahlil qilib bering.** O'sish ko'rsatkichlari, inqiroz sharoitida iqtisodiy o'sishni ta'minlagan omillar. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda alohida tarmoqlar hamda talab elementlarining ulushi.

**44. Importga kiritilgan tariflarning iqtisodiyotga ta'siri mexanizmini yoritib bering.**

Tarif kiritilgandan so'nggi va undan oldingi import, jahon baholari, ichki baholar, importning qisqarishi, iste'molchilarning yo'qotishi, ishlab chiqarishning kengayishi, davlat va ishlab chiqaruvchilar yutuqlari, iste'molchilarning sof yo'qotishlari.

**45. Importni kvotalash orqali tartibga solish tartibini va uning iqtisodiy oqibatlarini sharhlab bering.** Kvotalar, ichki baholarning ko'tarilishi, importning va iste'mol hajmining qisqarishi, kvotalarning import tariflaridan afzalliklari, litseziyalash, import litsenziyalarni joylashtirish usullari.

**46. To'lov balansining tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqadorlikni tushuntirib bering.** Eksport va import farqi, ichki balans, jamg'armalar va investitsiyalar farqi, tashqi balans, xorijga kapital chiqarish va xorijdan kapital kiritish.

**47. To'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solishning zarurati nima bilan belgilanadi va usullari qanday?** Erkin tebranib turuvchi valyuta kursi sharoitida to'lov balansining avtomatik mutanosiblashuvi, rasmiy zahiralar bilan operatsiyalar, to'lov balansini inqirozi, to'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish, savdo siyosati, valyuta kursining pasaytirilishi, rag'batlantiruvchi va cheklovchifiskal siyosatning to'lov balansiga ta'siri.

**48. Nominal valyuta kursining uzoq muddatdagi va qisqa muddatdagi tavsifini bering.** Uzoq muddatga nominal valyuta kursining o'zgaruvchanligi, real valyuta kursining o'zgarmasligi, xarid qobiliyati paritetining ta'minlanishi (narxlarning tenglashuvi nazariyasi, ichki baholar darajasi va chet eldagi baholar darajasi), qisqa muddatda nominal valyuta kursining qat'iyligi.

**49. Makroiqtisodiy siyosatning real valyuta kursiga ta'siri mexanizmini tushuntirib bering.** Real almashinuv kursining muvozanat nuqtasi, valyuta taklifining kamayishi, byudjet soliq siyosati va importni cheklashning real almashinuv kursiga ta'siri,  $X_n$  va S-I egri chiziqlaridagi siljishlar.

**50. Qayd etilgan valyuta kursi sharoitida ichki va tashqi muvozanat modeli.** IS-LM modeliga uchinchi egri chiziq – VRning kiritilishi. Davlat xarajatlari va foiz stavkasi o'zgarishining daromao'd va import hajmlariga ta'siri, to'lov balanchi taqchilligi va uning ijobiy qoldig'iga erishish. Kapitalning yuqori va past mobilligi.



## TESTLAR

**Jahon valyuta tizimi quyidagilardan qaysi birini o'z ichiga oladi?**

=====

#xalqaro bitimlarda foydalaniladigan to'lov-hisob va kredit vositalarini, valyuta kurslarini o'rnatish va saqlab turish mexanizmini

=====

xalqaro pul birliklarini, xalqaro bitimlarda foydalaniladigan to'lov-hisob va kredit vositalarini

=====

valyuta kurslarini o'rnatish va saqlab turish mexanizmini

=====

valyuta kurslarini o'rnatish va saqlab turish mexanizmini, xalqaro pul birliklarini

++++

**Valyuta konvertatsiyasi nima?**

=====

# muayyan mamlakat pul birligining boshqa xorijiy valyuta almashinish kobiliyati

=====

muayyan mamlakat pulining auktsion savdosi

=====

muayyan mamlakat pul birligining oltin va boshqa yuqori likvidli buyumlarga nisbatan qiymati

=====

**muayyan mamlakat milliy pulining kadri**

++++

**Erkin konvertatsiya uchun eng muhim bo'lgan omillar qaysilar?**

=====

# eksport salohiyatidagi milliy mahsulot, mamlakatning oltin va valyuta rezervlari

=====

**mamlakatning valyuta rezervlari**

=====

mamlakatning oltin rezervi

=====

mamlakatning oltin va valyuta rezervlari

++++

**Valyuta kotirovkasi nima?**

=====

# valyuta kursini o'rnatish

=====

**pul birligiga to'g'ri keluvchi oltin birligi**

=====

valyuta oldi-sotdi jarayoni

=====

valyuta kursini oshirish tadbirlari

++++

**Amaldagi kurs bo'yicha har qanday boshqa xorijiy valyutaga cheklanmagan miqdorda ayriboshlanadigan valyuta ... deyiladi**

=====

**# erkin konvertirlanadigan valyuta**

=====

**qisman konvertirlanadigan valyuta**

=====

ichki konvertirlanadigan valyuta

=====

tashqi konvertirlanadigan valyuta

++++

**Valyuta kurslarini o'rnatish jarayonida bozor kuchlari ta'sirida qaysi iqtisodiy kategoriyalar farqlanadi?**

=====

**# erkin, cheklangan suzib yuruvchi, qayd etilgan valyuta kursi**

=====

erkin va cheklangan suzib yuruvchi valyuta kursi

=====

davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan va norasmiy valyuta kursi

=====

jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan o'rnatilgan valyuta kursi

++++

**Xeksher-Olin modeli nimaga asoslanadi?**

=====

**# ishlab chiqarish va chiqimlar darajasi xamda ular xususiyatlariga**

=====

ishlab chiqarish chiqimlari darajasi va xususiyatiga

=====

**ishlab chiqarish chiqimlari darajasiga**

=====

chiqimlarning xususiyatlariga

++++

**«Mahsulotning hayot tsikli» nazariyasini asoslashda quyidagilardan qaysi biri e'tiborga olinmaydi?**

=====

**# mamlakat milliy valyutasi kursi**

=====

**ilmiy texnika taraqqiyoti**

=====

ishlab chiqarish chiqimlari tarkibidagi o'zgarishlar

=====

xalqaro ixtisoslashuv dinamikasi

++++

**«Mutloq ustunlik» nazariyasi mohiyati**

=====

**# mamlakatda shunday tovarlar ishlab chiqarish jarayoni mavjudki, xarajatlar birligiga hisoblanganda uni ayni shu mamlakatda ko'proq ishlab chiqarish mumkin bo'ladi**

=====

mamlakatda shunday tovarlar ishlab chiqarish jarayoni mavjudki, uning bu mamlakatda ruy berishi nisbatan yuqori samaradorlikni ta'minlaydi

=====

mamlakatda shunday tovarlar ishlab chiqarish jarayoni mavjudki, bu ishlab chiqarish jarayoni amalda boshqa mamlakatda sodir bo'lmaydi

=====

mamlakatda shunday tovarlar ishlab chiqarish jarayoni mavjudki, uni shu mamlakatda ishlab chiqarish ko'proq foyda beradi

++++

**Bank nima?**

=====

**# bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxs**

=====

bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik va jismoniy shaxslar

=====

sudxo'rlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy sub'ekt

=====

faqat kredit berish va olish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy sub'ekt

++++

**Kredit emissiyasi:**

=====

**# qarz berish uchun muljallangan va naqd bo'lmagan pulni kushimcha ravishda muomalaga chiqarish**

=====

kredit uchun Markaziy bank resurslaridan foydalanish

=====

kredit berish va olish

=====

kredit tizimida bunday tushuncha mavjud emas

++++

**Quyidagilardan qaysi biri bank vazifalariga kirmaydi?**

=====

**# transfert to'lovlarini amalga oshirish**

=====

aktsiya sotib olish va sotish, emissiya qilish

=====

kuchmas mulklarni sotib olish va sotish

=====

**pul bilan bog'liq hisob-kitob operatsiyalarini o'tkazish**

++++

**Quyidagi tamoyillardan qaysi biri kreditning yuzaga kelishida ishtirok etmaydi?**

=====

**# begaraz moliyaviy yordam**

=====

kreditni qaytarishning kafolatlanganligi

=====

qaytarish kobilyatining mavjudligi

=====

**kreditning ma'lum muddat uchun berilishi**

++++

**Kredit zarixasi:**

=====

**# kredit resurslarining bir qismi bo'lib, banklar tomonidan pul zahirasi sifatida emission banklarga qo'yiladigan majburiy zahira**

=====

kredit resurslarining bir qismi bo'lib, banklar tomonidan pul zahirasi sifatida boshqa bir turdosh bankka qo'yiladigan zahira

=====

kredit resurslarining bir qismi bo'lib, banklar tomonidan pul zahirasi sifatida bankda hosil qilinadigan majburiy zahira

=====

dalat byudjetida hosil qilinadigan majburiy zahira

++++

Foiz darajasini belgilovchi omillar eng to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping

=====

**# kreditni to'lash muddati, sharti, inflyatsiya sur'ati**

=====

kreditga bo'lgan talab va taklif, mijozga bo'lgan ishonch

=====

mablagni ishlashtirishning mukobil varianti samaradorligi, davlat tomonidan belgilangan eng quyi stavka

=====

xatar darajasi, davlat tomonidan belgilangan eng yuqori stavka

++++

**Quyidagilardan qaysi biri davlatning iqtisodiy vazifasiga kirmaydi?**

=====

**# milliy nizolarni bartaraf etish**

=====

rakobatchilik muhitini ta'minlash

=====

yalpi bandlikka erishish

=====

**iqtisodiyotni barqarorlashtirish va uning o'sishini ragbatlantirish**

++++

**Quyidagilardan qaysi biri davlatning iqtisodiy siyosati ob'ekti sifatida baholanadi?**

=====

**# ijtimoiy ximoya**

=====

**ma'naviy kadriyatlarni tiklash**

=====

ta'limni rivojlantirish

=====

milliy armiya kudratini oshirish

++++

**Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishida quyidagilardan qaysi biri asosiy va eng muhim hisoblanadi?**

=====

**# qonunchilik, ijro va nazorat**

=====

qonunchilik, ijro, bevosita tartibga solish

=====

qonunchilik, boshqarish, nazorat

=====

qonunchilik, ma'muriy buyruqbozlik

++++

**Quyidagilardan qaysi biri aniq miqdoriy o'lchovga ega?**

=====

**# yalpi ichki mahsulot**

=====

doromadning adolatli taqsimlanishi

=====

to'liq bandlik

=====

**iqtisodiy erkinlik**

++++

**YaIMning deflyatorini toping**

=====

**# nominal YaIMning real YaIM nisbatiga teng**

=====

real YaIMning nominal YaIM nisbatiga teng

=====

inflyatsiya sur'ati ikkiga ko'paytirib, 70 ga bo'linadi

=====

bazis davridagi iste'mol savati narxining o'zgarish sur'atlarini o'lchaydi

++++

**Transfert to'lovlarini aniqlang**

=====

**# uy xo'jaliklariga tulanadigan va ular tomonidan evaziga tovar va xizmatlar taqdim etish ko'zda tutilmagan to'lovlar**

=====

hukumat tomonidan alohida kishilarga amalga oshiriladigan to'lovlar

=====

milliy daromadga kirmaydigan daromad komponenti

=====

aholi daromadlarini indeksatsiyalash uchun tulanadigan to'lovlar

++++

**Quyidagilarning qaysi biri YaMM tarkibiga kiradi?**

=====

**# kitob dukonidagi kitobning qiymati**

=====

**qo'shnidan eskiroq avtomobil sotib olish**

=====

brokerdan yangi aktsiyalarni sotib olish

=====

o'quvchining she'r yodlashi

+++++

**Nominal YaMM – bu, tovar va xizmatlarning ..... narxlaridagi qiymatidir**

=====

**# joriy davr**

=====

bazis davri

=====

avvalgi yil

=====

o'tgan yil

+++++

Quyidagi ko'rsatkichlar asosida milliy daromadni aniqlang.

1. *Yalpi milliy mahsulot – 500,0*
2. *Amortizatsiya – 54,0*

*Egri soliqlar – 36,0*

=====

**#410**

=====

490

=====

446

=====

375

+++++

**Ixtiyordagi daromad – bu, ...**

=====

**# shaxsiy daromaddan yakka tartibdagi soliqlar va soliqdan tashkari to'lovlarni ayirish**

=====

ish haqi, xizmat haqi, ijara haqi va kapitalga foiz shaklidagi daromadni o'z ichiga oluvchi miqdor

=====

ish haqi va xizmat haqi, kaptalga foiz shaklidagi daromaddan shaxsiy daromadga soliq miqdorining ayirmasi

=====

ish haqi, foiz to'lovlari, ijara haqi, dvidentlar shaklidagi daromad miqdori

+++++

**Iqtisodiyot qachon yuksalishda bo'ladi?**

=====

# yalpi investitsiya amortizatsiyadan katta bo'lsa

=====

**yalpi investitsiya amortizatsiyaga teng bo'lsa**

=====

yalpi investitsiya amortizatsiyadan kichik bo'lsa

=====

yalpi investitsiya amortizatsiyadan katta va teng bo'lsa

++++

**Agar iqtisodiyot yaxlit tizim sifatida o'rganilsa bu taxlil:**

=====

# makroiqtisodiy

=====

mikroiqtisodiy

=====

mezoiqtisodiy

=====

megaiqtisodiy

++++

**Yalpi xususiy ichki investitsiya quyidagi ko'rsatkichni hisoblashda yordam beradi?**

=====

# xarajatlar bo'yicha YaIM

=====

**daromadlar bo'yicha YaIM**

=====

korporatsiyalar foydasiga soliqlar

=====

xarajatlar bo'yicha SMM

++++

**Ishsizlikning tabiiy darajasi qanday aniqlanadi?**

=====

# friksion va strukturali ishsizlik darajalarining yig'indisi sifatida

=====

tsiklik ishsizlik darajasi bo'yicha

=====

tsiklik va friksion ishsizlik o'rtasidagi farq kurinishida

=====

friksion va tsiklik ishsizlikning yig'indisi sifatida

++++

Agar ixtiyordagi daromad (U) 200 ga, iste'mol (S) 180 ga teng bo'lsa, unda iste'molga bo'lgan o'rtacha moyillik (ARS) va jamg'armaga bo'lgan o'rtacha moyillik (ARS) nimaga teng bo'ladi?

=====

**#90 % va 10 %**

=====

**111 % va 11 %**

=====

190 % va 90 %

=====

98 % va 2 %

++++

**Agar mamlakatda daromad soligi stavkalari kamaytirilsa, jami talab egri chizig'i qanday o'zgarishga ega bo'ladi?**

=====

**# unga siljiydi**

=====

**o'zgarmaydi**

=====

chapga siljiydi

=====

faqat narx darajasi oshadi

++++

**Quyidagi javoblardan qaysi biri tashqi savdodagi joriy operatsiyalarga tegishli emas?**

=====

**# strategik savdo xamkorligini tuzish**

=====

xorijdan iste'mol tovarlari xarid qilish

=====

xorijga dividendlar va foizlar to'lash

=====

**xorijga paxta tolasi yetkazib berish**

++++

**Xarajatlar bo'yicha YaIMni hisoblash formulasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping**

=====

**#  $C+I+G+X_n$**

=====

$(U+TR+N-T)-C$

=====

$(T-TR-N)-G$

=====

**$C+I+G-X_n-C-G-X_n$**

++++

**Keyns nazariyasiga ko'ra jamg'armalar investitsiyalardan ortiq bulishi mumkin, agar:**

=====

**# uzoq vaqt davomida iqtisodiyotda ortiqcha kayta ishlab chiqarish va ishsizlik mavjud bo'lsa**

=====

**foiz stavkasi darajasi ussa**

=====

ishsizlik darajasi yuqori bo'lsa

=====

inflyatsiya sur'ati yuqori bo'lsa

++++



**Quyidagi ko'rsatkichlardan qaysi birining miqdori yuksalish bosqichi boshlangunga qadar qisqarmaydi va pasayish bosqichi boshlangunga qadar ko'paymaydi?**

=====

**# chakana sotuvlar hajmi**

=====

uzoq muddat foydalaniladigan buyumlarga yangi buyurtmalar hajmi

=====

ish haftasining o'rtacha davomiyligi

=====

qimmatli qog'ozlar qiymati

++++

Quyidagi hodisalardan qaysi biri iqtisodiy tanazzul bosqichiga mos kelmaydi?

=====

**# ishsizlik bo'yicha nafaqalar miqdorining pasayishi**

=====

**aktsiyalar qiymatining pasayishi**

=====

soliq tushumlarining qisqarishi

=====

korporatsiyalar foydalarining pasayishi

++++

**Quyidagi qaysi ta'rif to'g'ri? Sezilarli byudjet taqchilligi nimalarga imkon beradi?**

=====

**# foiz stavkalarini oshirish, milliy valyutaning xalqaro kadrini oshirish va sof eksport hajmini kamaytirishga**

=====

**foiz stavkalarini kamaytirish, milliy valyutaning xalqaro kadrini qisqartirish va sof eksportning hajmini oshirishga**

=====

foiz stavkalarini oshirish, milliy valyutaning xalqao kadrini kamaytirish va sof eksport hajmini oshirishga

=====

foiz stavkalarini oshirish, milliy valyutaning xalqao kadrini oshirish va sof eksport hajmini oshirishga

++++

Davlat qarzining real muammolaridan biri shundaki, ...

=====

**# milliy mahsulotning bir qismi mamlakat tashkarisiga chikib ketadi**

=====

ixtiyordagi daromadning barcha darajalarida jamg'armalar hissasi ortadi

=====

ishlab chiqarish samaradorligini kutarish ragbatlari o'sadi

=====

**daromadlardagi tengsizlik qisqaradi**

++++

Mehnat unumdorligi quyidagi nisbat bilan o'lchanadi – ...

=====

**# mahsulot real hajmining ish vaqti soatlari miqdoriga nisbati**

=====

ish vaqti soatlari miqdorining YaMM real hajmiga nisbati

=====

**kapital sarfining mehnat sarfigi nisbati**

=====

mahsulot real hajmining aholi soniga nisbati

++++

Daromadga bog'liq bo'lmagan quyidagi omillar iste'mol xarajatlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?

*1. talabga ta'sir etuvchi omillar – to'g'ri*

*2. boylik samarasi – to'g'ri*

*3. baho – to'g'ri*

*4. iste'molchi qarzi – teskari*

*5. narxlar o'sishi kutilayotganligi – to'g'ri*

=====

**#1,2,3,4,5-javoblar to'g'ri ko'rsatilgan**

=====

1,2,4,5-javoblar noto'g'ri ko'rsatilgan

=====

2,3,4,5-javoblar to'g'ri ko'rsatilgan

=====

1,3,4,5-javoblar to'g'ri, 2-javob noto'g'ri ko'rsatilgan

++++

**Agar iqtisodiy umumlashtirishlar faktorlarga asoslansa taxlilning bu usuli:**

=====

**# induktiv**

=====

tarixiy

=====

gipotizali

=====

deduktiv

++++

**Agar xarajatlar va cheklangan ishlab chiqarish resurslardan foydalanish minimallashtirishga intilsa iqtisodiy maksad:**

=====

**# iqtisodiy samaradorlik**

=====

iqtisodiy xavfsizlik

=====

iqtisodiy o'sishni kullab kuvvatlash

=====

**to'la bandlik**

++++

**Nima, qanday, kim uchun ishlab chiqarish muammolari quyidagilardan qaysi biriga alokador?**

=====

**# har qanday jamiyatga, uning sotsial iqtisodiy va siyosiy tashkil qilishdan kat'iy nazar**

=====

faqat rejali iqtisodiyotga

=====

faqat bozor iqtisodiyotiga

=====

**faqat totalitar tizim xukmron bo'lgan jamiyatlarga**

++++

**Narxlar indeksi quyidagilarning qaysi birini hisoblash uchun zarur?**

=====

**# ikkita har xil davrdagi iste'mol savatining bozor qiymatini o'zgarishini baholashda**

=====

**joriy va o'tgan davrdagi ishlab chiqarish tarkibini o'zgarishini baholashda**

=====

ikki mamlakat orasida baholar darajasidagi farqni baholashda

=====

ulgurji va chakana baholar orasidagi farqni ko'rsatishda

++++

**Kapital iste'moli uchun ajratmalar - bu:**

=====

**# amortizatsiyalar**

=====

**sof investitsiyalar**

=====

sof xorijiy investitsiyalar

=====

iste'mol buyumlari sotib olishga ishlatib bo'lmaydigan fondlar

++++

**Fillips egri chizig'i qanday o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi?**

=====

**# inflyatsiya va ishsizlik**

=====

**inflyatsiya va foiz stavkasi**

=====

ishsizlik va ish haqi

=====

narx va ishlab chiqarish hajmi

++++

**Quyidagi muloxazalardan qaysi biri to'g'ri berilgan?**

=====

**# pulga bo'lgan talab foiz stavkasiga teskari proportsional**

=====

**pulga bo'lgan talab foiz stavkasiga to'g'ri proportsional**

=====

pulga bo'lgan talab foiz stavkasiga bog'liq emas

=====

pulga bo'lgan talabning oshishi foiz stavkasining kamayishiga olib keladi

++++

**Agarda eksport hajmi 80, import hajmi 60 ga teng bo'lsa, tashqi savdo aylanmasi nimaga teng bo'ladi?**

=====

**#140**

=====

133

=====

70

=====

**20**

++++

To'lov balansi quyidagilardan qaysi birini aks ettiradi?

=====

**# xorijdan keladigan barcha tushumlar va mamlakatning xorijga to'laydigan barcha to'lovlari**

=====

tashqi savdo saldosini

=====

moddiy ishlab chiqarishdagi barcha korxonalarining foydalari va zararlarini

=====

**davlatning daromadlari va xarajatlarini**

++++

Keyns muvozanat modeliga muvofik, iqtisodiyot muvozanatda bo'ladi, agar:

=====

**# jami taklif jami talabga teng bo'lsa**

=====

**ma'lum davr davomida pul taklifi o'zgarishi doimiy bo'lsa**

=====

rejalashtirilgan iste'mol xarajatlari bilan investitsiyalar yig'indisi umumiy «chiqimlar»ga teng bo'lsa

=====

davlat byudjeti balanslashgan bo'lsa

++++

**Tanazzul davrida quyidagilardan qaysi biri ko'proq qisqaradi?**

=====

**# tadbirkorlik foydasi miqdori**

=====

tovar va xizmatlarning davlat xaridi

=====

ish haqi darajasi

=====

**iste'molchilarning dori-darmon sotib olishga xarajatlari**

++++

**Iqtisodiy davr borishiga quyidagilarning o'zgarish sur'atlari eng qattiq ta'sir ko'rsatadi:**

=====

**# uzoq muddatli foydalaniladigan buyumlarni ishlab chiqarishga yunaltirilgan sof investitsiyalar**

=====

**tovar-moddiy zahiralarning o'sishiga yunaltirilgan sof investitsiyalar**

=====

iste'mol xarajatlari

=====

davlat xarajatlari

++++

Davlat qarzi qanday iqtisodiy okibatlarga olib kelishi mumkin?

=====

**# milliy boylikning kayta taqsimlanishiga**

=====

jami milliy xarajatlarning ko'payishiga

=====

turmush darajasining pasayishiga

=====

**ishlab chiqarish imkoniyatlarining qisqarishiga**

++++

**Davlat byudjeti taqchilligi quyidagi xollarda vujudga keladi ...**

=====

**# davlat xarajatlarining miqdori soliq tushumlari miqdoridan ortiq bo'lsa**

=====

davlat xarajatlari kamaysa

=====

soliq tushumlari miqdori qisqarsa

=====

**davlat aktivlarining miqdori uning majburiyatlari miqdoridan ortiq bo'lsa**

++++

Quyida keltirilganlardan qaysi biri mehnat unumdorligning o'sishiga ta'sir ko'rsatmaydi?

=====

**# ishlovchilar sonining ko'payishi**

=====

ishlab chiqarish kulami samarasi

=====

ishlovchilarning ta'lim va malaka darajasi

=====

**texnologik o'zgarishlar**

++++

**X mamlakatda kapitalning mahsulotga nisbati 3 ga teng. U mamlakatda esa 2 ga teng.**

**Agar jamg'ariladigan YaIM ulushi ikkala mamlakatda bir xil bo'lsa, unda X mamlakatda YaIMning o'sish sur'ati U mamlakatga nisbatan:**

=====

**# o'sish sur'atining 2/3 qismini tashkil qiladi**

=====

33,3 % ga kup

=====

2 marta past

=====

**50 % ga yuqori**

++++

Import boji va kvotasi o'rtasidagi farq shundaki, boj faqat:

=====

**# davlat byudjetiga daromadlar keltiradi**

=====

mamlakatdagi turmush darajasining pasayishiga olib keladi

=====

narxlar kutarilishiga olib keladi

=====

**xalqaro savdoning qisqarishi olib keladi**

++++

Nominal foiz stavkasi 20 foizga, inflyatsiya sur'ati yiliga 15 foizga teng bo'lganda real foiz stavka nimaga teng bo'ladi?

=====

**#5 %**

=====

35 %

=====

75 %

=====

25 %

++++

**Foiz stavkasining o'zgarishi YaMMning qaysi elementiga eng katta ta'sir ko'rsatadi?**

=====

**# ichki investitsiyalarga**

=====

davlat xarajatlariga

=====

eksportga

=====

importga

++++

